

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV  
G'ayrat SHOUMAROV  
Rustem REMOV  
Risboy JO'RAYEV  
Shaxnoza XALILOVA  
Boris BLYAXER  
Iroda ABDULLAYEVA  
Ayubxon RADJIYEV  
Sharibboy ERGASHEV  
Feruza QODIROVA

## Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

## Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

## Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqrib qilinmaydi.

Muallifning familyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

## Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga  
yo'naltirish va  
psixologik-pedagogik  
respublika tashxis markazi  
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda  
«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,  
deb ko'rsatilishi shart.

## Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

### MANZIL:

100095, Toshkejt sh.,  
Olmazor t., Ziyor ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02  
E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI – 1019**

## Mundarija

### M.X.Kamilova.

O'smir yoshdagagi o'quvchilarda qobiliyatlar shakllanishi va rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari ..... 2

### J.R.Amirqulov.

Yoshlarda intellektual iqtidorning shakllanishiga doir psixologik qarashlar ..... 3

### S.Amonova.

Global axborot makonida yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ..... 4

### N.Z.Abidova.

Alohiда ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim sharoitida inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qitishda o'quv-tarbiya jarayonini moslashtirish ..... 6

### S.S.Akbarov.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limning joriy qilinishi ..... 7

### O.Y.Bozorov.

Dislaliyada logopedik ishning tayyorlov bosqichini tashkil etish metodikasi ..... 9

### D.T.Po'latova.

"Barkamol avlod" mакtablarida bolalarni ijodiy rivojlantirish ko'nikmalar ..... 10

### S.K.Shaoxmedova.

Inklyuziv ta'lim sharoitidagi umumta'lim mакtabda logoped faoliyatining xususiyatlari. 12

### O.K.Xudoyorova.

Yoshlar tarbiyasida oila, mакtab va mahallaning mas'uliyat tuyg'usini oshirish yo'llari 14

### B.Jo'rayev.

O'quvchilarda huquqiy tushunchalar shakllanishining emperik tahlili ..... 17

### G.S.Abdullayeva, S.Mo'minov.

Inklyuziv ta'limda tyutorning o'rni va ahamiyati ..... 19

### K.R.Karimova.

4-sinf o'quvchilari matematik tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan masalalar bilan ishlash ..... 21

### S.S.Islamova.

O'smir yoshidagi sportchilar irodaviy sohasi rivojlanishining psixodiagnostik tahlili ..... 22

### E.N.Sattarov.

Prokuratura sohasida kadrlar zaxirasi bilan ishlash tizimini ijtimoiy-psixologik jihatdan takomillashtirish imkoniyatlari ..... 24

### N.Eshonqulov.

O'smir yoshlarda huquqiy munosabat shakllanishining psixologik omillari ..... 25

### Ch.Orziqulova.

Yoshlarda yuksak insoniy hislarni shakllantirishning ijtimoiy psixologik omillari ..... 27

### T.Sabirxodjayeva.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari ..... 28

### S.Raximova.

Farzand boqib olgan oilada ota-onalarning xususiyatlari ..... 29

### G.X.Jumasheva, V.K.Shukurlayeva.

Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish sektorlari ..... 30

### S.M.Abduxamidov.

Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning hissiy muammolar bilan art-terapiya usulida ishlash ..... 32

### Z.Axmedova, F.Qurbanova.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni shakllantirishga oid korreksion ishlar ..... 34

### D.G.Azizova.

Yordamchi mакtab o'quvchilarining nutqini shakllantirish ..... 35

### A.O.Dosmурзаева.

Коммуникативно-деятельностная система в обучении детей с нарушениями слуха 37

### J.Sh.Kazimov, X.M.Kazimova.

Ummiyi o'rta ta'limda ta'lim jarayonining maqsadi ..... 39

### S.Yu.Qulatova.

Voyaga yetmaganlar xulq – atvorida virtual olamga qaramlikning namoyon bo'lishi ..... 40

### X.S.Raximova.

Koxlear implantatsiyadan so'ng eshitish idrokini va talaffuzni rivojlanish texnologiyalari ..... 42

### G.O.Ochilova.

O'quvchilarni faoliyatga yo'naltirishda mustaqil ta'lim shakllarining o'rni va roli ..... 43



# O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA QOBILIYATLAR SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

M.X.Kamilova, Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

В данной статье описаны психолого-педагогические особенности формирования и развития способностей у подростков, а также научно-практические методы их психологического исследования.

**Ключевые слова и понятия:** способность, качество, активность, успех, усилие, количество, отличие, воля, возможность, процесс, фактор.

This article describes the psychological and pedagogical features of the formation and development of abilities in adolescents, as well as scientific and practical methods of their psychological research.

**Key words and concepts:** ability, quality, activity, success, effort, quantity, difference, will, opportunity, process, factor.

Psixologiyada qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifatni kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlar bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo'lishi mumkin. Qobiliyatarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishimi namoyish qildi.

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u xoh ta'lrim, xoh mehnat, xoh o'yin, xoh sport bo'lishidan qat'iy nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlarga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorlikdagi sa'y-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat harchand ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsulorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan baravar kuch-quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir, deyish juda o'rnilidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yogba chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdag'i faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) Tematik qobiliyat – matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan yengil o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilalar;

2) Adabiy qobiliyat – nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, "til zehni", behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zini ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qibiliyatlar o'zarbo'lib o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstrukturlik, tibbiy kobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlari orasida ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida yetakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga

chanqoqlik, bilimlarni uzatishga uquvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazilatlari qayidalar kiradi: artistizm, nutqiyl qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'limgarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan muayyan darajada umumiyyat va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda, qobiliyatlamni umumiy va maxsus qobiliyatlar guruhiiga ajratish maqsadga muvofik. Umumiy qobiliyatlar (sifatlar) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlar ulami hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqyelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga karamay, chuquroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi.

Rus olimi I. P. Pavlov o'z ta'lomitida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda olyi nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signallar tizimidam iboratligi to'g'risidagi ta'lomitiga asoslanadi. Birinchi signallar va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar tizimi I. P. Pavlov tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sistemasing signallari nisbatan ustunlik qilsa, inson "badiiy" tipga taalluqlidir;

2) mabodo "signallarning signali" nisbatan ustuvor bo'lsa - bu shaxs "fikrlovchi tipga" munosibdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) - bu inson "o'rta tipga" mansub odamdir.

4) Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. "Badiiy tip" uchun bevosita u taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligiga xosdir.

2. "Fikrlovchi tip" uchun mavhumlarning, mantiqiy tuzilmalarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyatning zaifligi yoki aqlning yetishmasligini bildirmaydi, lekin bu o'rinda gap psixika obrazni jabhalarini fikrlovchi tomonlari ustidan nisbatan ustuvorligi haqida boradi, xolos. Biroq shuni ta'kidlash joizki, shaxsning ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimidam ustunlik qiladi va bu ustuvorligi mutlaqlik xususiyatiga egadir. Ma'lumki, insonlarning hayot va faoliyatlarida til bilan tafakkuring o'rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan borliqni aks ettirish jarayoni so'zlar, fikrlovchi vositasida ro'yogba chiqariladi.

Psixolog M.G.Davletshin texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot



ishlari olib borgan yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Muallif texnikaviy qobiliyat deganda shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o'ziga xos birikmalarni tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faoliyatga yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullanma olishini aniqlaydi.

M.G.Davletshin ham an'anaviy yo'ldan borib, texnikaviy qobiliyatni ikkita o'sha nomdagi tipga ajratadi hamda yetakchi tayanch xususiyatlarini o'zgarishsiz qoldiradi. Lekin boshqalardan farqli o'laroq, yetakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tasavvurdan iboratdir. Uning talqinicha, texnikaviy iste'dodli shaxs bo'lish uchun u: a) amaliy jihatdan fahmli; b) texnik moslamalarni tahlil qila olish; v) narsalarni montaj qilib qismillardan butunni hosil qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. M.G.Davletshin texnikaviy iste'dod ko'sratkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan holda (ko'z bilan chandalash, fazoviy tasavvur, texnikaviy tahlil, konstruksiyalash qobiliyati) o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan.

Shaxs qobiliyatlarini rivojlanirishda barqaror, turg'un, kasbiy maxsus qiziqishlar muhim omillar, vositalar tariqasida xizmat qildi. Maxsus qiziqishlar inson faoliyatidagi u yoki bu sohaning (tarmoqning) mazmuniga nisbatan intilishidan iborat shaxsiy fazilat, ichki turki, harakatlantiruvchi kuchdir. Bunday maxsus qiziqishlar turlicha faoliyat bilan kasbiy tayyorgarlik sifatida shug'ullanish moyilligiga o'tadi. Bilishga oid qiziqish (fan asoslarini egallashga yo'naltirilgan ichki

turki) faoliyat usullarini amaliy jihatdan o'zlashtirib olishni va yangi vaziyat, sharoitga ko'chirishni taqozo qiladi, rag'batlantiradi hamda shaxsda o'zini o'zi boshqarishni ta'minlashga yordam beradi.

Qobiliyatning rivojlanishi shaxsning tarkib topishi bilan uzviy uyg'unlikka ega bo'lib, inson kamoloti har ikkala omilning birikuvini talab qiladi. Iste'dodli o'quvchilar va talabalar shakllanishi ijtimoiy muhit, ijtimoiy institutlar, ma'naviyat asoslarini hamda o'zini o'zi namoyon etish, o'zini o'zi kashf qilish, o'zini o'zi rivojlanirish asosida amalga oshishi odatiy ijtimoiy-psixologik qonuniyat tariqasida xizmat qiladi. Shunday kilib, shaxsning u yoki bu faoliyatga tayyorligi tariqasida yuzaga keladigan har qaysi yaqqol qobiliyatlar tuzilishi o'z tarkibiga yetakchi va yordamchi, umumiy va maxsus nomdagi majmua sifatlarini (xislatlarni) qamrab olgan bo'lib, murakkab tizimdan iboratdir.

#### Adabiyotlar

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
2. G'oziyev E. Umumiyy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, Faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti, 2010.
3. Psixodiagnostika. Под ред. В.И.Чиркова. – Ярославль: – 1995.
4. www.goog.uz
5. www.psicho.ru 3.2.-§

## YOSHLARDA INTELLEKTUAL IQTIDORNING SHAKLLANISHIGA DOIR PSIXOLOGIK QARASHLAR

J.R.Amirqulov, Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Данная статья носит научный характер и затрагивает серьезную и актуальную проблему психологического анализа результатов исследования развития интеллектуальных способностей и умений у молодежи.

**Ключевые слова и понятия:** талант, склонность, интеллект, мышление, способность, анализ, внимание, память, любознательность, смелость, воображение.

This article is of a scientific nature and addresses a serious and urgent problem of psychological analysis of the results of a study of the development of intellectual abilities and skills among young people.

**Key words and concepts:** talent, inclination, intellect, thinking, ability, analysis, attention, memory, curiosity, courage, imagination.

Kelajagi buyuk davlatimizning asosi bo'lgan yosh avlodni bilimli bo'lishi bilan bir qatorda kasb-hunarni egallashiga alohida e'tibor berilishiga sabab yoshlarni har tomonlama barkamol inson sifatida jamiyat a'zosiga aylanishidir. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida "Komil inson va malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi bo'lishi kerak" deb ta'kidlagan edilar. Shuning uchun ham hozirgi kunda O'zbekistonda iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatlarini rivojlanirish uchun hukumatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, respublikamizda iqtidorli yosh kadrlarni tarbiyalash, shakllantirish va ularni qo'llab – quvvatlash maqsadida muntazam ravishda qator ilmiy islohotlar amalga oshirib kelinayotganligi tahsinga loyiqidir.

Psixologiyada intellekt muammosini o'rganish qadimdan olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu o'rinda jahon psixologiyasida L.S.Vigotskiy, N.A.Menchinskaya, Dj.Bruner, P.Ya. Galperin, T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, mamlakatimizda V.A.Tokareva, E.G'oziev, R.I.Sunnatova, V.M.Karimova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiqidir.

Intellekt tushunchasini rus psixologlari aqliy iste'dod yoki qobiliyat deb yuritishadi. Chet el psixologiyasida qobiliyatni miqdor jihatdan o'lchash hamda uni tavsiyab berish uchun intellekt tushunchasi kiritilgan. O'z davrining yirik psixologlari bo'lgan R.B.Kettell, L.Termin, Ch.Spirmen va boshqalar XX asming boshlaridayoq inson qobiliyati darajasini o'lchash uchun turli xususiyatlari intellektual testlarni yaratganlar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad turli ixtisosliklar uchun kadrlarni tanlashni amalga oshirish yoki ularning kasbga yaroqliliginini,

layoqatligini aniqlashdan iboratdir.

XIX asr oxirlariga kelib, psixologiya fanida intellekti o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Fransuz psixolog A.Bine intellekti tadqiq qilish bo'yicha dastlabki qadamni qo'ydi. T.Simon bilan birlgilikda bolalar intellekti rivojlanishining darajasini tadqiq qiluvchi testlarni ishlab chiqdilar. Ular o'z izlanishlariga asos qilib, o'sha davrda hukmon mavqyega ega bo'lgan funksional psixologik nazariyani qo'llashgan bo'lib, unda psixik rivojlanish bir necha tug'ma funksiyalar rivojlanishining natijasida yuz beradi, degan fikr ustuvorlik qildi. Biroq, aslida, bu qibiliyatlar bir-biri bilan eng xilma-xil kombinatsiyalarda birlashtirilishi mumkin: zaif xotira kuchli fikrlash qobiliyati bilan birlashtirilishi mumkin, shu bilan birga, sinovdan o'tganda ajoyib xotira deb topilgan shaxs, ahmoq bo'lib chiqishi mumkin. Shu sababli, A.Bine u taklif qilgan aqly testlar doimo alohida ma'noga ega bo'lib, individual qobiliyatlarini tahlil qilish uchun mos keladi, lekin ularning butunligini oshib bera olmaydi, deb yozgan.

Taniqli ingliz pedagogi B.Saymon intellekti "individning o'zgarmas sifati" deb tushunishni keskin tanqid qilgan. U testlar mazmunini chiqur tahlil qilib, ularni qo'llash qonuniyatlarini kuzatdi va so'ng quyidagilarni aytdi:

- testlar tabiiy intellekti o'lchamaydi;
- har qanday holatda ham ular maktabda, ota-onha uyida olgan bilim, ko'nikma va malakalarni sinovdan o'tkazish;
- testlarni bajarish uchun murabbiylik qilish mumkin;
- kam ta'minlangan bolalarni sinovdan o'tkazish asosida tanlash.

Iqtidoring faqat intellektual tarkibiy qismiga amerikalik tadqiqotchilar R.Kettel, J.Gilford va boshqalar qarshi chiqdilar, garchi



ular ma'lum darajada aqliy qobiliyatlarining rivojlanishini o'z vaqtida pedagogik tuzatish imkonini beradigan intellekt testlar funksiyalarining ahamiyatini ko'rsatdilar. Iqtidorni aniqlash, iqtidorli bolalar uchun o'quv dasturlarini tuzish tartibi uchun J. Renzullining iqtidor modeli juda qulay edi. U "uch halqa" deb nomlanadi, chunki bir-biri bilan kesishadigan uchta komponent: intellektual qobiliyatlar, motivatsiya (yoki ehtiros), ijodkorlik iqtidorli shaxsning ta'sirini tashkil qiladi.

Iqtidorni differensiallashtirish, iqtidorming har xil turlarini aniqlash va rivojlantirish tendensiyasi G. Gardner tomonidan o'zining aql turlarining ko'pligi haqidagi nazariyasi bilan mustahkamlangan. Bu turlarning barchasi o'zaro ta'sir qiladi, kesishadi va bir-biriga asoslanadi (lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, musiqiy, tayanch-harakat, shaxslararo).

Amerikalik psixolog J.Feldxusenning to'rt komponentli iqtidor tushunchasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U Renzulli modeliga o'xshaydi, lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agar u ijodkorlikni umumiyl qobiliyatlar toifasiga ham kirtska, unda u uchun motivatsiya boshqa turdag'i – muvaffaqiyat motivatsiyasidir.

J.Feldxusen Renzulli modelini to'rtinchchi komponent – ijobjiy o'zini o'zi tushunchasi bilan to'ldiradi. Triarxik intellektual iqtidor nazariyasi R. Sternber tomonidan ilgari surilgan. U har bir shaxsiy holatda intellektui shaxsning ichki va tashqi dunyosi bilan bog'laydigan uchta quyi tizimni ajratib ko'rsatdi. Bu nazariyaning asosiy g'oyasi shundaki, "intellektual iste'dod monolit emas, balki tanlangan quyi tizimlarning turli xil kombinatsiyalari tufayli o'zini turli yo'llar bilan namoyon qilishi mumkin".

Intellektual iqtidor "o'rtachadan yuqori" aql bilan tavsiflanadi. Bu sub'ektiv va ob'ektiv yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni ishlab chiqishda nostandard yondashuvlardan foydalanish, muayyan mavzu bo'yicha yechimlarni topishning asosiy, eng istiqbolli yo'naliishlariga sezgirlik va ochiqlik bilan bog'liq ijodiy intellektual faoliyat uchun imkoniyat yaratadi.

Intellektual iqtidorli bola – bu fikrlashning o'tkirligi, kuzatuvchanligi va ajoyib xotirasi bilan ajralib turadigan, aniq va ko'p qirrali qiziquvchanlik ko'rsatdigan, tez-tez va uzoq vaqt davomida u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanadigan, ixtiyoriy va oson o'rganadigan, ifoda etish qobiliyat bilan ajralib turadigan bola.

Iqtidorli shaxslarning quydagi xususiyatlari ajralib turadi:

- g'oyalarni ob'ektiv sinovdan o'tkazishda tafsilotlarga e'tibor berish bilan yorqin tasavvur uyg'unligi;
- nostandard idrok etish qobiliyati;
- sezgi, zukkolik, ongsiz aql;
- divergent fikrlash;
- qiziquvchanlik;
- jasorat;
- tasavvur;

- fikrlashning konkretligi;
- jasorat;
- estetik sezgirlik.

A.M.Matyushkin (1989), intellektual iqtidorning integral tuzilishi haqida gapirib, unga quyidagilar kiradi:

1. Kognitiv motivatsiyaning dominant roli, u tadqiqot, qidiruv faoliyati shaklida namoyon bo'ladi va rag'batlantirishning yangiligi, vaziyatning yangiligi, yangi kashfiyotlar uchun pastki chegaralarda (ya'ni yuqori sezwchanlik) namoyon bo'ladi.

2. Biror yangilik kashf etishda, muammolarni shakllantirish va hal etishda ifodalangan tadqiqot, ijodiy faoliyat;

3. Original yechimlarga erishish imkoniyatlari;

4. Oqibatlarini bashorat qilish va voqealarni oldindan ko'rish (oldindan ko'rish) imkoniyati, har bir keyingi qaror bosqichining optimalligi;

5. Yuqori estetik, axloqiy va intellektual baholashni ta'minlaydigan ideal standartlarni yaratish qobiliyat.

G'arb psixologlari intellektual qobiliyatga nisbatan biroz boshqacha yondashuvlarga ega. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, bu uchta xususiyatning o'zaro ta'siri natijasidir: o'rtachadan yuqori qobiliyat, topshiriqda ishtirok etish (kuchli motivatsiyaga ega) va ijodkorlik.

Muhimi, ijobjiy o'zini o'zi anglash, yangi g'oyalalar, nazariyalar berish, yangi narsalarni yaratish yoki muammolarga aniq yechim topish qobiliyatidir. Shu bilan birga, yuqorida xususiyatlarni ma'lum bir faoliyatda namoyon bo'lsa, ajoyib muvaffaqiyatga erishiladi. Intellektual qobiliyat va hayotiylik (faol uzoq umr ko'rish nuqtai nazaridan) o'tasidagi bog'liqlik mavjud.

Intellektual qobiliyat favqulodda intellektual yutuqlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi mualliflar bu yutuqlarning soni kognitiv (aqliy) tajribasini tashkil etishning o'ziga xos shakllariga asoslangan deb hisoblashadi.

Kelajagi buyuk davlatimizning farovon turmush tarzini har tomonlama yetuk komil iqtidorli yosh kadrlar yaratishini ta'kidlab, ularga ishonch bildirib, barcha imkoniyatlar eshigini keng ochib berayotgan davlatimiz rahbariyati sa'y harakatlarini amalga oshirish har bir ustozga katta mas'uliyatni yuklaydi. Yoshlarda intellektual iqtidor va qobiliyatni shakllantirish asosida, kasb-hunari-yu bilimlari bilan dunyoga tanilgan buyuk ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash davrimiz talabidir.

#### Adabiyotlar

1. Теплов Б.М. Проблемы индивидуальных различий. – М.: 2000.
2. Г'озиев Е. Умумији psixologiya. – Т.: O'zbekiston, Faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti, 2010.
3. Немов Р.С. Психология. – М.: Владос. 2003.
4. Тихомирова Л.Ф. Развитие интеллектуальных способностей школьника. – М.: 1997.

## GLOBAL AXBOROT MAKONIDA YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

S.Amonova, Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

В статье особое внимание уделяется роли педагога в привитии национальных ценностей в воспитании молодежи и утверждается, что изучение этой проблемы имеет сегодня большое значение и ставит перед психологической наукой ряд насущных задач.

**Ключевые слова и понятия:** национальные особенности, национальное сознание, обряды, обычаи, народ, личность, молодежь, этнос, стереотип, идеология, духовность, просвещение, мышление, мировоззрение, вера, религия, национальная ценность, национальная традиция, культура, этика.

The article pays special attention to the role of the teacher in instilling national values in the education of young people and argues that the study of this problem is of great importance today and poses a number of urgent tasks for psychological science.

**Key words and concepts:** national characteristics, national consciousness, rituals, customs, people, personality, youth, ethnic group, stereotype, ideology, spirituality, education, thinking, worldview, faith, religion, national value, national tradition, culture, ethics.



O'zbekiston Respublikasining istiqbolli taraqqiyoti bugungi kunda yosh avlodning har tomonlhma mukammal darajada shakllanishiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni milliy qadriyatlar ruvida tarbiyalash muammosi psixologiyada eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning ilmiy-amaliy jihatlarini o'quvchilarda o'rganish bilimlarni zamон talablari asosida rivojlantirish imkonini beradi.

Ochiq axborot tizimi sharoitida jahon miqyosida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborot-psixologik xavfsizligi bilan bog'liq global muammolarni hal qilishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bugungi informatsion kurashlar, mafkuraviy va g'oyaviy jarayonlar keskinlashgan tahlikali va murakkab davrda g'oyaviy qarashlari bir qadar beqaror yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan asrash, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tazyiqlarga qarshi izchil kurashishga undash, ularda jamiyat va uning a'zolariga nisbatan ongi munosabatni shakllantirish, sodir bo'layotgan voqyeliklarga daxldorlik hissini qaror toptirish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Global axborot makonida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ma'nnaviy asoslarini mustahkamlash, yoshlarni ongi va qalbida milliy g'oya va ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirish, inson manfaatlarni eng olyi va ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish, ma'nnaviyatimiz va amaliy hayotimizda ro'y berayotgan mafkuraviy jarayonlarda sobit g'oyaga va mustahkam qarashlarga ega bo'lgan yangi davr kishisini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilab olindi. Milliy g'oya millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Tabiiyki, "Toki hayot mayjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasini orqali belgilab olishga intiladi" Negaki, millatning erkinligini, uning o'ziga xosligini uning ma'nnaviyati, milliy g'oyasi moddiy kuchga aylangandagina ta'minlash mumkin bo'ladi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mayjud bo'lgan bunyodkor g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi. Muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida, yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib qiladi. "Milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'nnaviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarning markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlhma mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat" dir.

Bu jarayon maktabgacha ta'lim muassasalarida "Odob durdonalari" mashg'ulotlarida milliy g'oyaga doir ilk tushunchalar ertak va afsonalar vositasida bolalarga singdiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinganligi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori ID-11181) umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongi umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'nnaviyatni yanada chucur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruvida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'nnaviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, shuningdek "Odobnama", "Vatan tuyg'usi", "Milliy g'oya va ma'nnaviyat asosları" va "Dunyo dinlari tarixi" kabi fanlarni birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani negizida singdirilishini nazarda tutadi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazlarining asosiy vazifalaridan biri milliy manfaatlarni, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, tobelikka qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish, yoshlarni ongi milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini singdirish, ularni ongli yashash, o'z fikriga ega bo'lish, turli ma'nnaviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlashdan iboratdir.

Buyuk mutafakkirlarning asarlarida o'qitish va tarbiyalashni to'g'ri tashkil qilishning muhimligi qayta-qayta ta'kidlangan. Masalan, Beruniy

maktabda o'rganilishi lozim bo'lgan fanlar qatorida matematika, tabiatshunoslik, fizika, ximiya, falsafa, mantiq, til va hokazolarning muhimligini o'qtirgan. Beruniy ta'limming eng zarur tarkibiy qismlari deb quyidagilarni ifodalagan:

1. Aqliy va axloqiy tarbiya.
  2. Estetik tarbiya va mehnat tarbiyasi.
  3. Oila tarbiyasi.
  4. Do'stlik tarbiyasi va baynalmilat tarbiya
- Ma'lumki, g'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikrdir. Jamiyatimiz hayotida shakllangan milliy g'oyani keng targ'ib etish, uning hayotbaxsh, adolatl, rivojlantiruvchi jihatlarini yoshlarni ongi singdirish, bunda eng qulay ta'lim-tarbiya usullari, metodlari, texnologiyalaridan foydalanan, shu jarayonda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligiga alohida e'tibor qaratish, yoshlarda yuksak ma'nnaviyat va mafkuraviy sobitqadamlikni shakllantiradi, jamiyatimizning asosiy rivojlantiruvchi kuchi hisoblangan yoshlarni yagona g'oya atrofida birlashtirish va shunga doir ma'nnaviy ta'lim-tarbiya ko'lamenti kengaytiradi, yoshlarni o'zbek xalqining milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda sharqona demokratiya prinsipi asosida tarbiyalash va bu jarayonning uzlusizligini ta'minlash, ularni turli manfaat, maqsad va intilishlarini ifodalovchi g'oyalarga munosabat bildira olishga o'rgatadi.

### **O'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy madaniy merojni o'rganish manbalari**

**1-jadval**

№	Manbaalar	Ahamiyati	
		daraja (o'rni)	foiz
1.	O'zbek xalqi tarixi	1,59	88,2
2.	O'zbek milliy adabiyoti va xalk og'zaki ijodi namunalari (maqol, hikmat, ertak, doston va boshqalar)	1,81	83,8
3.	O'zbek milliy amaliy san'ati namunalari (naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, badiiy kashtachilik, badiiy kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, miniyatURA asarlari...)	2,27	74,6
4.	O'zbek mumtoz musiqasi	2,81	63,8
5.	O'zbek millati urf-odatlari, rasm-rusumlari, an'analari, udumlari va qadriyatlari aks etgan (ifodalangan) bayramlar, to'ylar va ta'ziya marosimlari	1,28	94,4
6.	O'zbek milliy dehqonchiligi va chorvachiligi mehnati asoslarini o'rganish va unga bevosita ishtiropi	3,10	58,0

Bu manba o'zbek millatining ko'p boyliklarini o'z ichiga oladi, albatta. Ana shu udumlarning o'tkazilishi va ularga rioya qilinishi yoshlarni majburiy ravishda ijtimoiy aloqa munosabatlar tizimiga jaib etadi, keyin esa odatiga va etnik, milliy ongingin bir qismiga aylanadi. An'anaviy milliy bayramlari, urf-odatlari va diniy marosimlarni o'tkazishda katta avlod kishilari (qariyalar) yosh avlodga faqat ayrim majburiy ish va harakatlarining qoidalari hamda nozik tomonlarini emas, balki iloji boricha muayyan an'analarning tarixi va mohiyatini ham gapirib berishga harakat qilishi zarur.

Shuning uchun ham 1-jadvalda "O'zbek xalqining tarixi" manbai ancha yuqori rang (1,59; 88,2%) bilan ikkinchi o'rinni oglani bejiz emas. Tarix o'zbek xalqining an'anaviy madaniyatini manbasi sifatida muhimligini tan olgan holda tarixchi olimlar uni yanada jiddiyroq o'rganishlari kerak, degimiz keladi.

O'zbek xalqining an'anaviy madaniyatini manbalari orasida o'zbek milliy adabiyoti va xalq og'zaki ijodi uchinchi o'rinda (1,81; 83,8%).

Shu bilan birga xalq og'zaki ijodi, keyin adabiyotda



mustahkamlangan nutq va so‘z millat madaniyati an'analar, urfatlarining jamuljam ifodalovchisidir.

Ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘ochsozlik, kashtado‘zlik, zargarlik, jazzi buyumlar yasash kabi an'anaviy xalq hunarmandchiliklarda mustahkamlangan o‘zbek xalq ijodiyoti xazinalarining namunalari ham etnosning an'anaviy madaniyatining muhim manbaidir (2,26; 74,6%).

Shundan so‘ng o‘z ahamiyatiga ko‘ra “O‘zbek mumtoz musiqasi”, “An'anaviy dehqonchilik va chorvachilikni o‘rganish hamda ularda qatnashish orqali bolalarning aloqa munosabatlarga kirishishi va tarbiyalanishi” ko‘rsatildi (3,1; 58%).

Bizningcha, keyingi manbalarning muhimligi ham (1-jadval) shubhasizdir. Olingan natijalar esa yoshlar uchun madaniyat manbalari sifatida amaly munosabatda bo‘linganini ko‘rsatadi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar yoshlarga milliy g‘oyaning umummilliy mafkuraga aylanishini tushuntirish; turli mafkuralarning milliy g‘oya rivojlanishiga ta’siri va o‘zaro bog‘liqligini aniq misollar yordamida yetkazish; jamiyatning rivojlanish jarayonida milliy

mafkuraning tarbiya konsepsiyasiga aylanishi haqida ma’lumot berish; ularni milliy mafkuraning o‘zbek xalqi va O‘zbekiston jamiyati taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini anglatish pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor maqsadlaridan biriga aylanishi kerak, degan xulosani beradi.

#### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so‘zi. 2017 yil 21-aprel.
2. Sh.M. Mirziyoyev Yoshlarga oid davlat siyosati. gazeta uz 27-dekabr 2019 yil.
3. Asqarov A.O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixidan // xalq ta’limi. – T.: 1996.
4. <http://www.ziyonet.uz/>.
5. <https://ibfourok.ru/>.

## ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALARINI UMUMTA’LIM SHAROITIDA INKLIZIV TA’LIM BO‘YICHA O‘QITISHDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI MOSLASHTIRISH

**N.Z.Abidova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Logopediya kafedrasи o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

В данной статье рассматривается проблема адаптации детей с особыми образовательными потребностями в инклюзивном образовании. Определены формы инклюзивного образования, даны рекомендации по организации учебного процесса в инклюзивном образовании.

**Ключевые слова и понятия:** инклюзивное образование, формы инклюзивного образования, дети с особыми образовательными потребностями, адаптация, работа с родителями, урок, адаптивные программы.

This article deals with the problem of adaptation of children with special educational needs in inclusive education. The forms of inclusive education are defined, recommendations are given on the organization of the educational process in inclusive education.

**Keywords and concepts:** inclusive education, forms of inclusive education, children with special educational needs, adaptation, work with parents, lesson, adaptive programs.

Bugungi kunda respublikamizda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratish, ijtimoiy faolligini oshirish va iste’dodini qo‘llab-quvvatlash, jismoniy hamda ruhiy rivojlanishiga ko‘maklashish, bilim, malaka, mahorat darajalarini oshirish, o‘quvchi-yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratildi [1]. Jumladan, Respublika bo‘yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 21,3 ming nafar, 22 ta sanatoriylar turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o‘quvchilar ta’lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolnishga muhtoj bo‘lgan 13,8 ming nafar o‘quvchilar uyda yakka tartibda o‘qitilmoqda. 5,9 mingdan ortiq umumiyy o‘rta ta’lim maktablarida 64,6 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-soni qarori bilan 2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlanirish konsepsiysi qabul qilindi. Konsepsiya doirasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 51 foizida (umumiy soniga nisbatan) inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilishi, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning (umumiy soniga nisbatan) 40 foiz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘qitishi hamda uyda ta’lim olish uchun alohida ehtiyoja ega bolalar soni (umumiy soniga nisbatan) 11 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan. Shuningdek, ushuq qarorga ko‘ra 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab:

– boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda alohida ta’lim ehtiyojlarini bo‘lgan bolalarga ta’lim berish moslashtirilgan (adaptiv) o‘quv dasturlari ishlab chiqildi;

– alohida ta’lim ehtiyojlarini bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta’lim maktablarida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini shtatlarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish hisobidan maxsus pedagog shtat birlklari ajratildi;

– alohida ta’lim ehtiyojlarini bo‘lgan bolalarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog-xodimlar) yaqindan ko‘maklashishmoqdi;

– inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog-xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontorlar va oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyat davrida ixtiyorilik asosida jalg qilindi.

Ma’lumki, inklyuziv ta’lim sharoitida maxsus ehtiyojli bolalarga ta’lim tarbiya berishning o‘ziga samarali natija bermaydi. Buning uchun maktabda pedagoglar, defektologlar, psixologlar tomonidan do’stona munosabat muhitini yaratish lozim. Sinfda do’stona munoabat muhitining shakllanishi sog‘lom va alohida ta’lim ehtiyojlar mavjud bolalarning bir birlariga, tengdoshlariga nisbatan mehr-muhabbatlari bo‘lishlariga, bir birlariga doimo yordam berishlariga zamin yaratadi, ularning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu esa korreksion-rivojlaniruvchi ishni samarali va uyg‘un kechishini ta’minlaydi. Biz quyida do’stona munosabat muhitini yaratishga yordam beradigan o‘yin usullarini ko‘satib o‘tamiz.

**“Soyalar” o‘yini.**  
**O‘yindan ko‘zlangan maqsad:** bolalar o‘rtasida do’stona



munosabat ruhini shakllantirish.

**O‘yin jihozlari:** kattaroq hajmdagi oq qog‘oz, flomaster.

**O‘yining borishi:** Bolalar kichik guruhlarda ishlagan holda bir-birlarining soyalarini aniqlaydilar. Bu faoliyat odamning katta qog‘oz yonida turganda, uning atrofidan qalam yordamida chizish orqali bajarilishi mumkin. Shundan so‘ng turli rangdagi qog‘ozlarga tushirilgan soyalar qirqib olinadi va ularga egalarinig ismlari yozib qo‘yilib, bolalarga bu kimning “soyasi” ekanligi aytiladi.

**Birinchi usul:** har bir bola devorlarga osib qo‘ylgan soyalar atrofida yurib, ularning har biriga ijobjiy gaplarni tarbiyachi yordamida yozadilar. Albatta o‘zining soyasi bundan mustasno.

**Ikkinci usul:** har kuni bitta soyani osish va bolalar bu soya haqida ijobjiy fikrlarni bildirishidir. Soyalar ustiga maxsus sovrin yoki sertifikatlar yopishtirish mumkin. “Soyalar” o‘yining yana bir turi “Mening tasavvurimda” deb ataladi. Bolalar juft bo‘lgan holda bir-birlarining boshlarining rasmini chizadilar. Bir birlarining fikrlarini (qiziqishlari, orzulari) so‘ragandan so‘ng ular har bir rasm uchun o‘z fikrlarini bildirganlaridan so‘ng, hamma rasmlar yig‘iladi va ular haqidagi fikrlarning farqi, umumiylarini muhokama qilinadi.

Bu o‘ynni olib borishda tarbiyachi mutazam ravishda kuzatib turadi va boshqa bolalarga guruhdagi rivojanishda orqada qolgan bolalarning “soyasi”ga ham ijobjiy fikrlar yozilishini nazorat qiladi, rivojanishda orqada qolgan bolaning ham faol ishtirot etishiga ko‘maklashishi shart.

### “Kungaboqar” o‘yini

**O‘yining maqsadi:** bolalar o‘rtasida do’stona munosabat muhitini shakllantirish

**O‘yin jihozlari:** Gul bargi shaklida qirqilgan rangli qog‘ozlar. Bolalarning har biri uchun o‘z tamg‘asifat rangli qog‘ozdan yasalgan shakllar yoki nakleykalar. Har bir bolaning foto suratlari. Yelim.

**O‘yining borishi.**

- 1) bolalarga bugun yangi o‘yin o‘ynalishini ma’lum qilish.
- 2) hamma bolalar uchun o‘z shaklini rangli qog‘ozdan qirqib olishiga yordam berish.
- 3) har bir bolaning fotosuratini bosh qismini dumaloq qilib qirqib olib, alohida A4 format qog‘ozning o‘rtasiga yopishtirish.

4) har bola rasmining atrofiga oldindan tayyorlab qirqib olingan gul barglarini xuddi kungaboqar guli kabi aylana qilib yopishtirib chiqish (bunda bolalar faol ishtirot etadilar);

5) bolalar qarang, har biringizning rasmingizni gul ichiga joylashtirdik. Endi har kuni har biringizni mana shu rasmingizni doskaga osib qo‘yaman. Qolgan bolalar esa bu rasm atrofidagi baglariga agarda rasmi ilingan bola unga biror bir yordam bersa yoki biror bir yaxshilik qilsa o‘z tamg‘asini uning kungaboqar guli barglariga yopishtirib qo‘yib, rahmat aytadi. Biz kun yakunida har bir boladan bu tamg‘ani nima uchun, qanday yordam bergenligi uchun yopishtirganligini so‘raymiz. O‘yinimiz yakunlanganda har bir bolaning kungaboqarida yopishtirilgan tamg‘alarini sanaymiz. Qani kimning kungaboqar guli barglarida tamg‘alar ko‘p bo‘larkin.

Mazkur o‘yinlardan dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtarda

foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish natijasida inklyuziv ta’lim doirasida sifatli samaradorlikka erishiladi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilar faolligini oshiruvchi o‘qitish metodlaridan biri “Kichik guruhlarda ishlash” metodidir. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib ishlaydilar va bu jarayonda har bir guruh bir-biridan o‘rganishga, o‘rganganlarini o‘z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishlariga imkon yaratiladi.

Ushbu metodni quyidagicha qo‘llash mumkin:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kerakli asos yaratiladi. O‘quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo‘lislari kerak (ta’limning bu metodida rangli, lavhalni suratlari, mavzuga oid 5-6 daqiqalik ekranlashtirilgan hujjatli filmlar namoyish etilib, qaltsi vaziyatlarda “Shu holatda men nima qila olar edim?”, “Nima qilmoq to‘g‘ri bo‘lardi?” kabi).

3. Guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar 5-6 ishtirokchidan iborat guruhlar tuziladi. Aniq ko‘rsatma, topshiriq bo‘yicha ishga kirishiladi.

4. O‘qituvchi har bir guruh faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, yo‘naltirib turadi.

5. Dars yakuni muhokama qilinadi, o‘quvchilar baholanadi, rag‘batlantiriladi. Munozara metodida esa har bir o‘quvchi muammoli masala ustida ishlaydi. Guruh qatnashchilarining har bir a‘zosi o‘z fikrini erkin aytish imkoniyati sharoiti yaratib berilishi kerak. So‘ng qatnashchilar bildirgan fikr va munosabatlar guruhlashtirilib, tahlil qilinadi.

### Adadabiyotlar

1. Abidova N.Z. Creating an Inclusive Educational Environment for Children with Special Educational Needs / International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT, ISSN:2509-0119) / Vol 20, No 2 (2020).

2. Волосовец Т.В. Инклюзивная практика в дошкольном образовании [Текст] / Т.В. Волосовец, Е.Н. Кутепова. – М.: Мозаика-Синтез, 2011.

3. Гулидов П.В. Основные направления модернизации инфраструктуры дошкольных учреждений [Текст] / П.В. Гулидов // Справочник руководителя дошкольного учреждения. – 2012. – № 7.

4. Приходько О.Г. Деятельность специалистов сопровождения при включении обучающихся с ограниченными возможностями здоровья и детей-инвалидов в образовательное пространство [Текст]: методические материалы для специалистов сопровождения: учителей-логопедов, учителей-дефектологов, педагогов-психологов, тьюторов и социальных педагогов образовательных организаций/О.Г. Приходько и др.– М.: ГБОУ ВПО МГПУ, 2014.

5. Сиротюк А.С. Воспитание ребенка в инклюзивной среде. Методика, диагностика [Текст] / А. С. Сиротюк. – М.: ТЦ Сфера. 2014.

## O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING JORIY QILINISHI

S.S.Akbarov, Muqimi nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Logopediya yo‘nalishi 1 bosqich talabasi

Инклюзивное образование – процесс развития общего образования, который подразумевает доступность образования для всех, в плане приспособления к различным нуждам всех детей, что обеспечивает доступ к образованию для детей с особыми потребностями.

**Ключевые слова и понятия:** инклюзивное образование, особые потребности, равное отношение, гуманизм.

Inclusive education is the process of developing general education, which implies the availability of education for all, in terms of adapting to the various needs of all children, which ensures access to education for children with special needs.

**Key words and concepts:** inclusive education, special needs, equal treatment, humanism.



Hozirgi kunda Respublikamiz miqyosida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni inklyuziv ta'limga jalb etishning huquqiy asosini mustahkamlash bilan bir qatorda ko'plab ilmiy-amaliy tajriblar olib borilmoqda. Respublikamizda olib borilayotga barcha islohotlarning maqsadi davlatimz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazish natijasida yaratiladi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limgar tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'limgar imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'limgar muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'limgar butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'limgar maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alovida ta'limgar ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'limgar-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'limgar va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va axborot-kommunikasiyan texnologiyalarini amaliyotga joriy etish"<sup>[1]</sup> ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni har tomonlama sifatli ta'limgar bilan ta'minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlardan yaratildi.

Ta'limgar tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun-qoidalarga, tamoyillarga va asoslarga tayanishi lozim. Bugungi kunda O'zbekistonda 250000ga yaqin nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'limgar olish ehtiyojiga ega. Shuni inobatga oлган holda respublikamizda nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'limgar muassasalarini faoliyat yuritadi. Shu bilan bir qatorda butun dunyo mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limgar amalga oshirish bo'yicha turli qaror va qonunlar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi ta'limgar to'g'risidagi qonunning 23-moddasida "rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar ta'limgar olish huquqiga egadirlar" deyildi. Ta'limgar to'g'risidagi qonunning yangi tahririga ko'ra, qonunga har bir bolaning ta'limgar olishdagi teng huquqligini ta'minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan "inklyuziv ta'limgar" tushunchasi ham kiritildi.

2020-yil 13-oktobrdagi Prezident qaroriga muvofiq shaharlarda va Toshkent shahri tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda 2021-2022-o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta'limgar joriy qilindi.

Inklyuziv ta'limgar-barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'limgar ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga oлган holda ta'limgar muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlash.

**Inklyuziv ta'limgar** – (inklyuziya – inglizcha inclusion-uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'limgar bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'limgar sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'limgar bu, shunday ta'limgar-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiylar uchun, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'limgar olishi demakdir.

– Inklyuziv ta'limgarning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'limgar olishini qo'llab, yaxshi hayot ko'rinishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'limgar sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'limgar dasturlari

bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsus (korreksion) dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'limgar ehtiyojlar bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmasligi lozim. Inklyuziv ta'limgar sinflariga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Maktablarda inklyuziv ta'limgar sinflari soni bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi.

Inklyuziv ta'limgar sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

– ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

– eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

– somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanishda darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

– nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

– tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomielit, miopatiya, osteomielit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi – pakanalik);

– aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

– aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

– intellektual rivojlanishning potensial buzilagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

– xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

– intellektual rivojlanishi saqlanib qolning tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limgar umumta'limgar jarayonini rivojlaniradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limgar joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limgar olishiga oid qo'shimcha moslamalarini tashkil qilib, nogiron bolalarning ta'limgar olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'limgar turli xil ehtiyojli bolalarning ta'limgar olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlanirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'limgar turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ixcham turdag'i dars berishga yondashadigan ta'limgar turini amalga oshiradi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'limgar to'g'risidagi Qonuni". – T.: 2020.

2. Shomaxmudova R. "Maxsus va inklyuziv ta'limgar" o'quv metodik qo'llanma.

3. S.S.Akbarov. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limgar ehtiyojning huquqiy asoslari. «Inklyuziv ta'limgar strategiya, fan, amaliyot va texnologiyalar» xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 60 bet. 10-dekabr, 2021.



# DISLALIYADA LOGOPEDIK ISHNING TAYYORLOV BOSQICHINI TASHKIL ETISH METODIKASI

O.Y.Bozorov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti stajor-tadqiqotchisi

В данной статье приведены рекомендации по повышению эффективности логопедической помощи и способов их организации, цели и задачи подготовительного этапа коррекционной логопедии при дислалии, дефектов речи.

**Ключевые слова и понятия:** дислалия, подготовительный этап, логопедия, фонематическое восприятие, артикуляционный аппарат, артикуляция, звук.

This article provides recommendations for improving the effectiveness of speech therapy assistance and ways to organize them, the goals and objectives of the preparatory stage of corrective speech therapy for dyslalia, speech defects.

**Key words and concepts:** dyslalia, preparatory stage, speech therapy, phonemic perception, articulatory apparatus, articulation, sound.

Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga ega. 4-5 yoshli bolalarning ko'pchiligidagi tovushlar talaffuzi til me'yoriga yaqinlashgan bo'ladi. Ayrim bolalar esa tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushni ikkinchi tovushdan farqlay olmaydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda noto'g'ri qo'llaydilar. Bu holatlar dislaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishi asosida namoyon bo'lishi mumkin.

Dislaliyada logopedik ishning asosiy maqsadi nutqiy tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat. Nutqiy tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olishi uchun bola quyidagilarni bilishi lozim:

- nutqiy tovushlarni bilishi;
- ularni bir biridan farqlay olishi (tovushning akustik belgilariga ko'ra ajrata olish, tovushning to'g'ri talaffuzi bilan buzilgan talaffuzni farqlay olishi);
- o'zi talaffuz qilayotgan tovushlarni eshitib nazorat qila olishi va ularning sifatiga tanqidiy baho bera olishi;
- nutq vaqtida boshqa tovushlarga mos kelishiga qarab tovushning artikulatsion holatini o'zgartira olishi;
- kerakli tovushni nutqning turli ko'rinishlarida to'g'ri talaffuz qilishi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlar haftasiga kamida 3 marta, mutazam ravishda o'tkaziladi. Mashg'ulotlarda o'tilganlarni mustahkamlash hamda korreksion ta'sirning sifati va natijaviyligini oshirish maqsadida ota-onalar nazoratida bajariladigan qisqa muddatli (5-15 daqiqalik) mashqlar uyg'a vazifa tarzida berib boriladi. Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish, doimiy bajarilishini nazorat qilib borish uchun har bir bolaga alohida "uyga vazifa" daftarni tutish tavsya etiladi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda didaktik materiallardan keng miqyosda foydalaniлади.

Oddiy dislaliyada logopedik mashg'ulotlar 1oydan 3 oygacha, murakkab dislaliyada 3 oydan 6 oygacha davom etishi mumkin.

Logopedik ta'sir bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, har bir bosqichda umumiy maqsadga yo'naltirilgan muayyan pedagogik vazifa hal qilinadi.

Logopedik ta'sirning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tayyorlov bosqichi;
- birlamchi talaffuz ko'nikma va malakalarini shakllantirish bosqichi;
- kommunikativ ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish bosqichi.

Tayyorlov bosqichining asosiy maqsadi bolani maqsadli yo'naltirilgan logopedik jarayonga tayyorlashdan iborat. Buning uchun bir qancha umumpedagogik va maxsus logopedik vazifalarni hal etish lozim.

Asosiy umumpedagogik vazifalardan biri bu bolaning logopedik mashg'ulotlarga bo'lgan ijobji munosabatini shakllantirish: logoped bola bilan ishonchli munosabatlar o'matishi, uni o'ziga jalb qilishi, uni

logopedik xonaga moslashtirishi, uning mashg'ulotlarga qiziqishini va logoped bilan shug'ullanish istagini uyg'otishi kerak. Bolalarda ko'pincha uyatchanlik, tortinchoqlik, o'zidan katta yoshdag'i begona shaxslar bilan uchrashishdan qo'rqish kabi holatlar namoyon bo'ladi. Shu o'rinda logoped bolaga nisbatan xushmuomala, xayrioxohlik kayfiyatida bo'lishi, mashg'ulotlarda rasmiylikdan va qattiqqo'llikdan ochishi kerak.

Logopedik mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatni hamda ixtiyoriy faoliyatni shakllantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Bola mashg'ulotda o'zini tutish qoidalarini o'rganishi, logopedning ko'rsatmalariga riyoq qilishi va muloqotda faol ishtirot etishi kerak.

Tayyorgarlik bosqichining vazifalariga ixtiyoriy diqqatni, xotirani, aqliy operatsiyalarni, ayniqsa, analitik operatsiyalarni, taqqoslash va xulosa chiqarish operatsiyalarini rivojlantirish kiradi.

Maxsus logopedik vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tovushlarni tanib olish va farqlash qobiliyatları hamda artikulatsion ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dislaliya shakliga qarab, bu vazifalar parallel yoki ketma-ket hal qilinishi mumkin. Artikulyar fonematik hamda artikulyar fonetik dislaliyada agarda chuqur idrok buzilishlari bo'lmasa bu vazifalar parallel olib boriladi. Retseptiv qobiliyatlarini shakllantirish orqali tovushlar tahlili hamda o'z talaffuzi ustidan nazorat qilishni rivojlantirish mumkin. Funksional dislaliyaning akustiko – fonematik shaklida logopedik ishning asosiy vazifasi saqlangan funksiyalar asosida tovushlarni tanib olish va farqlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu vazifani hal qilmasdan, tovushlarning to'g'ri talaffuzini shakllantirishga erishib bo'lmaydi. Tovushni to'g'ri talaffuzi ustidagi ish muvaffaqiyatlari kechishi uchun bola tovushni to'g'ri talaffuzini eshitish kerak, chunki eshitish tovushlardan to'g'ri foydalanishni tartibga soluvchi vositadir.

Dislaliyaning aralash va kombinatsiyalangan shakllari ustida ishlanganda retseptiv qibiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar artikulyar bazani shakllantirishdan oldin amalga oshiriladi. Ammo fonematik idrokning qo'pol buzilishlarida retseptiv qibiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar artikulatsion ko'nikma va qibiliyatlarini shakllantirish jarayonida ham parallel ravishda amalga oshiriladi. Nutqiy tovushlar idrokini shakllantirishga qaratilgan ishlari mayjud nuqson xususiyatini inobatga olgan holda olib boriladi. Bunda ba'zi hollarda ishning asosiy mazmuni fonematik idrokni shakllantirish va eshitish nazoratini rivojlantirishni talab etsa, yana ba'zi hollarda fonematik idrok va tovush tahlili operatsiyalarini rivojlantirish tashkil etadi. Uchinchi holatda esa, eshitish nazoratini ongli harakat sifatida shakllantirish bilan cheklanishimiz mumkin.

Bunda quyidagi qoidalarni hisobga olish kerak:

Nutqiy tovushlarini ongli ravishda tanib olish va farqlash qobiliyat. Bu bolaning o'z nutqiga bo'lgan munosabatini qayta qurishni, uning e'tiborini tovushning ilgari u bilmagan, me'yoriy talaffuzni hosil qiluvchi tomonlariga yo'naltirishni talab qiladi. Bola bu malakalarni



o'zi mustaqil o'zlashtira olmasligi mumkin, shuning uchun tovush tahlili ustida maxsus ishslash kerak bo'ladi.

Nutqning boshlang'ich birliklari so'zlar bo'lishi kerak, chunki nutqiy tovushlar faqat so'z tarkibida mavjud bo'lib, ular tahlil paytida maxsus operatsiya bilan ajratiladi. Shundan keyingina ular mustaqil birliklar sifatida ishlashi va bo'g'in zanjirlarining bir qismi sifatida va alohida talaffuzda kuzatilishi mumkin.

Tovushlar analizi va sintezi ustida ishslash bolada fonemalarni ongli ravishda tanib olish va farqlash ko'nikmalarini shakkantiradi, bunda ish bola to'g'ri talaffuz qilayotgan tovushlar qatnashgan nutqiy materiallarni bilan ishslashdan boshlanadi. Bola so'zdagi u yoki bu tovushni tanib olishni, uni so'zda tovushlar orasidagi o'mini aniqlashni, birini boshqasidan ajratishni o'rgangandan so'ng, biz ishslash jarayonida shakkangan ko'nikmalarga tayanib, to'g'ri talaffuz qilinayotgan tovushlar asosidagi topshiriqlarimizni murakkablashtirishimiz mumkin. Bolaning noto'g'ri talaffuzi uni chalg'itmasligi uchun noto'g'ri talaffuz qilinayotgan tovushlar idroki ustida ishslashimiz kerak. Buning uchun tovushlar tahlili vaqtida bolaning og'zaki nutqini cheklashimiz va butun diqqatini berilayotgan materialni eshitish idrokiga qaratishimiz lozim bo'ladi.

O'z talaffuzini me'yoriy talaffuz bilan solishtirish zarurati tug'ilganda keyingi mashg'ulotlarda ishslash mumkin.

Fonematik dislaliyada noto'g'ri shakkangan artikulatsion holatni (harakatni) tuzatish hamda yetishmayotgan artikulyatsiya harakatlarini shakkantirish kerak. Agar tovush talaffuz qilish usuli yoki talaffuz qilish joyidagi buzilish natijasida noto'g'ri talaffuz qilinsa, ikkala usulni ya'ni ham noto'g'ri shakkangan artikulatsion holatni (harakatni) tuzatish ham yetishmayotgan artikulyatsiya harakatlarini shakkantirishni qo'llash zarur.

Funksional dislaliyada tovushlarning artikulyatsion bazasini shakkantirish mexanik dislaliyaga qaraganda qisqaroq vaqt ichida amalga oshiriladi. Mexanik dislaliyada artikulyar tuzilmani shakkantirishdan oldin artikulyatsiya organlarining me'yoriy tovush talaffuzi holatidagi akustik effektni aniqlashga yordam beradigan ishlarni bajarish kerak.

Kerakli artikulemlarini shakkantirish jarayoni ixtiyoriy va ongli ravishda amalga oshiriladi: bola kerakli artikulema holatini hosil qilishni va to'g'ri bajarilishini nazorat qilishni o'rganadi. Kerakli harakatlar birinchi navbatda ko'ruv taqlidi orqali shakkangan: oyna oldida logoped bolaga tovushning to'g'ri artikulyatsiyasini ko'rsatadi, harakatlar ketma-ketligini va qanday bajarish kerakligini tushuntiradi, uni takrorlashga taklif qiladi. Ko'ruv nazorati ostida bir nechta urinishlar natijasida

bola kerakli holatga erishadi. Agarda bola kerakli artikulatsion holatni egallashda qiyalsa, logoped shpatel yoki zond bilan yordam berishi mumkin. Kerakli artikulatsion holat mustahkamlangandan so'ng, siz bolaga ko'ruv nazoratisiz og'zaki ko'rsatmalar asosida harakat qilishni taklif qilishingiz mumkin. Keyinchalik bola kinestetik sezgilar orqali artikulema bajarilishining to'g'riligini tekshirib boradi. Artikulyatsiya, agar u aniq bajarilsa va ko'ruv nazoratini talab qilmasa, o'zlashtirilgan hisoblanadi.

Logoped bolaning topshiriqni bajarishi jarayonida kerakli tovushni talaffuz qilish uchun to'g'ri artikulatsion pozitsiyani tanlaganligini tekshiradi. Buning uchun u boladan artikulatsion holatni o'zgartirmasdan nafas olishni so'raydi. Kuchli nafas chiqarish bilan kuchli shovqin paydo bo'ladi. Agar shovqin kerakli ovozsiz undoshning akustik effektiga mos kelsa, unda poza to'g'ri olingan bo'ladi. Agar kerakli holat hosil bo'lmasa, logoped boladan artikulatsiya a'zolari holatini biroz o'zgartirish (tilni biroz ko'tarish, tushurish, oldinga chiqarish yoki ichkariga tortish)ni so'raydi va kuchli nafas chiqarish qaytariladi. Kerakli pozitsiyani izlash ijobiy natija olinmaguncha amalga oshiriladi.

Aksariyat hollarda, bola shovqinni tinglab, me'yoriy tovush talaffuzi holatini topadi va hatto uni mustaqil ravishda nutqda qo'llashga harakat qiladi.

Dislaliyada artikulyatsion apparat organlarida qo'pol buzilishlar bo'limganligi sababli artikulatsion mashqlarning kompleks qo'llanilishiga ehtiyoj qolmaydi, faqatgina rivojlanish jarayonida bolada shakkantirish alohida nutqiy harakatlar ustida ish olib boriladi, buning natijasida kerakli artikulemlar tez hosil bo'ladi.

Shunday qilib, artikulatsion bazani shakkantirish, fonematik idrokni rivojlanishiga turli tovush artikulemlarini hosil qilish orqali bolani tovushlarni me'yoriy talaffuziga tayyorlab olamiz. Bu bosqichning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi bola nutqiga tovush qo'yish, mustahkamlash va farqlash jarayonlarining tezlashishiga hamda unda mustaqil muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga olib keladi.

#### Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. – T.: 2007.
2. Volkova L.S. Logopedia – M.: Vlados. 1998.
3. Mo'minova L., Ayupova M.Yu. Logopediya – T.: O'qituvchi 1993.
4. Filicheva T.B., Cheveleva N.A. Логопедическая работа в специальном детском саду, 1987.

## "BARKAMOL AVLOD" MAKTABLARIDA BOLALARNI IJODIY RIVOJLANTIRISH KO'NIKMALARI

**D.T.Po'latova, Al-Buxoriy universiteti dotsenti**

В данной статье представлена информация о творческой деятельности по семи направлениям кружков, организованных в центрах «Баркамол авлод» и навыках творческого развития детей, а также представлен зарубежный опыт и психологические особенности творческого развития ребенка.

**Ключевые слова и понятия:** внешкольное образование, творческие способности, творческое развитие, кружки, гармоничное развитие, ремесло.

This article provides information about the creative activity in seven areas of circles organized in the Barkamol Avlod centers and the skills of the creative development of children, as well as foreign experience and psychological characteristics of the creative development of the child.

**Key words and concepts:** out-of-school education, creative abilities, creative development, circles, harmonious development, craft.

Xalq ta'limi tizimidagi "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, undagi yetti yo'nalishda olib berilayotgan to'garaklar faoliyati bolalarning ijodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanini ko'ramiz. Ushbu tizimning huquqiy va

tashkiliy asoslarini takomillashtirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus, "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari



to‘g‘risida” 2019 yil 30 sentyabrdagi PQ-4467-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021 yil 27 may kuni “Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 331-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra “Barkamol avlod” respublika bolalar maktabining tuzilmasi, Qoraqlopg‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) “Barkamol avlod” bolalar maktablarining namunaviy tuzilmalari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘g‘risidagi nizom, Respublika “Bolalar kutubxonasi”ning tuzilmasi, Qoraqlopg‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar “bolalar kutubxonalar”ning namunaviy tuzilmasi, “Bolalar kutubxonalar” to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Xalqimizda “Ta‘lim va tarbiya beshikdan boshlanadi”, degan hikmatli ibora bor. Faqat ma‘rifat insonni kamolotga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta‘lim sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta‘lim tizimi principiga asoslangan, bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejiz emas [1].

Maktabdan tashqari ta‘lim tizimida yetti yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan to‘garaklar bola rivojlanishining katta ehtiyojlarni to‘ldiradi. Bola shaxs sifatida namoyon bo‘lar ekan, u o‘zining qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi bilan boshqalardan farq qiladi. Bolaning shaxs sifatida rivojlanishi hamda kamolga yetishi rivojlanishning umumiyy qonuniyatlarini, rivojlanish jarayoniga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash bilan belgilanadi. Demak, bola shaxsining rivojlanishida faoliyatning o‘rni va ahamiyatni beqiyos.

Rivojlanish nima?

Rivojlanish – shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarning takomillashuvini namoyon etadigan jarayon bo‘lib, bunday xislatlarni tug‘ma, ba’zilari keyinchalik erishilgan bo‘ladi [2].

Bolaning barkamol inson bo‘lib shakllanishida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti-harakat, qiyinchilik va muammolarni yengib o‘tishga bo‘lgan kuch va motivatsiya muhim ahamiyatiga ega. “Barkamol avlod” bolalar maktablarida tashkil etilgan yetti yo‘nalishdagi to‘garaklar bolalarning ana shu qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu to‘garaklar bolalarning yosh xususiyatlariga mos tarzda belgilanib berilgan. “Barkamol avlod” bolalar maktabiga jaib qilinadigan bolalar yoshi 6 yoshdan 18 yoshgachani qamrab oladi. 7 ta yo‘nalishdagi to‘garaklar mana shu davrdagi bolalarning asosiy hayotini o‘z ichiga qamrab oladi. Madaniyat va san‘at yo‘nalishdagi to‘garaklarga asosan 6-18 yoshgacha bolalarning hammasi jaib etiladi. Rejissyorlik, jurnalistik va notiqlik to‘garagiga 6-10 yoshli bolalar jaib etilmaydi. 10-14 yoshgacha davrdagi bolalar bu yo‘nalishning har qanday to‘garak a‘zosi bo‘lishi mumkin. 14-18 yoshgacha bolalar uchun esa tasviriy san‘at to‘garagiga zaruriyat bo‘lganda ota-onalar, o‘quvchilar talabidan hamda zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar mavjud bo‘lganda Xalq ta‘limi vazirligi bilan kelishgan holda tashkil etishga ruxsat beriladi.

Texnika, konstrukturlik va modellashtirish yo‘nalishdagi to‘garaklarning hammasiga ham 6-10 yoshli bolalar jaib etilmaydi. Chunonchi, “Aviamodel”, “Radiotexnika, elektronika va aloqa”, “Yosh dasturchi (Scratch, Python)”, “Yosh dasturchi (Java, Unity 3D modellash)”, “Kompyuter muhandisi”, “Kompyuter dizayn va grafikasi”, “Kompyuter laboratoriysi”, “Ma’lumotlar bazasi ma’muri”, “Foto va kompyuter dizayneri”, “Yosh fotohavaskor”, “Yosh video-havaskor” kabi to‘garaklar. 10-14 yoshli bolalar barcha to‘garaklarga jaib etiladi. “Kompyuter muhandisi”, “Ma’lumotlar bazasi ma’muri” to‘garaklari zarur hollardagina tashkil etilishi mumkin. 14-18 yoshlardagi bolalar uchun “Yosh fotohavaskor”, “Yosh arxitektor” to‘garaklari zarur hollarda tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishdagi to‘garaklarga barcha yoshdagi bolalar jaib etiladi.

Hunarmandchilik va qo‘l mehnati to‘garaklarini tahlil etadigan

bo‘lsak, bu yo‘nalishdagi barcha to‘garaklar bolalar uchun tashkil etiladi? ammo ba’zi to‘garaklar bola yoshiga mos kelmasligi mumkin. Shulardan, “Yosh duradgor” to‘garagi 6-10 yoshli bolalar uchun zarur holatda tashkil etilishi mumkin. 10-14 yoshli bolalar uchun “Mayda plastika” to‘garagi zarur holda tashkil etiladi. “Kulolchilik” to‘garagi 14-18 yoshli bolalar uchun zarur holda tashkil etiladi, bu yoshda bolalar “Mayda plastika”, “Kviling” to‘garagiga jaib etilmaydi.

6-10 yoshli bolalar Turizm va ekologiya to‘garagi yo‘nalishidagi to‘garaklarning “Yosh o‘lkashunos va sayyoh, yosh ekskursovod”, “Floristika va fauna”, “Karving”, “Landshaft dizayn”, “Atrof-muhit muhandisi (Injener-ekolog)” turiga jaib etilmaydi. Bu yo‘nalishdagi barcha to‘garaklar 10-14 yoshli bolalar uchun mumkin bo‘ladi.

Xorijiy tillar to‘garagiga barcha yoshdagi bolalar jaib etiladi.

To‘garaklar maktabdan tashqari ta‘lim tizimining asosiy mazmunini tashkil etadi. Shunday ekan to‘garaklarning sifatlari, zamon talablarini asosida tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilar jamoasi bilan olib boriladiki, uning mazmunli bo‘lishi va o‘quvchilarning faolligi to‘garak rahbarining oldiga qo‘yan eng oliy maqsadi bo‘lishi lozim. Har bir to‘garak namunali tashkil etilib, o‘quvchida motivatsiya hosil qilinishiga erishilishi muhim. To‘garakning namunali tarzda rejalashtirilishi to‘garak rahbarining vazifasidir.

Bola ruhiyatidagi jarayonlar, ya’ni diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari, so‘z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasiga taalluqlidir. Shaxs rivojlanishida irlashtirilish ham muhim o‘rni borki, albatta bolaning kamol topishida uning poydevor ekanini unutmasligimiz kerak.

Irsiyat – bu ota qoni yoki ajdodlarga xos bo‘lgan biologik xususiyat va o‘xshashliklarning nasl (bola)ga o‘tish jarayoni [2].

Boladagi iste’dod alomatlari, tafakkur va nutqi ravonligi ham nasldan naslga o‘tishi tabiiy holat. Iste’dodli bola nasldan o‘gan iste’dodini oilada rivojlanishiga va bu uchun zarur muhitning yaratilgani bolaning ijodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra bola iste’dodining ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo‘lgan layoqat bilan tug‘iladi. Ana shu layoqat u tarbiya topayotgan oilada anglanadi va e’tibor beriladi. Agar bola tarbiya topayotgan muhit uning layoqatini uyg‘otishga turki bo‘la olsa u rivojlanib o‘z yutug‘ini, natijasini ko‘rsatadi. Agarda muhit aksincha, bola layoqatini yuzaga chiqarish uchun yetaricha bo‘lmasa bunday layoqat o‘zining mag‘lubiyatini ko‘rsatishi ham mumkin bo‘ladi.

Muhit nima?

Muhit – bu shaxsning shakllanishiga ta‘sir etuvchi tashqi voqyea hodisalar majmui. “Muhit” tushunchasi o‘zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi. Mikromuhit o‘zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo‘lib, oila, maktab, do‘stlar, tengurlar, kishilar va shu kabilarni o‘z ichiga oladi [2].

Har doimgidek oila muhiti bola shaxsining rivojlanishida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ota-onha bolaning iste’dodini aniqlab “Barkamol avlod” bolalar maktabiga yetaklab keluvchi shaxslar. Lekin bu maktablarning faoliyati va targ‘iboti pedagoglar zimmasidagi mas‘uliyatlari vazifa. Bola iste’dodini rivojlanishiga yo‘naltirilgan ushbu maskan keyingi yillarda xalq ta‘limi tizimida o‘ziga xos munosib o‘ringa ega bo‘lib bormoqdaki, bu maktablar faoliyati nafaqat umumta‘lim maktablarini hamkorligi faoliyati bilan kifoyalanadi, balki mahalla, oila, qo‘shimcha xususiy sektorlar va olyi ta‘lim muassasalari mazmuni bilan ham chambarchas bog‘lanib bormoqda.

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kunlik harakat zarurligini uning ijtimoiy munosabatlarda faol qatnasha olishida ko‘rishimiz mumkin. Atrof muhitda uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yuksaladi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyuştirilgan har qanday faoliyati – o‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.



Barkamol avlod bolalar mакtablarida bolaning ijodiy rivojlanish ko'nikmalari muntazam ravishda shakllanib boradi. Bolaning ahloqiy va ruhiy kamoloti rivojlanib borar ekan bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Bola har yoshda har xil psixik xususiyatga ega bo'ladi, bunda yosh xususiyatlarni hisobga olib individual yondashish lozim. Bola xususiyatga moslashish emas, balki shu yosh davrida bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etmoq kerak.

Bola ta'lim-tarbiyasida buyuk mutafakkirlarning qator yozib qoldirgan fikrлari ma'naviyatimizni uzlusksiz boyitib boradi. Jumladan Fitratning "Rahbari najot" asari ta'lim-tarbiya masalalariga qaratilgan manba sifatida o'rganilgan. Asarda oila, bola tarbiysi, axloq-odob mavzulari keng o'rин olgan. U aytadiki, "Agar har bir ota o'z farzandining badbaxt bo'lishi xohlamasa, uni bu maydonning g'olib qilib tarbiyalashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamolikka yetkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling. "Bolalarni barkamol qilib" yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama barkamol inson bo'lib tarbiyalansa, qavmnning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi [4].

Fitrat iqtidorni inson uchun zarur ekanligini, u mana shu bilimi va aqli bilan dunyodagi barcha mahluqtardan ham ustun turishini, shuning uchun u doim bilim olishga intilishi kerakligini aytib o'tadi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmasligini, u boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'magiga ehtiyojmand ekanligini ta'kidlaydi. Odam narsa-hodisalarini o'zicha bila olmaydi? unga albatta ustoz kerakligini aytib o'tadi.

Ta'lim – insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – muayyan hunarni egallash uchun zarur bo'lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lism, o'rganishdir [4].

Forobiy musiqashunos ham bo'lib, u o'zining "Muciqa haqida katta kitob" asari orqali musiqa ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, inson axloqini tarbiyalovchi, salomatligini, asablarini mustahkamlovchi vosita deb qaragan.

Beruniy fikricha, axloqiylik yaxshilik va yomonlik o'rtasida namoyon bo'ladi, mana shu ikki sifat insonning xulq atvorusi belgilab beruvchi mezondir, deydi. Inson kamolotida uch narsa – irsiyat, muhit, tarbiya muhimligini ta'kidlaydi. Beruniy nazarida ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rinni tutadi.

Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va o'zining dunyoga mashhur yirik asarlari bilan iz qoldirgan. U o'zining asarlarida

kamolotga erishishning birinchi mezonи sifatida ma'rifatni egallashni nazarda tutadi. U ilm-fanni insonga xizmat qilishi, shuningdek, tabiat qonunlarini avlodlarga yetkazishi kerakligini isbotlaydi. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi u: "Ey, birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi", deydi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'limgan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. Bolani mакtabda o'qitish va tarbiyalashda yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olish zarurligini tushuntiradi. U bolani tarbiyalashda va bilim berishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning o'zlashtirilayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- mashg'ulotlarga qiziqitira olish;
- bilimlarni bolalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezonи sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim [4].

Albatta, barkamol avlod tarbiyasi g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmoqda va ular bir qancha yo'llar, vositalar bilan turliche shakllarda, uslublarda amalga oshiriladi. Yangi O'zbekistonning barkamol avlod bolalari keljak ustunini shunday mustahkam va viyorliq qurishlari barobarida ko'rkm tarbiya va iqtidor sohiblari bo'lishdek sifatga ega bo'ladir.

#### Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021.
2. J.Xasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov. Pedagogika "Noshir" – T.: 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 maydag'i "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 331-sonli qarori.
4. A.Zununnov. Pedagogika tarixi. "Sharq" nashriyoti. – T.: 2004.

## INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDAGI UMUMTA'LIM MAKTABDA LOGOPED FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

**S.K.Shoaxmedova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti "Logopediya" kafedradi o'qituvchisi**

В данной статье освещены вопросы организации деятельности логопеда в общеобразовательной школе, организованной в условиях инклюзивного образования, а также обосновывается значение диалоговых и компьютерных технологий, а также модульной системы в планировании коррекционной работы.

**Ключевые слова и понятия:** дети с особыми потребностями, логопед, инклюзивное образование, образовательные технологии, нарушения речи.

This article highlights the issues of organizing the activities of a speech therapist in a general education school organized in an inclusive education environment, and also substantiates the importance of interactive and computer technologies, as well as a modular system in planning correctional work.

**Keywords and concepts:** children with special needs, speech therapist, inclusive education, educational technologies, speech disorders.



Alovida yordamga muhtoj bolalar va ularning normal rivojlanayotgan tengdoshlari uchun inklyuziv ta'lim amaliyotini joriy etish ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu sog'lig'i yomon, irlsiy kasalliklar va boshqa sog'lig'i cheklangan bolalar tug'ilishining ko'payishi, shuningdek, ota-onalarning ish bilan bandligi va yashash joyi yaqinida maxsus bolalar bog'chasining yo'qligi bilan bog'liq. Ko'pincha ota-onalar o'z farzandlarining muammosini muhim deb bilishni va qabul qilishni, mutaxassislardan ishlashni xohlasmaydilar. Amaldagi qonunchilik oddiy ta'lim maskanlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishga imkon beradi.

Inklyuziv ta'lim – nafaqat rivojlanish muammolarini, balki ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan barcha bolalarning ehtiyojlarini va qobiliyatlarini, shuningdek, jismoniy rivojlanishini hisobga oladigan zamonaviy ta'lim tizimi. Inklyuziv ta'limning ma'nosini shundaki, bola tizimga emas, ta'lim tizimi bolaga moslashadi. Bilim barcha bolalar tomonidan, qoida tariqasida, normal va "maxsus"ga bo'linmagan holda olinadi. Ushbu ta'limda ko'pincha o'qitishning zamonaviy yondashuvlari qo'llaniladi, moslashtirilgan umumiy ta'lim dasturlari, shakllari, o'qitish va tarbiyalash usullari, imkoniyati cheklangan bolalarning ko'nikmalarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlariga moslashtiriladi. Alovida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar to'liq kun yoki kunning bir qismida guruhda bo'lishlari va individual dastur bo'yicha o'qishlari mumkin.

Shunday qilib, alovida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda maxsus shart-sharoitlarni yaratish logopedik yordamini o'z ichiga oladi, uning maqsadi, boshqa chora-tadbirlar qatorida, bolalar nutqidagi nuqsonlarni aniqlash, o'quvchining muloqotini yaxshilash va tuzatish, og'zaki va yozma nutqni shakllantirishdir. Inklyuziv ta'lim tizimida logoped ta'lim muassasalaridagi inklyuziv ta'lim guruhi asosiy mutaxassislardan biri hisoblanadi. Qo'shimcha ta'lim xizmati sifatida tashkl etilgan logopedik yordam zamonaviy ta'lim muassasasi faoliyatiga qo'shilishning o'ziga xos namunasidir.

Inklyuziv ta'lim sharoitida logopedning faoliyati bir qator xususiyatlarga ega

1. Eng avvalo, korreksion ishlarini boshlashdan oldin, logoped, oddiy o'quvchilar misolida bo'lgani kabi, har tomonlama maxsus ko'rikdan o'tkazish orqali, maxsus usullardan foydalangan holda bolada nutq faoliyatining buzilishi xususiyatini aniqlaydi.

2. Logoped diagnostikasi asosida boshqa mutaxassislardan birgalikda bolaning xususiyatlarni hisobga olgan holda, individual rivojlanish rejasi shakllantiriladi, ta'lim yo'nalishi aniqlanadi, alovida ta'limga muhtoj bolalarning ta'lim olishdagi orqada qolish sabablarni bartaraf etish yoki oldini olish bo'yicha strategiya va chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

3. Logopunktida logoped ishining o'ziga xos xususiyatlari turli toifadagi alovida ta'limga muhtoj bolalarga yordam berishni o'z ichiga oladi va bolaning shaxsiyatini, uning salbiy va ijobjiy tomonlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, ya'ni sog'lom analizatorlardan kompensatsiya jarayonida foydalaniлади.

4. Logopedik ishning diqqat markazi doimo nutqning eng ko'p jarohatlangan komponenti bo'lib qoladi. Masalan, alaliyada - lug'at, eshitish nuqsonida – fonematisk idrok, dizartriyada – tovushlar talaffuzi va boshqalar.

5. Nutqni rivojlanirish bosqichlariga qarab, logoped o'zining maqsadli uslubiy usullarini o'zgartirishi kerak. Bunday holatda modulli rejalahshtirishdan foydalananish mumkin. Masalan, III darajali NTR 6-7 yoshli bolalar uchun korreksion va rivojlaniruvchi ta'limni rejalahshtirish uchta moduldan iborat:

1. Nutqning fonetik tomonini shakllantirish.

2. Leksik va grammatisk tasavvurlarni takomillashtirish.

3. Tovush - bo'g'inlarni tahsil qilish va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlanirish, savodxonlikka o'rgatish.

Ushbu yondashuvning qulayligi shundaki, agar bola biron bir vazifani osonlikcha uddalasa, unda ushbu mavzuni o'rganish uchun soatlar sonini qisqartirish va murakkabroq vazifani bajarish uchun vaqtini ko'paytirish mumkin. Bolalar nutqini rivojlanirishdagi

kamchiliklarga ko'proq e'tibor qaratilayotganligi sababli, korreksion-logopedik mashg'ulotlar davomiyligi kamayadi.

Alovida yordamga muhtoj maktab o'quvchilarining aksariyatida idrok, diqqat, xotira, tafakkur, motor va sensor funksiyalarning rivojlanishida muammolar mayjud. O'quvchilarni qiziqitirish uchun nostandard yondashuvlar, individual dasturlar, innovatsion kompyuter texnologiyalari kerak. Maktab logopedi o'z faoliyatida quyidagi texnologiyalardan foydalaniшi mumkin.

Dialogli ta'lim - bu ta'lim jarayonida bolalar o'z fikrlarini ifoda etishni, savollarga to'g'ri tuzilgan jumlalar bilan javob berishni, shuningdek, mustaqil ravishda aniqlovchi savollarni berishni o'rganishiga yordam beradi.

Informatsion-kompyuterli ta'lim - kompyuter dasturlaridan foydalinish nutq terapiyasi mashg'ulotlariga qiziqishni oshirish, bolaning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, uni yangi bilimlarni olishga qiziqitirish va uning atrofidagi jamiyatda o'z o'mini topishga yordam beradi. Logopunktga borayotgan bolalarda savodxonlikni normal rivojlanayotgan tengdoshlariga qaraganda ancha qiyin o'zlashtirishi sababli, logoped bunday bolalarda yozma nutqni takomillashtirish istagini uyg'otishi va saqlab turishi kerak. Masalan, har xil turdag'i kompyuter o'quv o'yinlaridan foydalinish bolaning nutqdagi qiyinchiliklariha hissiy munosabatini o'zgartirishga imkon beradi va matn muharrirlaridan foydalinish zerikarli takroriy ko'chirish muammosini, yo'l qo'yilgan xatolarni tez va izsiz bartaraf etish mumkin bo'ladi. Klaviatura bilan ishslashda bolalarda fazoviy mo'ljal olish qobiliyatini rivojlanadi va samarali ishslash uchun o'quvchi o'qituvchining ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglashi va bajarishi kerak, bu esa eshitish idrokini va xotirani rivojlaniradi. Natijada vazifani bajarish jarayonida o'quvchilarda diqqatni jamlash va taqsimlash funksiyalari takomillashtiradi. Multimedia taqdimotlari mashg'ulotga vizual effekt beradi, motivatsion faollikni oshiradi, logoped va bola o'rtaqidagi to'siqlarni bartaraf etadi. Animatsiyalardan foydalinish korreksion jarayonini qiziqarli va ifodalı qiladi.

Alovida yordamga muhtoj o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni samarali va vaqtini tejagan holda bartaraf etish uchun quyidagi usullardan foydalinish maqsadga muvofiq:

1. Vazifalarni bajarishda signal kartalaridan foydalananish (bular pliyus yoki minus belgilari tasvirlangan kartalar bo'lishi mumkin; harflar tasvirlangan kartalar; turli rangdagi doirali kartalar). O'quvchilarning turli topshiriqlarni bajarish jarayonida istalgan mavzuni o'rganishda yoki ularning bajarilishining to'g'riligini baholashda kartalardan foydalananish mumkin. Ularning qulayligi va samaradorligi shundan iboratki, har bir bolaning faoliyat natijasi darhol ko'rindi.

2. Topshiriqni bajarishda, krossword yechishda va hokazolarda doskadagi qo'shimchalardan (harf, so'z) foydalananish. Bolalar ushbu turdag'i topshiriqni bajarish jarayonida (kartalarini doskaga yopishtirish uchun ular savolga to'g'ri javob berishlari yoki taklif qilingan vazifani boshqalarga qaraganda yaxshiroq bajarishlari kerak) raqobat ularda korreksion-rivojlaniruvchi jarayonga qiziqishni oshiradi.

3. Xotira tugunchalari (mavzuni o'rganishning asosiy g'oyalarni, eslab qolish kerak bo'lgan xulosalarni yig'ish, yozib olish va doskaga osib qo'yish). Ushbu texnikadan mavzuni o'rganish oxirida mustahkamlash, umumlashtirish; materialni o'rganish jarayonida vazifalarni bajarishda yordam berish uchun foydalananish mumkin.

4. Darsning ma'lum bir bosqichida materialni yumilgan ko'zlar bilan idrok etish. Dars davomida bolalarning hissiy holatini o'zgartirish uchun, bolalarni tinchlantirish va faollikni talab qiluvchi mashg'ulotlardan so'ng (jismoniy tarbiya darsidan keyin), qiyin vazifani bajargandan so'ng foydalaniлади.

5. Logopedik mashg'ulotlarda kineziologik mashqlardan foydalananish. Kineziologik usullari bolaning xotirasini, diqqatini, nutqini, fazoviy tasavvurlarini, qo'l va umumiy motor ko'nikmalarini yaxshilash, charchoqni bartaraf etish, ixtiyorli nazorat qilish qobiliyatini oshirishi mumkin. Bu turdag'i mashqlar stressga chidamliligini oshiradi, miya yarim sharlari ishini sinxronlashtiradi, aqliy faoliyatni, xotirani va diqqatni yaxshilaydi, o'qish va yozish



jarayonini osonlashtiradi. Mashqlar to'plamiga quyidagilar kiradi: nafas olish mashqlari, ko'z mashqlar, tana mashqlari, qo'l motorikasini rivojlantirish uchun mashqlar, relaksasiya mashqlari va massaj.

6. Refleksiyaning faol usullari. Logopedik mashg'ulotlarda, alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan ishlashda, kayfiyat va hissiy holatni aks ettirish ko'pincha qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida eng muvaffaqiyatlisi – bu mashg'ulot, topshiriq turlarini yoki bosqichlarini rasmlar (belgilar, turli xil kartalar va boshqalar) bilan belgilash, ular mashg'ulot oxirida bolalarga o'tilgan materialni xotirasida yanglash va mustahkamlashga yordam beradi.

Shunday qilib, faol o'qitish usulublari va usullaridan foydalanish inklyuziv maktab o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalg qiladi, mustaqil faoliyatini rag'baltantiradi. Mayjud o'qitish usullarining xilma-xilligi logopedga turli xil ish turlarini almashtirish imkonini beradi, bu ham bilimlarni qabul qilish samarasini oshiruvchi vositadir.

Alovida ta'limga muhtoj bolalarning inklyuziv ta'limga muammolarini ularning ota-onalarini ishga jalg qilmasdan hal qilish mumkin emas. Logoped o'quvchilarning oilalari bilan ishlashda, maslahatlar o'tkazishdan tashqari, ota-onalarning inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabati bo'yicha so'rov o'tkazadi va shu asosda nogironlik haqida yetarli tushunchani shakllantirish, rivojlantirish ishlarini olib boradi.

Korreksion-logopedik ishga ota-onalarni jalg qilish shakllari individual maslahatlar, mahorat darslari va seminarlar bo'lishi mumkin. Ota-onalarni o'quv jarayoniga teng huquqli a'zo sifatida kiritish, uuda bola bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'yinlar va mashqlarni o'z ichiga olgan maxsus qo'llanmalarni, ma'lumot varaqlarini nashr etishni o'z ichiga oladi. Ota-onalar bolaning rivojlanish dinamikasini qayd etib, pedagogik vakolatlar doirasini kengaytirib, guruh va ba'zi hollarda individual mashg'ulotlarda qatnashishi mumkin.

Shuningdek, logoped o'z ishini alohida yordamga muhtoj

bolalar faoliyatining natijalari qiziqarli va yaqin atrofdagilar uchun ochiq bo'ladigan tarzda amalga oshirishi kerak. Bu ijodiy ishlar ko'rgazmalarini yaratish, qo'llanmalar ishlab chiqarishga yordam berish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Har 6 oy oxirida logoped tomonidan qo'yilgan maqsadlar o'quvchining yutuqlari natijalari bilan bog'liq bo'lgan "maxsus" bola haqida yozma hisobot tuzish maqsadga muvofiq. Hisobotda asosiyis har bir boladagi individual ijobiy xususiyatlarni aniqlash, uning ma'lum vaqt davomida erishgan muvaffaqiyatlarini qayd etish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishning mumkin bo'lgan yaqin istiqbollarini belgilashdir.

Shunday qilib, turli texnologiyalar va ish usullaridan foydalanish, alohida yordamga muhtoj bolalarning holati va sog'lig'iga mos keladigan tarbiya va ta'limga uchun shart-sharoitlar yaratish hal qiluvchi va samarali inklyuziyani muvaffaqiyatlari amalga oshirishning shartidir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, inklyuziv ta'limga logopedning faoliyati katta ahamiyatga ega, chunki u nafaqat alohida yordamga muhtoj bolalarda mayjud bo'lgan nutq buzilishlarini bartaraf etishga, balki ularning ta'limga maydoniga muvaffaqiyatli moslashishiga qaratilgan. Har bir shaxs uchun jamiyat qurishning hal qiluvchi va ta'sirchan mexanizmlaridan biri bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalarning holati va sog'lig'iga mos keladigan to'laqonli tarbiya va ta'limga olishlari uchun sharoit yaratish inklyuziv ta'limga muvaffaqiyatlari amalga oshirishning shartidir.

#### Adabiyotlar

1. Гюнваль Ч. От «Школы для многих» к «Школе для всех» // Дефектология. – 2006. – № 2.

3. Muminova L.R. Logopedik tekshirish va o'qitish. – T.: O'qituvchi, 1993. URL: <http://www.sifz.uz>

4. Muminova L.R. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limga konsepsiysi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar nutqini logopedik ko'rildan o'tkazish metodikasi. – T.: 2009.

## YOSHLAR TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING MAS'ULIYAT TUYG'USINI OSHIRISH YO'LLARI

O.K. Xudoyorova, Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti

В статье определяются основные направления повышения эффективности воспитания молодежи, исследуются его общие закономерности, формы и методы. Показаны пути повышения чувства ответственности семьи, школы и махалли. Даны научно-практические рекомендации для успешного решения этой проблемы.

**Ключевые слова и понятия:** знания, крепкая семья, школа, соседство, ответственность, творчество, здоровый образ жизни, стратегическая цель, творчество, конкурентоспособность, вера, мировоззрение, этикет, этика, патриотизм, технологический подход.

The article defines the main directions for increasing the efficiency of youth education, and examines its general patterns, forms and methods. Ways to increase the sense of responsibility of the family, school and mahalla are shown. Scientific and practical recommendations for the successful solution of this problem are given.

**Keywords and concepts:** knowledge, strong family, school, neighborhood, responsibility, creativity, healthy lifestyle, strategic goal, competitiveness, faith, worldview, etiquette, ethics, patriotism, technological approach.

Ma'lumki, yoshlar tarbiyasida oila, maktab va mahalla hamkorligida keng jamoatchilikning o'mni va ta'siri kuchlidir. Go'zal hayot kechirayotgan va sog'lom turmush tarziga ega bo'lgan mustahkam oilalar jamiyatimiz va uning yorqin kelajagi uchun xizmat qiladi. Oila muqaddas dargoh. Unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi avlod shakllanadi. Insonga xos chinakam farovon, baxtli hayot davom etadi. Bolalar tarbiyasida oila, maktab, mahallaning o'mni, ta'siri va mas'uliyati beqiyosdir. Ma'lumki, hayotda mas'uliyat tarbiyasi eng zalvorli masaladir. Ilm berish va uni egallash hamda hayotga mas'uliyat bilan yondashishda ota onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar va mahalla ahlining farzand tarbiyasiga to'g'ri

yondashuvi, hayotiy tajribalarga tayangan holda munosabatda bo'lishi, hayotdagi o'z vazifalarini chuqur tushunib yetishi talab etiladi. Bunda farzandlar mas'uliyatli, mustaqil fikr va e'tiqodli, ongli dunyoqarash, iroda va ma'naviyali inson bo'lib yetishadilar. Bu borada yoshlarning odobi, o'quv-tarbiyaviy ishlari mas'uliyat bilan qarashda quyidagi jihatlarga e'tibor beriladi:

- yoshlarning xulqi, fe'l- atvorigadagi o'zgarishlar, muomala munosabati, tengdoshlari va ularning o'zaro ta'sirini o'rganish;

- yoshlarning o'quv mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, topshiriqlarni bajarish va o'zlashtirishida faoliyatli yondashuv tamoyillari asosida innovatsion ta'limga texnologiyalardan keng



foydalanish orqali mustaqil ijodiy faolligini oshirish;

- yoshlarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish, ularning aql, zakovatini bунyodkorlik va yaratuvchanlik ishlariga yo'naltirish orqali yuksak natijalarga erishish;

-yoshlar tarbiyasida oila, mabkab, mahalla hamkorligi, ilg'or ish tajribalaridan keng foydalanish, o'zlashtirish, umumlashtirish, amaliyotga tatbiq etish orqali ulkan muvaffaqiyatlarga ega bo'lish zarur hisoblanadi.

Haqiqatan ham yoshlarni to'laqonli kamol topishi uchun ularga ko'p tarkibli ta'lif-tarbiya berish muhimdir. Bugungi kunda jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi.

Ma'lumki, har qanday farzand uchun ota-onaning mehribonligi, o'qituvchilarining ta'lif va tarbiysi hamda mahalla ahlining ijobjiy ta'siri, e'tibori zarur. Bu borada yoshlarning yetuk inson sifatida shakllanishi uchun quyidagi savol- javob usulidan foydalanish mumkin:

Savol: Har bir ota-onaning ezgu orzusi nima?

Javob: Komil farzandni voyaga yetkazish.

Savol: Komil insonni tarbiyalashga qanday erishiladi?

Javob: Asosan to'rt narsa - halol va mehribon ota-ona, qattiqqa'i va talabchan ustoz, samimiy va sodiq do'st, ma'rifikat va ilm orqali erishiladi. Savol: Eng baxtli ota - ona kim?

Javob: Turmushda, komil inson tarbiyasida nafaqat o'z farzandiga, balki o'zgalarga ham iibrat bo'la olganlar.

Savol: Komil ustoz kim?

Javob: O'zida zohiriy va botiniy go'zallikni mujassam etgan zot.

Savol: Nimadan yumshoq va nimadan qattiqroq narsa yo'q bu dunyoda?

Javob: Ona mehridan va ota qahridan.

Savol: Tarbiyachi kim?

Javob: Avvalo, bolalarni sevuvchi, ma'rifikati va fidoiy inson.

Savol: Aksariyat ota ona yo'l qo'yadigan xato nima?

Javob: Farzandidan uning imkoniyatidan ortiqcha bo'lgan narsani talab qilish yoki aytarli hyech narsani talab qilmaslik.

Savol: Inson uchun eng yaxshi narsa nima?

Javob: Go'zal axloq, tarbiya, go'zal xislat bilan nom chiqarish.

Savol: Inson uchun eng yomon narsa nima?

Javob: Axloqsizlik, tarbiyatsizlik, yalqovlikdir.

Savol: Qanday odamni aqli odam deb atash mumkin?

Javob: Bir ishga kirishmasdan avval uning oqibatini yaxshi o'ylab, so'ngra shu ishga kirishgan odam.

Savol: Yashashdan maqsad nima?

Javob: Avvalo, Alloh roziligiga erishish, Alloh bergen amallarni bajarish va Alloh rozi bo'ladigan tarzda yashash, qaytarganlaridan qaytish, so'ngra, el yurt bilan hamohang yashash, unga sadoqatli bo'lish, ona Vataniga munosib xizmat qilish orqali o'zini mamnum, baxtli his etish.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ta'lomi misoldida qaraganda: Insonning yashashdan asl maqsadi zavqli, lazzatli, huzur halovatlari, baxtli saodatlari umr kechirishdan iboratdir, degan g'oya uning falsafiy ta'lomitida ustuvorlik qiladi. Shu bois ul zot "Insonning mohiyati haqiqiy baxt saodatga erishuv ekani, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt va saodatga erishadi" deb uqtirgan edi .

Oila deb atalmish qo'rg'onda avlodlar kamol topadi. Bu qo'rg'onnинг mustahkam va barqaror bo'lishiga erishish mamlakat va dunyo miqyosida muhim ahamiyatga egadir. Sog'lon turmush tarziga ega bo'lgan mustahkam oilalar jamiyatimizning yorqin kelajagi uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, yurtimiz kundan-kunga go'zallahib bormoqda, ko'p qavatlari shinam, qulay, chiroyli uylar qurilmoxda. Ko'chalar va xiyobonlar esa gulzorlarga aylanmoqda. Yo'l chetlariga ekilgan archa va boshqa manzaralari daraxtlar, gullar havo mo'tadilligini saqlamoqda. Anhorlarda oqayotgan zilol suvlari, go'zal manzaralarni ko'rgan har qanday insonning kayfiyati ko'tariladi va bahri dili ochiladi. Azal-azaldan xalqimiz tevarak atrofni ozoda

saqlaganlar. Bobolarimiz, ota-onalarimiz bizga: "Chiqindini ariqqa supurma, suvgi tupurma, hovli va ko'chalarga axlat tashlama!", deb tayinlashgan. Shu bois bo'lsa kerak kichik yoshimizdan oqozalikka rioya etganmiz. Daraxtlar soyasida soatlab qo'g'irchoqlar o'ynab, oqayotgan zilol suvning mayin ohanggiga uyg'unlashgan holda raqslarga tushib, qo'shiqlar aytganmiz. Toza soz tuproqdan foydalanib, turli o'ynichoqlar yasaganmiz. O'qigan kitoblarimiz mazmuni asosida rasmlar ishlar edik. Ammo keyingi yillarda bizning tabiatga bo'lgan munosabatimizda biroz beparvoliklar ko'zga tashlanmoqda. Ilgarilar ariq va buloqlarning suvidan hyech hadiksiz ichar edik. Issiq nonlarni oqar suvgi oqizib, botirib yerdik. Hozirgi kunda mahalla va guzarlardan oralab oqib o'tadigan ariqdagi suvni ichib bo'lmaydi. Ming afsuski, bu so'zlarda jon bor. Chunki ba'zilar hyech tortinmay ariqqa suprindini tashlaydi, kir yuvilsa, mag'zavasini oqqizadi. Chiqindilarning istalgan joylarga tashlab ketilishi inson kayfiyatini tushurib yuboradi. Hatto ular orasida non bo'laklari ham bor. Yashayotgan mahallalarimiz toza bo'lishi avvalo, o'zimizga bog'liq. Faqat hovli va uylarimiz emas, qishloq, shaharlar ham o'zimizniki. Uning ozodaligiga har birimiz javobgarmiz, mas'ulmiz. Kim hovlisida chiqindilarning sochilib yotishini istaydi? Gohida, hatto mashinadan tushgani erinib, chiqindilarni pana-pastqan joylarga uloqtirib ketishadi. Yo'llarimiz chetida qog'ozdan tortib har xil chiqindilar sochilib yotadi, yoz faslida esa ular o'zidan badbo'y hidlar tarqatadi va bir qancha kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ba'zan to'plangan maishiy xazonlar, chiqindilarni yondirish oqibatida inson hayotiga, iqlim sharoitiga salbiy tasir ko'rsatiladi. Havoni esa zaharlaydi. Aksincha, onamiz kabi mehribon ona tabiat saxovatini ayab, uning qadriga yetaylik. Biroq shunga qaramay, onamiz kabi mehribon tabiat o'z saxovatini bizdan ayamaydi. O'simliklar dunyosi shifobaxsh giyohlar va dorivor moddalar manbaidir. Ularning barchasi atmosfera havosini tozalab beruvchi "filtr" vazifasini o'taydi. Sog'-salomat yurishimizga sharoit yaratib beradi.

Muxtasar qilib aytganda, ona tabiatga mehr-muhabbatli bo'laylik. Oilalarda, mahalla va qishloqlarda ekologik tarbiyani kuchaytiraylik. Orastalikka rioya qilishimiz, gulu giyohlar maskani va daraxt-zorlarni avaylab parvarishlashimiz zarur. Agar biz tabiiy go'zalliklarga ziyon yetkazmaslikni odat qilsak, avlodlar kelajagi va hayotning davomiyligi uchun shunchalik ko'p qayg'urgan bo'lamiz.

Hozirgi zamon talabi murabbiy-o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodkorlik va mustaqil erkin ijodiy fikr yuritishni talab etadi. Bu esa ularning ta'lif jarayonida qiziqarli didaktik o'yinlardan foydalanib, mashg'ulotlarni qiziqarli o'ta olish texnikasida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, bolalarning bilish jarayonida mehnat, o'yin, sayr-sayohatlar, ertaklar, didaktik o'yinlar va turli mavzudagi suhbatlarning ta'siri kuchlidir. Xususan, "Ona tabiatga mehrli bo'laylik", "Oila mahallarda ekologik tarbiyani kuchaytiraylik", "Orastalik", "Tabiiy go'zalliklarga ziyon yetmasin", "Ona tabiatni asraylik", "Yurtim go'zalligi", "Manzaralari daraxtlar", "Chiroyli gullar", "Zilol suvlari", "Uyimiz, hovlimiz va tevarak atrofni ozoda saqlaylik", "Ariqlarga axlat tashlamang", "Chiqindilarni ariqqa supurmang" kabi mavzularda suhbatlari o'tkazish juda foydali ishlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, "Axlat uyumlarining bo'lishiga va ulardan badbo'y hidlarni tarqalishiga hamda kasalliklarning tarqalishiga yo'l yo'q", "yerga har xil chiqindilarni tashlashga yo'l yo'q", "To'plangan chiqindilarni yondirishga yo'l yo'q", "Havoni zararlashga yo'l yo'q", "Orastalikni saqlamaslikka yo'l yo'q", "Tabiiy go'zallikka ziyon yetkazishga yo'l yo'q", "Avlodlar kelajagi va hayotning davomiyligi uchun qayg'urmaslikka yo'l yo'q" mavzularida didaktik o'yinlarining tashkil etilishi tabiatdagagi mayjud muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Masalan: maktabgacha ta'lif muassasalarining maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan "Nima yaxshi- yu, nima yomon" mavzusida didaktik o'yin tashkil etish mumkin. Bunda avvalo tarbiyachi mazkur didaktik o'yinning mazmuni va qoidalari bilan bolalarni tanishtiradi va ulami boshqaradi. O'yinning tartibi quyidagicha ifoda etiladi:

Mavzu: "Nima yaxshi- yu, nima yomon"



Didaktik vazifa: bolalarga hayotda nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi, uning foyda va zarari, quvonch va tashvishi to'g'risida tushuncha berish.

O'yinning maqsadi: Nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini bilish.

O'yin qoidasi: bolalarni yaxshi narsalarga mehrli, diqqat-e'tiborli bo'lish ruhidha tarbiyalash. Ularga mehnatsevar, odob-axloqli, yaxshi xulq-atvori va sog'lom fikrli komil inson bo'lishi to'g'risida tushuncha berish.

O'yinning jihozlanishi: "Nima yaxshi-yu, nima yomon" mavzusida ishlangan ko'rgazmali va foto rasmlar, she'rlar, ertak va hikoyalari, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari va hokazo.

O'yinning borishi: Tarbiyachi mavzuga doir ishlangan ko'rgazmali va foto rasmlardan foydalangan holda bolalarga "Nima yaxshi-yu, nima yomon"ligi to'g'risida suhbat o'tkazadi. Mazkur didaktik o'yinning mohiyatini ochish va tashkillashtirishda tavsya etilgan materiallardan keng foydalaniladi. "Nima yaxshi-yu, nima yomon" didaktik o'yini quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Nima yaxshi?
- Ona tabiatni sevish va uni mehr bilan avaylash;
- tabiat boyligiga boylik qo'shish;
- yer, suv, havo, o'simliklarga ardoqli munosabatda bo'lish;
- juda ko'p qushlarning nomlarini bilih va ularga mehrli bo'lish;
- yashil tabiatdan zavqlanish va yam-yashil daraxtlarni ko'paytirish;
- qishloq va shaharlarni obod, yashayotgan joyni gulguz etish, gullarni ko'paytirish va ularning muattar hididan nafas olish;
- salqin, yoqimli, sof, toza havoda bo'lish, o'lkamizning go'zalligi, quyosh nuri, zilol shifobaxsh suvidan bahramand bo'lish;
- ariq qazish,tozalash, yangi yo'llar ochish, ko'priklar qurish;
- o'z diyorini gullatish, bepoyon ekinzorlar, bog'u-rog'larni ko'paytirish;
- ekologiya xavfsizligini ta'minlash;
- halol va pokiza, odob-axloqli bo'lish, Vatanning non-tuzini oqlash.

Nima yomon?

- Atrof-muhitni ifloslantirib, inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazish;
- havoni bulg'atish, suvni ifloslantirish;
- daraxt tagiga suv quymaslik, ko'chatni sindirish;
- ko'chalarga chiqindilarini tashlash, chang, tutun, mikroblarni ko'paytirish;
- tabiatga nisbatan loqayd bo'lish va uning ne'matlarini isrof qilish;
- kattalar mehnatining qadriga yetmaslik, axloqsiz bo'lish, hayotdagi go'zallikni sezmaslik va uning qadriga yetmaslik;
- qushlar, hayvonlarga ozor berish, o'simliklarni toptash, tabiyi boyliklardan noo'rin foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlamaslik;
- mashinalardan zararli tutunlarni chiqarish, atrofni zaharlash va hokazo.

Ma'lumki bola o'z uyida, ta'lim dargohida, mahallada tarbiya topadi. Shunga ko'ra el-yurtga sadoqatlari, imon-etiqodli, vatanparvar bo'lib ulg'ayshida oila, mahalla, mакtab hamkorligining ta'siri beqiyos. Bu ezgu tushunchalar xalqimizning "Bir bolaga yetti qo'shni ota-onasi", "Biz-O'zbekiston farzandlarimiz", "Biz bir oilamiz", "Ozod va obod vatanda baxtli yashash- o'z qo'limizda" kabi mavzularda ham mujassam bo'lib, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhidha tarbiyalash, ularda sog'lom tafakkur, dunyoqarashni shakllantirish va oila, jamiyat, vatan oldidagi mas'uliyatini hamda yurt taqdiri uchun daxidorlik tuyg'usini kuchaytirish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda Toshkent shahar Olmazor tumanidagi "Qorasaro" mahallasida yoshlarni ijtimoiy muhofaza etish, ularni ezgu qadriyatlarimizning munosib davomchilarini etib tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishmoqda.

Mahallada ijtimoiy himoyaga muhtoj, serfarzand oilalar xolidan

xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatish, har bir oiladagi muhit, odamlarning orzu-umidlari, ezgu intilishlaridan boxabar bo'lish mahalla faollarining doimiy etiborida bo'ladi. Mahallada ta'lim muassasalari, ibratlari xonodon vakillari, urush va mehnat faxriylari, yozuvchi va shoirlar ishtirokidagi uchrashuv va davra suhbatlarining mutazam ravishda o'tkazib turilishi o'zining ijobjiy ta'sir kuchiga egadir.

Kelajak avlod haqida qayg'urish va sog'lom, barkamol naslni tarbiyalash bizning milliy xususiyatimizdir. Bugungi kunda qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Chunonchi odobli, bilimdon, aqli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzandlar ota-onalar va jamiatning katta boyligidir.

Sog'lom bola tarbiyasida mahallaning fuqarolar yig'ini raisi, diniy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari, mahalla posbonlari, keng jamoatchilik mas'uliyatini yanada oshirishga jiddiy e'tibor berilgan. Bu borada pirovard maqsadimiz komil insonni tarbiyalash ekan, oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirishga bog'liq ekanligini aslo unutmaslik kerak. Yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlar, kattalarga hurmat, ezgulik, insoniylik, mehrimonlik va bag'rikenglik, vatani va xalqiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida mahallada yetuk olim, psixolog, yozuvchi shoirlar ishtirokida qiziqarli suhbatlar o'tkaziladi. Shuningdek, mahalla yoshlari ishtirokida "Eng yaxshi kitobxon", "Orasta qizlar davrasи", "Eng namunali oila", "Eng ibratlari xonodon", "Gulzor hovli" ko'rik tanlovlar tashkil etildi. Ma'lumki, har qanday ko'ngilsizliklar – bekorchilik va nazoratsizlik oqibatida kelib chiqadi. Shu bois mahallada istiqomat qilayotgan yoshlarning kundalik faoliyat doirasi, oilaviy ahvoli, o'quv jarayoni nazorat etiladi. Bu borada oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi yo'naliishiда o'quv muassasalarida ta'lim-tarbiyaning sifat darajasini o'rganish bo'yicha jamoatchilik nazorati o'rnataligan. Mahalla keksalarining tajribalari asosidagi pand-nasihatlari yoshlarning irodali, mard, jasur bo'lib yetishishlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Mahalla hududida go'zallik saloni, xizmat ko'rsatish va servis shoxobchasi hamda tadbirkorlik sub'ekti faoliyat ko'rsatmoqda. Namunaviy loyihibar asosida uy-joylar bunyod etilmоqda. Mahallada milliy hunarmandchilik, tukuvchilik yo'lga qo'yilgan. Mahallada diniy-ma'rifiy va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha turli mavzularda suhbatlar tashkil etiladi. Xususan "Mahalla – mafkuraviy tarbiya maskani", "Halol mehnat-obodonchilik mezoni" mavzulari yoriltiladi. Insonning halol mehnati bilan yurt obod, xalqning hayoti farovon, mahallalarimiz obod, chiroyli bo'ladi. Halol mehnatda baraka bor. Inson mehnati bilan jamiatda mo'l-ko'ichilikni yaratadi. Mehnat ta'sirida insonning turmushi yaxshilanadi. Eng muhiimi iqtisodiy o'sishga erishiladi. Inson mehnat orqali o'z-o'zini tabiyalaydi, turmushi yaxshilanadi. O'z kuchi bilan nonini topib yeydi. Tekinxo'rlik va dangasalikka o'rganmaydi. Har bir inson o'zida yaxshi fazilatlarni namoyon etadi. Mehnatsevar inson hayotda o'zining o'mni va mavqyeyiga ega bo'ladi hamda qadr-qimmat va hurmatga sazovor bo'ladi.

Xulosa shuki, mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning sog'lom o'sib ulg'ayishi, ilm olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. "Bola aziz-odobi undan aziz" deyildilar. Bolaligidan odobli bo'lgan farzandlar katta bo'lganlarida ham hurmat-e'tiborga erishadilar. Oilada yaxshi tarbiya oлган bola ota-onaga mehrimon, ularning izzat-hurmatini o'rniga qo'yadigan, har bir so'ziga qulqoq soladigan, ular buyurgan ishlarni pishiq-puxta bajaradigan bo'ladi. Oila a'zolariga samimiy munosabatda bo'lib kattalarning pandu-nasihatlarini diqqat e'tibor bilan tinglaydi va umga amal qiladi, doimo foydali ishlarni shug'ullanib mehnat bilan chiniqadi. Ota-onasi qariganda ularning roziligi va duosini oladi, beliga quvvat bo'ladi, eng muhiimi el orasida obro'-e'tiborli bo'ladi, hayotda esa odob-qoidalarga amal qilib yashaydigan inson bo'lib voyaga yetadi.



## Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 05.09.2020.
2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston". 2016. 14-bet.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 2 jildlik, 2-jild – T.: "Ma'naviyat" – 1998.
4. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

## O'QUVCHILARDA HUQUQIY TUSHUNCHALAR SHAKLLANISHINING EMPERIK TAHLILI

**B.Jo'ravev, Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrasini dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

В статье анализируются результаты психодиагностики психологической готовности учащихся к овладению правовыми понятиями, выявление особенностей их мышления, умение анализировать события в процессе мышления и сопоставлять их.

**Ключевые слова и понятия:** учащийся, юридические понятия, ассоциативное мышление, абстрактное, сравнение, метафорическое, конкретно-действенное, умственная деятельность, синтезирование.

The article analyzes the results of psychodiagnostics of students' psychological readiness to master legal concepts, revealing the peculiarities of their thinking, the ability to analyze events in the process of thinking and compare them.

**Key words and concepts:** student, legal concepts, associative thinking, abstract, comparison, metaphorical, concrete-effective, mental activity, synthesis.

Ma'lumki, qonun ustuvorligi va uning mohiyatini anglash hamda unga itoatkorona munosabatda bo'lish o'ta muhim jarayondir. Buni his qilmoq uchun esa har bir shaxsning huquqiy savodxonligi yetarli darajada bo'lmog'i lozim. Demak, masala o'z-o'zidan yana o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga borib taqaladi. Buning uchun esa asosiy e'tiborni tarbiya maskani bo'lmish ta'limal muassasalarida, qolaversa undagi muhitni sog'lomlashtirib turuvchi o'qutuvchilar jamoasiga qaratmoq zarurdir. Avvalambor, u yerda ta'limal olayotgan yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishni bir tizimga yo'naltirish orqali keng omma orasida yoshlar mavqeini oshirish mumkin bo'ladi.

Psixologiya fanida shaxsning o'zini o'zi anglashi, hurmat qilishi, xatti-harakatlarini tartibga solishi, qadriyatlarini o'zida kamol toptirishi, ijtimoiy tamoyillarga amal qilishi, shaxslararo munosabatlarni tartibga solishi va boyitib borishini ta'minlashning qonun-qoidalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy me'yorlarga amal qilish o'z navbatida huquqiy me'yorlarning uyg'unlashgan bir takribiy qismi hisoblanadi. Huquqiy me'yorlar qonun hujjatlari bilan belgilanganligi bois ularga amal qilish shaxsning kamol topganligi, kechinma-tuyg'ularini tartibga solishi va xatti-harakat hamda xulq-avtorini nazorat qilish bilan bog'liq kechadi. Demak, shaxsning huquqiy savodxonligi, ularda huquqiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik-psixologik qonuniyatlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda yoshlarni kamol toptirish, ularni jahon andozalariga mos ravishda shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan o'spirin o'quvchilarda huquqiy tushunchalarning shakllanganligini tadqiq etish muammoning nazariy-metodologik masalalaridan kelib chiqqan holda tashkil etildi. Buning uchun o'quvchilarning huquqiy tushunchalarni baholay olish imkoniyatlarining psixologik xususiyatlari o'quvchilarning, ya'ni maktab bilimi bo'yicha huquqiy tushunchalardan xabardorlik holati va ta'limi jarayonida yuridik tushunchalarni shakllantirish xususiyatlari e'tibor qaratildi. Tushunchalarning shakllanganlik darajasini tadqiq etish metodlari o'quvchilarning tushuncha to'g'risidagi tasavvurlari, tafakkuri, tushunchalarning muhim xususiyatlarni farqlay olishining shakllanganligi o'quvchining umumiyyat taraqqiyoti bilan, ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unlashuviga ega ekanligi bilan, shuningdek, sezgi, idrok, tasavvur va xotira jarayonlarining rivojlanganlik holati bilan bog'liq holda kechadi.

Tadqiqotimizda o'quvchilarda huquqiy tushunchalarni shakllantirish qobiliyatlarini o'rganishda tadqiqot ishiga taalluqli metodikalarni qo'llab, natijalar tahliliga amaliy yondashdik. Jumladan, "Piktogramma" "Murakkab analogiya", "Tushunchalarni taqqoslash", "Muhim belgilarni ajratib ko'rsatish", "Mantiqiy tafakkur" metodikalaridan foydalandik.

"Piktogramma" (A.R.Luriya) metodikasidan foydalanishining asosiy maqsadi o'quvchilarning esga olib qolish xususiyatlari va uning samaradorligi, assotsiativ fikrlash faoliyati xarakteri va tushunchali tafakkurning shakllanganlik darajasini aniqlashdan iborat.

Metodikada foydalanilgan so'zlar va so'z birikmalari besh toifa belgilardan iboratdir:

- abstrakt tasvirlar (A)-chiziqlar ko'rinishidagi, ammo biror-bir ma'noli timsolni ifodalamaqanda;
- belgili-simvolli (B)-simvollar yoki belgilarni orqali ifodalanganda (geometrik figura, strelka va boshqalar);
- konkret (K)-konkret predmetlarda ifodalangan;
- syujetli (S)-predmetlarni ifodalash biror bir vaziyat, syujet, biror bir faoliyat orqali ifodalanganda;
- metaforik (M) - tasvirlar metafora shaklida ifodalanganda, masalan, "quvond" so'zi osmonga parvoz qilayotgan odam qiyofasida tasvirlanganda.

Metodikani qo'llashdan olingan qiymatlarni tahlil qilishda ikki xil tartibda yondashildi:

birinchi holatda, respondentlarning tasvirlarni so'zlarda ifodalash klassifikatsiyasiga;

ikkinchi holatda esa respondentlarning umumiyyat qiymatlari tarzda sharhlashga harakat qilindi.

O'quvchilarning metodika qiymatlarni birinchi yo'nalish bo'yicha ko'rib chiqilganda farq qiluvchi qiymatlarni kuzatishga erishildi. O'quvchilarning metodika bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlari eng muhim o'rin, so'zlarini konkret tasvirlarda ifodalandi. Metodikaning normasiga ko'ra respondentlarda konkret tasvirlarning ustuvorligi o'quvchilarda konkret-harakat tafakkur yetakchilik qilganligini ko'rsatadi. Ikkinchi o'rinda o'quvchilarda so'zlarini belgili-simvolli (15,67 foiz) tasvirlovchilar joy olgan. Metodikaning xususiyatiga ko'ra o'quvchilarda so'zlarini "abstrakt" va belgili-simvolli ifodalash yetakchilik qilganda, ularda fikrlovchi tip va aqliy faoliyatda axborotlarni sintezlash va umumlashtirishga intilish, yuqori



### 1-jadval

#### Respondentlarning “Piktogramma” metodikasi bo‘yicha qiymatlari (foiz hisobida )

Nº	So‘zlarning tasviriy ifodalanish turlari	Umumiy
1	Abstrakt tasvirlar (A)	7,27
2	Belgili-simvolli (B)	15,67
3	Konkret (K)	72,43
4	Syujetli (S)	4,30
5	Metaforik (M)	0,33
<b>Jami:</b>		100

abstrakt-mantiqiy tafakkur xos deb xulosalanadi.

O‘quvchilarning so‘zlarni esda olib qolishi va esga tushirishda syujetli (4,30) va metaforik (0,33) tasvirlash boshqa turlardan ancha farq qilmoqda. O‘quvchilarning qiymatlardagi bu holat boshqa tafakkur turlariga nisbatan tushunchali tafakkurning shakllanganlik holati obrazli tafakkurdan dalolat beradi. Bu ularda badiiy qobiliyatni va badiiy ijodiyotga qiziqishlarini anglatadi. Tadqiqotning miqdoriyi qiymatlari respondentlar, ya’ni o‘quvchilarda tushunchali tafakkur shakllanganlik darajasini mavhum tushunchalar va tasvirlar o‘rtasida erkin munosabati ifodalay olganligi belgilaydi.

Ushbu metodika o‘quvchilarda tushunchali tafakkur shakllanganligini emas, balki uning proyektiv ahamiyati shaxslik xususiyatlarini tavsiflashga xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilarning tasvirida odam surati ko‘puchraydigan holatlari o‘quvchilarning og‘zaki ma‘lumotlarni mohirona ifodalashlari va muloqotmandliklaridan xabar beradi. Bu empirik ma‘lumotlar o‘quvchilarda tushunchalarining shakllanishida boshqa psixik jarayonlarning ahamiyatini, o‘quv materiallarning didaktik tizimini ishlab chiqishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarining uzviy davomi sifatida qarash mumkin. Bundan ko‘rinadiki, bu borada ham qiymatlarni ifodalash o‘quvchilarning kichik mutaxassis sifatida shakllanishlarini va tanlagan kasb-hunar sohasiga mos kelishlarini ifodalashsha xizmat qiladi.

U yuqorida tushunchalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida so‘z yuritilganda, boshqa psixik jarayonlarning ahamiyati muhimligi e’tirof etilgandi. “Piktogramma” metodikasini qo‘llashdan maqsadning bir jihatida ham xotira bilan tushuncha shakllanishini o‘zaro bog‘lashdan iborat edi.

O‘quvchilarning metodikalar bo‘yicha umumiy qiymatlari aks ettirilgan jadvallarda bir qator holatlari xususida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarning “Piktogramma” metodikasi bo‘yicha qiymatlarni sharhlashda ikkinchi jihatiga murojaat qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning tushunchalarini va yuridik soha bilimlarini o‘zlashtirishida xotira jarayonining o‘rnini aniqlashga olib keldi. Xotiraning qonuniyatlariga ko‘ra insonsoning o‘rtacha xotira ko‘lamini belgilovchi meyor Myullerning “oltin raqam”iga mos kelmoqda. O‘quvchilarning umumiy qiymatlari ko‘ra -7,64, o‘g‘il bolalarda -7,56 va qizlarda -7,72 ga tengligi aniqlandi. Metodikalarning umumiy natijalariga ko‘ra qizlar bilan o‘g‘il bola o‘quvchilarning natijalarida keskin statistik farqni ifodalovchi qiymatlari aniqlanmadи. Birgina holatda o‘quvchilarning natijalarida farqlar o‘rtasida tafovut mavjud ekan, ya’ni “Murakkab analogiyalar” metodikasi natijasiga ko‘ra qiz o‘quvchilar o‘g‘il bolalarga nisbatan ahamiyatli ko‘rsatkichga ega bo‘ladi: 5,40 va 5,94;  $t=-2,10$ ,  $*r\leq 0,05$ . Bu o‘quvchi qizlarda tushunchalar o‘rtasidagi abstraksiya va murakkab mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash qobiliyati bir oz yuqoriq ekanligidan dalolat bermoqda. O‘quvchi o‘g‘il bolalar esa murakkab analogiyalar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari, mantiqiy mulohazalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tarqoq izohlashlari, mantiqiy aloqalarni yolg‘on tushunishi mumkin ekan.

O‘quvchilar natijalarining umumiy qiymatlari o‘rtachadan yuqori qiymatlarni aks ettirayotganligi tushunchalarini shakllantirishga qobiliyatli o‘quvchilar yetarlicha ekanligini anglatadi. Tushunchalarining shakllanishida o‘quvchilarning psixik imkoniyatlari mavjud deyishga nisbiy asos bor. Ushbu asosli fikrning tasdig‘ini

metodika qiymatlarining mazmuniy bog‘liqligini o‘rganish orqali sharhlashtirishga harakat qilinadi.

Metodika qiymatlari o‘rtasidagi ichki aloqalar o‘quvchilarning tushunchalarini shakllantirishga qobiliyatlarida qaysi xususiyatlar o‘rtasida yetarlicha bog‘lanish va qaysilarida esa shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

O‘quvchilarning metodikalar bo‘yicha miqdoriyi qiymatlarini umumiyligi va xususiy holdagi qiymatlari sharhlanadi.

O‘quvchilarning metodikalar bo‘yicha miqdoriyi qiymatlariga ko‘ra axborotlarni esda olib qolishga tayyorliklari va tushunchalarini taqqoslash metodikasi o‘rtasida ahamiyatli bog‘lanish aniqlandi-  $r=0,278$ ,  $r\leq 0,01$ . Korrelyatsion ahamiyatli ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning xotiralari tushunchalarini shakllantirishida ularning o‘xshashlik va farqlari jihatlarini ajratishga tayanishlari yordam berishi ham mumkin. Ikkinci bir jihatida tushunchalardagi o‘xshashlik va farqlar xotira va tafakkurning assotsiativ nazariyasi ta’limotlariga ham bog‘liqidir. O‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishida xotiraning ahamiyati muhimligini tadqiqot natijalarini yana bir bora tasdiqlamoqda.

O‘quvchilarning miqdoriyi qiymatlari o‘rtasidagi ahamiyatli ko‘rsatkichlarning yana bir ko‘rinishi “Murakkab analogiya” va “Ortiqchasimi o‘chiring” metodikalarini o‘rtasida kuzatildi. Metodikalar o‘rtasidagi ahamiyatli ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning tushunchialarni o‘zlashtirishlarida murakkab analogiya qonunlariga tayanish qobiliyatlarini rivojlantirish sababli ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni-  $r=0,243$ ,  $r\leq 0,05$  va predmet va voqeahodisalarni umumlashtirish, sabab va oqibat bog‘lanishlarini farqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari-  $r=0,231$ ,  $r\leq 0,05$  ni izohlaydi.

O‘quvchilarning ahamiyatli qiymatlarining yana bir ko‘rinishi “Tushunchalarini taqqoslash” bilan “Mantiqiy tafakkur”-  $r=0,289$ ,

### 2-jadval

#### O‘quvchilarning tushunchalarini shakllantirishga qobiliyatligini o‘rganish natijalari

№	Metodikalar	Umumiy natija		O‘quvchilar	M	$\sigma$	t
		M	$\sigma$				
1.	Piktogramma	7,64	1,39	o‘g‘il qiz	7,56 7,72	1,35 1,44	-,677
2.	Murakkab analogiya	5,67	1,42	o‘g‘il qiz	5,40 5,94	1,32 1,47	-2,10*
3.	Tushunchalarini taqqoslash	5,24	0,95	o‘g‘il qiz	5,34 5,14	0,96 0,947	1,010
4.	Muhim belgilarni ajratib ko‘rsatish	5,76	1,31	o‘g‘il qiz	5,50 6,02	1,26 1,31	-1,905
5.	Mantiqiy tafakkur	6,04	1,35	o‘g‘il qiz	6,20 5,88	1,41 1,28	1,740
6.	Ortiqchasimi o‘chirish	5,89	1,36	o‘g‘il qiz	5,78 6,00	1,43 1,29	-,859

\* $r\leq 0,05$

$r\leq 0,01$  va “Ortiqchasimi o‘chiring” metodikalar-  $r=0,199$ ,  $r\leq 0,05$  o‘rtasida ekan. O‘quvchilarning qiymatlari tushunchalarini taqqoslash, ya’ni tafakkurning analiz, sintez va taqqoslash singari muhim operatsiyalarini shakllantirish orqali bir necha predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar va tafovutlarni aniqlash yordamida konkret tafakkurni shakllantirishga erishish mumkin bo‘ladi. Bunday holat o‘quvchilarda yuridik tushunchalarini shakllantirish jarayonida ancha qo‘l keladi va ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning “Muhim belgilarni ajratish” metodikasi bilan “Mantiqiy tafakkur”-  $r=0,261$ ,  $r\leq 0,01$  va “Ortiqchasimi o‘chiring” metodikalar-  $r=0,370$ ,  $r\leq 0,01$  o‘rtasida ham bog‘lanishlar aniqlandi. O‘quvchilar predmet va voqeahodisalar o‘rtasidagi muhim belgilarni ajrata olishlari tufayli abstrakt-mantiqiy mulohazalashga erishar ekanlar va tushunchalarining mayhum tomonlarini ko‘rishga moyil bo‘lib borishlarni bildiradi. O‘quvchilar tushunchalarining muhim belgilarni ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish oqibatida mantiqiy tafakkur va sabab-oqibat tamoyiliga ko‘ra voqeahodisalarini tushunishga erishishlari mumkin bo‘ladi.



**O'quvchilarning tushunchalarini shakllantirishga psixik  
tayyorliklarining korrelyatsiya koefitsientlari**  
(umumi natija)

**3-jadval**

Nº	Metodikalar	Piktogramma	Murakkab analogiya	Tushunchalarini taqqoslash	Muhim belgilarini ajratib ko'rsatish	Mantiqiy tafakkur	Ortiqchasini o'chirish
1.	Piktogramma	1	0,138	0,278**	-0,026	0,072	0,122
2.	Murakkab analogiya		1	0,193	0,185	0,243*	0,231*
3.	Tushunchalarini taqqoslash			1	0,079	0,289**	0,199*
4.	Muhim belgilarini ajratib ko'rsatish				1	0,261**	0,370**
5.	Mantiqiy tafakkur					1	0,495**
6.	Ortiqchasini o'chirish						1

\* $r \leq 0,05$ ; \*\* $r \leq 0,01$

O'g'il bolalarning ahamiyatlari qiymatlari "Tushunchalarini taqqoslash" - "Muhim belgilarini ajratish" -  $r=0,394$ ,  $r \leq 0,01$ ; "Mantiqiy tafakkur" -  $r=0,415$ ,  $r \leq 0,01$  va "Ortiqchasini o'chirish" metodikalarini -  $r=0,485$ ,  $r \leq 0,01$  o'rtaida aniqlandi. Demak, o'g'il bolalarning umumi natijalari qizlarniki bilan taqqoslaganda nisbatan pastroqqa o'xshash tasavvur uyg'otgan bo'lsa-da, ammo ularning qiymatlarining ichki aloqadorligi anchagina chuqurroq bog'lanishlarga egaligini ko'rsatmoqda. O'g'il bolalar tushunchalarini taqqoslash, ya'ni tafakkurning analiz, sintez va taqqoslash singari muhim operatsiyalarini shakllantirish orqali bir necha predmetlar o'rtaidagi bog'liqliklar va tafovutlarni aniqlash ko'nikmalari orqali konkret tafakkurni shakllantirishga erishishlari mumkin.

O'g'il bolalarning "Muhim belgilarini ajrating" - "Mantiqiy tafakkur" -  $r=0,353$ ,  $r \leq 0,01$  hamda "Ortiqchasini o'chirish" metodikalarini -  $r=0,366$ ,  $r \leq 0,01$  o'rtaida bog'lanishlar mavjud ekan. O'g'il bolalar o'spirinlik yoshiga kelib, hayotiy masalalar va faoliyat bilan bog'liq muammolarni hal etishda qizlarga nisbatan ancha yuqori amaliy faoliyatni namoyon etishga qobiliyatli bo'lib boradilar. Ular predmet va voqe-hodisalar o'rtaidagi muhim belgilarini ajrata olishlari tufayli abstrakt-mantiqiy mulohazalashga erishar ekanlar va tushunchalarining mayhum tomonlarini ko'rish qobiliyatini kamol toptirib boradilar. O'quvchilar tushunchalarining muhim belgilarini ajrata olish qobiliyatini rivojlanish oqibatida mantiqiy tafakkuri va sabab-oqibat tamoyiliga ko'ra voqe-hodisalarini tushunishga erishishlari mumkin bo'ladi.

Shuningdek, o'g'il bolalarda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi tushunchalarini shakllantirish hisobida konkret tafakkurning muhim xususiyatlarini o'zlarida kamol toptirishlari mumkin, deb hisoblash mumkin -  $r=0,289$ ,  $r \leq 0,01$ .

Qizlarning korrelyatsion ahamiyatlari ko'rsatkichlaridan biri "Murakkab analogiya" - "tushunchalarini taqqoslash" -  $r=0,254$ ,  $r \leq 0,05$

va "muhim belgilarini ajratib ko'rsatish" metodikalarini -  $r=0,221$ ,  $r \leq 0,05$  o'rtaida aniqlandi. Ushbu miqdoriy qiymatlari o'quvchi qizlarning tushunchalarini shakllantirish uchun qiyinchilik bilan mantiqiy tushuntirishga erishsalar-da, ularda abstrakt va murakkab mantiqiy aloqalarni payqashga layoqtidirlar. Predmet va hodisalar orasidagi murakkab o'xshashliklarni farqlashga erishish orqali esa tushunchalardagi muhim belgi va alomatlarni ortiqcha qiyinchilikliz ajrata oladigan bo'lib qoladilar.

Yana o'quvchi qizlarda "muhim belgilarini ajratish" - "mantiqiy tafakkur" o'rtaida -  $r=0,359$ ,  $r \leq 0,01$ . Bu esa tushunchalarini farqlash va ularning bir avlodga mansub ekanligini aniqlashda to'g'ri va mustaqil yondashishga qobiliyatli bo'lishlari mantiqiy fikrashlarining o'sishiga sabab bo'lishi shubhasiz.

Oldingi qiymatlari singari o'quvchi qizlarda ham mantiqiy tafakkurning rivojlanishi tushunchalarini shakllantirish hisobida konkret tafakkurning muhim xususiyatlarini o'zlarida kamol toptirishlari mumkin, deb hisoblash mumkin -  $r=0,490$ ,  $r \leq 0,01$ .

Tadqiqot metodikalarining dastlabki natijalari shundan dalolat beradiki, o'quvchilarning huquqiy tushunchalarini shakllantirishga psixologik imkoniyatlari yetarlicha, ammo ularni huquqshunoslik fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishlari vaqtida ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirishlari ancha ijobji natija berishi mumkin.

Tushunchani aniqlashda tadqiqot predmeti va obekti bosh mezon hisoblansada, ammo muammoni o'rganishni optimallashtirish uchun asosiy va qo'shimcha metod va metodikalarni tatbiq etish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tushunchani aniqlash metodlari va metodikalari tadqiqot ob'ektining tushunchalarini o'zlashtirish xususiyatlarini, biror bir fan yo'nalishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish layoqati, qobiliyatiligi tushunchalarini shakllantirish qonuniyatlarini egallashga tayyorligini baholaydi. Shu bois, metodika natijalarini tahlil etishda ularning bunday xususiyatlarini hisobga olish ma'qul.

#### Adabiyotlar

- Брушинский А.В. Психология мышления и проблемное обучение. – М.: Знание, 1983.
- Ермакова О. Б. Образовательные технологии формирования научных понятий в общеобразовательной школе с позиций компетентностного подхода: на материале гуманитарных дисциплин// Диссер. канд. педагог. наук. – Москва, 2007.
- Кулиткин Ю.Н. Исследование познавательной деятельности учащихся вечерней школы.
- Психодиагностика. Под ред. В.И.Чиркова. – Ярославль: – 1995.
- Лурия А.Р. Язык и сознание. – Изд. 2-е. – Ростов на. Д. 1998,

## INKLYUZIV TA'LIMDA TYUTORNING O'RNI VA AHAMIYATI

**G.S.Abdullayeva, Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Maxsus pedagogika" kafedrasi dosenti v.b.**

**S.Mo'minov, Respublika tashxis markazi metodisti, Chirchiq davlat pedagogika instituti**

**"Maxsus pedagogika" kafedrasi "Surdopedagogika" yo'nalishining 1-bosqich magistranti**

Инклузивное образование - это система образовательных услуг, основанная на принципе обеспечения права детей на образование и права получать его по месту жительства, что предусматривает обучение ребенка с особыми образовательными потребностями в условиях общеобразовательного учреждения.

**Ключевые слова и понятия:** инклузивное образование, задачи, образовательные потребности, процесс, гуманизм, милосердие.

Inclusive education is a system of educational services based on the principle of ensuring the right of children to education and the right to receive it at the place of residence, which provides for the education of a child with special educational needs in a general education institution.

**Key words and concepts:** inclusive education, tasks, educational needs, process, humanism, mercy.



Butun dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan, barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga oladigan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'limning maqsadi – alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan o'quvchilar uchun muktabda maxsus, korreksion vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda, to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvni hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatlari umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta'limning vazifalarini quyidagilar:

– turli xil rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istsino qiladigan, barcha o'quvchilarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

– jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik, insoniylik, mehrmuhabbat munosabatini shakllantirish;

– ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini, fikrlashini rivojlantirish;

– barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat va sharoitlar yaratish;

– o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsiyal-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy bilim, ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarini farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash va boshqalardan iboratdir. Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkorlik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'lim jarayoni umumta'lim muassasalaridan inklyuziv ta'lim sinfi va boshlang'ich tayanch korreksion sinfi shaklida tashkil qilinadi. Inklyuziv ta'lim sinfi deb-maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinfga aytildi. Inklyuziv ta'lim sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsus (korreksion) dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmaydi. Inklyuziv ta'lim sinflariga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflar soni bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi. O'quvchilarning bilimlari ulardag'i nuqsonlarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta'lim standartlariga muvofiq baholanadi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinf-maktabda alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf nazarda tutiladi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'quvchilar soni amaldagi alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalar maktab-internat sinflaridagi o'quvchilar soni me'yorlariga (ya'ni bitta sinfda 8 nafardan kam bo'lmagan) muvofiq ravishda belgilanadi.

Maktablarda boshlang'ich tayanch korreksion sinflar soni har bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Boshlang'ich tayanch korreksion

sinflarda o'quvchilarga defektologiya yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli pedagoglar, shuningdek, defektologiya (sohasi) bo'yicha tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan dars beriladi. Inklyuziv ta'lim hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, u barcha muktaba jamoasini, maxsus o'qituvchini, psixologlarni, keng jamoatchilik hamda tyutorlarni qamrab oladi. "Tyutor" tom ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma'lum bir sohaning mutaxassisini bo'lib, uning asosiy vazifasi muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko'maklashadi. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Talabaning umumta'lim muktablaridagi pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi rahbar sifatida umumta'lim muktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosi tayinlanadi. Talabani amaliyotni tugatganlik haqidagi ma'lumotnomasi umumta'lim muktabi rahbari tomonidan beriladi. Tyutor:

– ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi;

– ta'lim jarayonining individuallashuvni (individual ta'lim dasturlarini tuzish va sh.k.) uchun sharoitlar yaratadi;

– o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari tabalari muvofiq darajada o'zlashtirishiga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi;

– ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim oluvchilarning ta'limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi.

Tyutor boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda maxsus o'qituvchiga bevosita yordam beradi. Inklyuziv sinf o'quvchisi dars hamda mashg'ulot davomida zerikib yoki toliqib qolsa bolani aylantirib keladi. Korreksion mashg'ulotni tashkil qilishda ham ishtirok etadi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabr "Alohida ta'lim ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli qarori.



## 4-SINF O'QUVCHILARI MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASALALAR BILAN ISHLASH

K.R.Karimova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

В статье рассматривается вопрос формирования и развития логического мышления у младших школьников, которые осуществляются с помощью разнообразных педагогических средств и методов, соответствующих возрасту ребенка.

**Ключевые слова и понятия:** образование, развитие, мышление, логическое мышление, начальная школа, математика, сложные вопросы

The article deals with the issue of the formation and development of logical thinking in younger students, which are carried out with the help of a variety of pedagogical means and methods appropriate to the age of the child.

**Keywords and concepts:** education, development, thinking, logical thinking, elementary school, mathematics, complex issues.

Tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish va insонning oqilona amaliy faoliyati vujudga kelishi uchun shardir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi va bu fikrlar insонning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Odamning bilish va amaliy ehtiyojlarini, tevarak-atrof va hayot to'g'risidagi o'z bilimlарini kengaytirish va chuqurlashtirishga intilishi tafakkur qilish faoliyatini vujudga keltiradi va bu faoliyatni kuchaytiraveradi. Shu sababli tafakkur qilish jarayonlarining muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi shu jarayonlarning muhim xususiyatidir.

Tafakkur insонning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqyelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiylashtirib aks ettrishga (bilishga), insонning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi [1].

Davlatimiz tomonidan ta'limga qo'yilayotgan talablardan biri va hozirgi davr o'qituvchilariga qo'yiladigan eng oliy maqsadlaridan biri o'quvchilarini intellektual, axloqiy, jismoniy, estetik jihatdan rivojlangan qilib tarbiyalash bilan birligalikda yetuk inson bo'lish uchun zarur bo'lgan tafakkur fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bunga tayyorlarligi esa eng dolzarb masaladir.

Hayotda bola har kuni o'rganganlarini tahlil qilish, o'z fikrini ilgari surish va himoya qilish, ehtimollik va ishonchilik tushunchalarini tushunish, bir nechta yechimlarning eng yaxshisini tanlash, xatoga yo'l qo'yish va to'g'ri xulosa chiqarish bilan bog'liq vaziyatlarga duch keladi. O'quvchilarning mantiqiy fikrash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish esa bu vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlay olish imkonini beradi [2].

Hyech bir fan matematika fanichalik fikrashning rivojlanishiga hissa qo'shmaydi, ayniqsa, mantiqiy masalalar diqqatni jamlashni, hushyorlikni, e'tiborlilikni va to'g'ri xulosa chiqarishni o'rgatadi va bular orqali fikrash yanada oydinlashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat borliqni, balki mavhum bo'lgan muammoli vaziyatlarni ham analiz qila olish, u haqida o'z fikriga ega bo'lish, tahlil qilib boshqa masalalar bilan taqqoslagan holda umumiyl xulosa qilib, natijaga to'g'ri yondasha olishga o'rgatish zarur. Boshlang'ich mifik yoshida, matematikani o'rganayotganda, fikrashni rivojlantirish vositalaridan biri maktab o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga fikrashni o'rgatish muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish maqsadida tajriba-sinov jarayoni tashkil etildi. Pedagogik tajriba jarayoni ilmiy ishimizning eng muhim bosqichi bo'lib, bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi talablar asosida ish olib borildi:

1. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda sinflarni tanlamaslik;
2. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda o'qituvchilarini tanlamaslik;
3. Tadqiqot paytida berilgan topshiriqni yechish jarayonida har tomonlama fikrash asosida turli usullardan foydalanish;
4. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda topshiriqlarni bajarish

uchun tegishli metodikani ishlab chiqish;

5. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish davomida sinf o'quv mashg'ulotlarini o'zgartirmaslik;

6. Tajriba-sinov ishlarini natijalarini tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan o'quvchilaridan berilgan topshiriqlarga ma'suliyat bilan yondashishi va fikrashni talab qiluvchi masalalarga qiziqishi e'tiborga olinib, sinf o'quvchilarini o'g'riish jarayoniga halaqt qilmagan holda berib borildi. Bu jarayonda 4-sinf o'quvchilariga berilgan ayrim masalalarni keltiramiz. Bunday tanlangan masalalar o'quvchiga mantiqan fikrashni o'rgatadi, ularning sinchkovligini, ijodkorligini oshiradi va o'g'riish bilimlarini umumlashtirib fikrashga o'rgatadi.

1-masala. Ikki xonali sonlar orasidan teskarisidan(1800 ga burish) qaraganda yana son hosil bo'ladiganlarini toping (Masalan: 66, 68. Bu yerda 66 soni 99 soniga va 68 soni esa 89 soniga aylanadi).

Bu masalani yechish uchun o'quvchilar ikki xonali sonlarni yozib, aylantrib ko'rish orqali topishga harakat qilishdi. Lekin ularga bu usul ko'p vaqt talab qilishini e'tiborga o'g'riish holda bir xonali sonlar orasidan teskarisidan qaraganda yana son hosil bo'ladigan (0, 6, 8, 9) raqamlardan foydalanib topish kerakligi tushuntirildi.

Bu topshiriqni bajarish o'quvchilar uchun kombinatorika masalalarini yechishga tayyorlov bosqichi bo'lib ham xizmat qiladi, ya'ni, "4 ta raqamdan nechta 2 xonali son hosil qilish mumkin" masalasini yechish orqali yechim topiladi. Ikki xonali sonning o'nlari xonasidagi raqam 0 ga teng bo'la olmaydi. Demak biz 3 ta holni ko'rib chiqamiz, ya'ni o'nlari xonasidagi raqam 6, 8, 9 bo'lgan kombinatsiyalarni ko'ramiz:

1-hol. Ikki xonali sonning o'nlari xonasidagi raqam 6 ga teng bo'lsin. U holda quyidagicha sonlarni hosil qilish mumkin:

60, 66, 68, 69.

Bu sonlarni teskarisidan qaraganda mos ravishda 09, 99, 89, 69 sonlarini ko'rish mumkin. 09 soni ikki xonali son emas.

2-hol. Ikki xonali sonning o'nlari xonasidagi raqam 8 ga teng bo'lsin. Bunda hosil bo'lgan sonlar quyidagicha bo'ladi:

80, 86, 88, 89.

Hosil bo'lgan sonlarni teskarisidan qaraganda mos ravishda 08, 98, 88, 68 sonlari hosil bo'ladi va 08 soni ikki xonali son bo'la olmaydi.

3-hol. Ikki xonali sonning o'nlari xonasidagi raqam 9 ga teng bo'lsa quyidagicha sonlar hosil bo'ladi:

90, 96, 98, 99.

Bu sonlardan esa ularga mos holda 06, 96, 86, va 66 sonlarini ko'rish mumkin va 06 ikki xonali son emas.

Demak, masala shartiga ko'ra 66, 68, 69, 86, 88, 89, 96, 98 va 99 sonlarini teskarisidan qaraganda yana ikki xonali son hosil bo'la.

Bu masalani uyga vazifa qilib berilganda o'quvchilar o, x, z harflari o'zgarmasdan qolishi, "b" harfi "q" harfiga, "d" harfi "p"



harfiga, "bob" so'zi "qoq" so'ziga, "boq" so'zi yana "boq" so'ziga, "NON" so'zi yana "NON" so'ziga o'tishini topib kelishdi. Eng asosiyi ular sonlarni va so'zlarni topishda qaysi raqam va harflardan foydalanishni bilib oldilar.

2-masala. Birinchi xaridor ikkita qovun va beshta tarvuzga 39000 so'm, ikkinchi xaridor esa bitta qovun va ikkita tarvuzga 17000 so'm berdi. Qovun tarvuzdan necha so'm qimmat?

O'quvhilar uygaz qilish berilgan bu masalani yechimini, ya'ni qovun va tarvuz bahosini tanlash yo'li bilan kattalardan yordam so'rangan holda topishgan. Shu topilgan natijalar orqali yechim to'g'riligini ko'rsata olishadi, lekin masala yechilishini tushuntira olishmaydi. Bu masala yechimi amaliy tarzda yechib ko'rsatish orqali o'rgatildi. Buning uchun qovun va tarvuz vazifasini bajaruvchi predmetlardan (plastilin, tugma, qopqoq, konfet, ...) foydalanildi.

Amaliy yechish: Masalani 3ta o'quvchi (sotuvchi va 2 ta xaridor) yordamida amaliyotga tatbiq etiladi. Ya'ni, bunda biz yashil va sariq rangdagi qopqoqlardan tarvuz va qovun sifatida foydalanamiz. Sariq va yashil rangdagi qopqoqlarni ajratilib ikkita uyum, "qovunlar"(sariq qopqoq) va "tarvuzlar"(yashil qopqoq) hosil qilindi. Keyin 2 ta "xaridor" o'quvhilar o'zlariga kerak bo'lgan "qovun" va "tarvuz"larni ajratib olishadi. "Sotuvchi" "xaridor"larning haridi bo'yicha to'lashi kerak bo'lgan hisobni aytadi. 1-o'quvchi xaridor 5 ta tarvuz va 2 ta qovunga 39000 so'm va 2- o'quvchi xaridor 2 ta tarvuz va 1 ta qovunga 17000 so'm to'lashini bilib oladi (o'qituvchi yordamida o'quvhilar shu pullar bilan ta'minlandi). 2-o'quvchi olgan 2 ta tarvuz va 1 ta qovun uchun 17000 so'mni olgan mahsulotlari yoniga qo'yadi(sotuvchiga berdi ma'nosida). 1-o'quvchi esa olgan mahsulotlarini 2 ta tarvuz va 1 ta qovundan ikkita va 1 ta tarvuzni alohida ajratib qo'yadi. U ham 2-o'quvchi singari 2 ta tarvuz va 1 ta qovunlarning yoniga 17000 so'mdan qo'yadi. Qo'lida qolgan pulni esa bitta tarvuz yoniga qo'yidi. Shu qo'yan puli 1 ta tarvuzning puli ekanligi aniq bo'lib qoldi va o'quvchi uni sanab ko'radi. O'quvchi tarvuz 5000 so'm ekanligini bilib oladi va 2 ta tarvuzning puli 10000 so'm ekanligini bilgan holda qovunning bahosi 7000 so'm ekanligini aniqlaydi. Tarvuz va qovunning bahosini bilgan o'quvhilar ularning baholari orasidagi farq 2000 so'm ekanligini ham topishadi. O'quvchilarga masalani amaliy yechishga o'rgatilgandan keyin ifoda tuzib yechishga o'rgatilsa ularning masalani tushunishi oson bo'ladi va matematik tafakkuri yanada rivojlanadi.

Yechish:

2 ta tarvuz va 1 ta qovunning bahosi – 17000 so'm;

4 ta tarvuz va 2 ta qovunning bahosi – 2 \* 17000 so'm = 34000 so'm;

5 ta tarvuz va 2 ta qovunning bahosi – 39000 so'm;

Demak, 1 ta tarvuz bahosi 39000 so'm – 34000 so'm = 5000 so'm ekan.

2 ta tarvuz bahosi – 2\*5000 so'm = 10000 so'm;

1 ta qovun bahosi – 17000 so'm -10000 so'm = 7000 so'm.

Javob: Qovun tarvuzdan 7000 so'm - 5000 so'm = 2000 so'm qimmat.

Bu masalalarning barchasi darsga halaqt qilmagan holda uygaz vazifa ko'rinishida beriladi. Amaliy yechishga o'rgatilgandan keyin o'zlashtirish, o'quvchi malakasini oshirish uchun bir nechta masalalarni amaliy yechish va keyinchalik ifoda tuzib yechish topshiriladi.

Matematik ta'limning asosiy maqsadi matematik qobiliyatni yuzaga chiqarish va uni rivojlantirishdan iborat. Shuning uchun real dunyo hodisalarini mantiqiy, har tomonloma va ongli ravishda o'rganish zarurdir.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvhilarining asosiy dars jarayonlarini bitta o'qituvchining faoliyat ko'rsatishi, integratsiyalashgan darslar tashkil qilib, o'quvhilar bilan ishlash jarayonini turli muammoli savollar bilan tashkillashtirishi o'quvhilarning mantiqiy fikrashiga, ularning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga, intellektni rivojlantirib matematik tafakkurining shakllanishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar

1. M.X.Toxtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyarova, A.Koldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov. Pedagogika – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010.

2. M.Sh.Mamatov, K.R.Karimova. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvhilarning mantiqiy fikrashini shakllantirish, rivojlantirish va tafakkur amallarining bajarilishi //Pedagogik mahorat. № 2. 2020.

3. S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruziqulova, L.Goibova. Matematika // 3-sinf uchun darslik. – T.: Sharq. 2019.

4. N.U.Bikbayeva, E.Yangabayeva, K.M.Girfanova. Matematika // 4-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2017.

5. K.R.Karimova. Boshlang'ich sinf o'quvhilarining mantiqiy fikrashlarini rivojlantirish usullari // Mug'allim hyem uzliksz bilimlendirio'. №3, 116-123 b, 2021.

## O'SMIR YOSHIDAGI SPORTCHILAR IRODAVIY SOHASI RIVOJLANISHINING PSIXODIAGNOSTIK TAHLILI

S.S.Islamova, Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

В данной статье рассматриваются психологические характеристики силы воли, определение силы воли различными психологами, роль силы воли в спорте, психологические условия тренировки силы воли, психодиагностическая оценка силы воли спортсменов-подростков.

**Ключевые слова и понятия:** воля, волевые качества, спорт, спортсмен-подросток, успех, стремление, тренировка, тренировка, волейбол, настойчивость, ответственность, преодоление, внутренний контроль, соревновательный мотив, победа, мотивация, наказание, желание помочь.

This article discusses the psychological characteristics of willpower, the definition of willpower by various psychologists, the role of willpower in sports, the psychological conditions for training willpower, the psychodiagnostic assessment of the willpower of adolescent athletes.

**Key words and concepts:** will, volitional qualities, sport, teenage athlete, success, aspiration, training, training, volleyball, perseverance, responsibility, overcoming, internal control, competitive motive, victory, motivation, punishment, desire for help.



Ma'lumki, sportchini musobaqaga psixologik tayyorlash jarayonida uning irodasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sportchi o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari intilishida uning irodasi namoyon bo'ladi. Irodasi kuchli sportchi turli to'siqlarga duch kelsada, uni yengib o'tishga va doimo maqsad sari olg'a qadam tashlashga intildi. Irodasi sust sportchi aksincha, dastlabki qiyinchilikni og'ir qabul qiladi va bu unda salbiy emotsiyonal holatni yuzaga keltirgan holda natijaga erishish motivatsiyasini susaytiradi. Shuning uchun sport psixologiyasida sportchining irodasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, irodaviy sifatlar sportda inson harakatlarni psixofizik tartibga solishning mexanizmi sanalib, u murakkab vaziyatlarni yengish jarayonida namoyon bo'lувчи shaxs xususiyatlaridan biridir. Sportda irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi nafaqat, muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik balki, insonda shakllangan axloqiy munosabatlarning shakllanganligi bilan ham tushuntiriladi. Hozirgi kunda, o'smir sportchilarни irodaviy jihatdan tayyorlash ishlari dolzarb ahamiyat kasb etib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni talab etmoqda. M.Ya.Basov ta'kidlaganidek, sportda irodaviy mashqlantirishning psixologik usullari yetarlicha rivojlantirilgan. Bundan tashqari, maxsus adapbyotlar tahlili shuni ko'ssatdiki, psixologik va pedagogik xarakterdagi ilmiy-uslubiy asarlarda, sportchilarning irodasi, irodaviy jihatdan tayyorlash muammolariga qiziqish sezilarli darajada kamaygan [1,78].

O'smir sportchilarda o'z-o'zini ixtiyoriy tartibga solish, shuningdek, ularda birlamchi irodaviy sifatlarni rivojlantirish masalalari, sport mashg'ulotlarining dastlabki bosqichida juda muhimdir. Chunki, bu o'tish davri hisoblanib, unda insonning qiziqishlari, sohaga bo'lgan qobiliyati, motivatsiya darajasi kabilar hisobga olinishi lozim. O'smirlik yoshida irodaviy sifatlardan "qat'iyatlilik" endigina shakllanayotgan sifatlardan biri sifatida tan olinadi. Qolaversa, bunday xulosalar ko'plab yetuk psixologlar tomonidan e'tirof etilgan. Shu bois, sport bilan shug'ullanuvchi yoshlarda qat'iyatlilikni shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir.

L.V.Marishukning aniqlashicha, agarda, o'smir sportchilarning o'zi qat'iyat bilan maqsadga erishishga intilmasa, unda murabbib yah ham hyech qanday yordam bera olmaydi [2,66]. Quyida o'smir yosh sportchilar uchun ziar sanagan irodaviy sifatlarning turiga va ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi ayrim psixologik omillar haqida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. Bundan tashqari, maqsadga intilish o'z ishiga bo'lgan ishtiyoq bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, qat'iylikni nafaqat insonning irodasi, balki uning qiziqishlari, bajarilayotgan faoliyatning hissiy mazmundorligi kabilar ham qo'llab-quvvatlaydi. Tajribalar shuni ko'ssatdiki, har doim uzoq maqsadga erishishda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Ya'ni, charchoq, to'yinganlik, muvaffaqiyatizlikka uchraganda vazifalardan ko'ngil qolishi va hokazo. Bizningcha, keltirib o'tilgan sifatlar faqatgina irodaviy sifatlar orqali bartaraf etiladigan qiyinchiliklar sanaladi.

Sportdag'i sub'ektiv qiyinchiliklar ko'pincha, salbiy histuyg'ularda namoyon bo'ladi. Ya'ni, dushmanidan qo'rqish, shikastlanishdan qo'rqish, yutqizib quyishdan qo'rqish va hokazo. Ob'ektiv qiyinchiliklar sifatida esa, sport faoliyatining umumiyl va o'ziga xos shart-sharoitlari tushuntiriladi. Ya'ni, belgilangan rejimga rioya qilish, ko'plab musobaqlarda qatnashish, noqulay ob-havo va boshqalar. Hozirgi vaqtida, iroda psixologiyasida quyidagilarni asosiy xususiyatlar sifatida ko'rib chiqish odat tusiga kirgan. Asosiy sifatlarga tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, mustaqillik, chidamlilik va o'zini tuta bilish, diqqatlilik, fidoiylik va boshqalar kiritiladi. S.K.Bagadirova boshqalardan farqli o'laroq, sportchilarning qaysi sport turi bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, ular o'rtasida ixtiyoriy faoliyat uslubini o'rgangan. Muallif irodanining asosiy vazifalariga mos keladigan, irodaviy faoliyatning har xil uslublarini aniqladi [3,58]:

- rag'batalntirish;
- tartibga solish;
- cheklash va hokazo.

V.T.Malkinga ko'ra esa, o'smir sportchilarda irodaviy sifatlarning

shakllanishi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, uni quyidagi ketma-ketlik asosida tushuntirish maqsadga muvoifiqdir [4,341]:

– Dinamik jismoniy fazilatlar - kuch, tezlik, reaksiya tezligi kabi sifatlar birinchi bo'lib shakllanadi;

– Katta va uzoq yutuqlarga javob beruvchi irodaviy sifatlar – qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyati, chidamlilik, qat'iyatlilik, murakkab va nozik harakatlarga javob beruvchi sifatlar – konsentratsiya, diqqatni jamlay olish, o'zini o'zi faollashtira olish va hokazo. O'smirlik yoshida irodaviy sifatlarning shakllanishi intensiv kechib, keyinchalik mustahkmlana boradi. O'smir sportchilarda ixtiyoriy harakatlarning shakllanishida jamoadoshlarining ham roli yuqori sanaladi. Chunki, tengdoshlar tomonidan berilgan tanbehtar, qo'rkoqlik, dangasalik, yalqovlik, manmanlik, o'ziga bino qo'yish kabilar bunga yaqqol misoldir. Shu orqali o'smir qat'iyatlari bo'lishga, boshqalardan orqada qolmaslikka, yetakchilikni qo'lga olishga, namunali va muvaffaqiyatli jamoadoshlariga intilishga harakat qiladi. Bundan tashqari, ushbu jadval orqali faktorlar o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rishimiz mumkin.

#### **Yengib o'tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish muvaffaqiyatsizlikdan qochish so'rovnomalari faktorli analiz ko'rsatkichlari**

Shkalalar	Faktorlar			
	1	2	3	4
Irodaviy matonat	0,643		0,538	0,566
Vaziyatni yengib o'tish		0,637		
Oqilona harakat		0,594	0,554	
Jur'atsizlik	0,589	0,567	0,646	
Nazorat				0,738
Kechimlar namoyishi	0,732		0,518	
Madad istagi	0,724	0,485	0,652	
Muvaffaqiyatga erishish	0,743			
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	0,670			0,562

Umuman olganda, o'smir yoshdag'i basketbolchi sportchilarda irodaviy sifatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillariga doir tadqiqotimizga aniqlik kiritish davomida, shaxsnинг hayoti davomida murakkab vazifalarni bajarishda irodaviy sifatlarni shakllantirish eng asosiy jarayonlardan biri sanaladi. Sinaluvchilar natijalar faktorli analiz bo'yicha ko'rsatkichlar 4 ta faktorga birlashganligi namoyon bo'ldi.

Amalga oshirilgan empirik tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin. Birinchi shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: irodaviy matonat, jur'atsizlik, kechinmalar namoyishi, madad istagi, muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish kabi natijalar bilan o'zaro farqlangan. Ikkinci shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: vaziyatni yengib o'tish, oqilona harakat, jur'atsizlik va madad istagi kabi natija bilan alohida tavsiflangan. Uchinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: irodaviy matonat, oqilona harakat, jur'atsizlik, kechinmalar namoyishi va madad istagi kabi daraja bilan alohida xarakterlangan. To'rtinchi shkalani tashkil qilgan psixologik birliklar: irodaviy matonat, nazorat va muvaffaqiyatsizlikdan qochish kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turganligini qayd qilish mumkin.

#### **Adabiyotlar**

1. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной психологии. Методика психологических наблюдений за детьми. – М.: 2008.

2. Маринец Л.В. Психология спорта: учеб. пособие. – Минск: БГУФК, 2006.

3. Багадирова С.К. Материалы к курсу «Спортивная психология»: учебное пособие / С.К.Багадирова. – Майкоп: Изд-во «Магарин О.Г.». 2014.

4. Малкин В.Т. Спортивная психология: взгляд в XXI век / В.Малкин, Л.Рогалева // Человек в мире спорта: Новые идеи, технологии, перспективы: тез. докл. Междунар. конгр. – М.: 1998. – Т. 2.



# PROKURATURA SOHASIDA KADRLAR ZAXIRASI BILAN ISHLASH TIZIMINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

E.N.Sattarov, Bosh prokuratura akademiyasi bo‘lim boshlig‘i, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

В статье рассматривается вопрос формирования резерва управленических кадров.

**Ключевые слова и понятия:** резерв кадров, должность, формирование, личностные качества, лидерские качества, комплексный подход, коллектив.

The article deals with the issue of forming a reserve of managerial personnel.

**Key words and concepts:** personnel reserve, position, formation, personal qualities, leadership qualities, integrated approach, team.

Hozirgi kunda dunyodagi taraqqiy etgan davlatlar tajribasi boshqaruv tizimi faoliyati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolini belgilab beruvchi bazaviy omillardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Boshqaruv tizimi samaradorligiga erishishda boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish yetakchi bosqichlardan biri bo‘lib, bunda tizimni takomillashtirishga ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan: kadrlar zaxirasiga nomzodlarning shaxsiy sifatlarini, liderlik, professional, ekstremal kompetensiyalari shakllanganligini baholash imkoniyati nuqtai nazaridan qarash muhim hisoblanadi. Ayniqsa qonunlar ijrosi bilan bog‘liq ijtimoiy kayfiyatga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatuvchi sohalardan biri bo‘lgan prokuratura sohasida rahbar kadrlar bilan ishlashda muhim zveno hisoblangan kadrlar zaxirasini shakllantirish tizimini ijtimoiy psixologik jihatdan takomillashtirish masalalasini tadqiq etish shu kunda eng muhim masalalardan bo‘lib turibdi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishda yaxlit tizimni ishlab chiqish va zaxirani shakllantirishga kompleks yondashuv talab qilinadiki, bunda quydagi yo‘nalishlar bo‘yicha ish olib borilishi kerak:

1. Turli xil siyosiy texnologiyalarning rivojlanishini va ularning jamiyatning turli qatlamlari ongiga ta’sirini prognoz qilish; davlat xizmatchisini psixologik tayyorlashning mazmuniga bo‘lgan zamoniaviy talablarni hisobga olish;

2. Monitoring nazorati;

3. “Boshqaruv qarorlari qabul qilish texnologiyalari”, “Muvaffaqiyatli rahbar uslubini shakllantirish strategiyasi” dasturiy-maqsadli treninglar, “Verbal muloqot darajalar”, “Qanday qilib muvaffaqiyatli karerani qurish mumkin” va boshqa individual maslahatlar.

4. “Davlat xizmatchilarining psixologik savodxonligi” dasturi bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tish.

Rahbarlik lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda ko‘pincha birinchi o‘ringa nomzodning shaxsiy, eng avvalo liderlik xarakteristikalari chiqadi. Liderlik mavzusi butun dunyoda juda mashhur bo‘lib bormoqda. Ammo muvaffaqiyatli ish jarayonini tashkil qilish uchun mehnat jamoasining strukturasini bilishning o‘zi kamlik qiladi, xodimlarni ishga olish va har bittasiga konkret ish maydonini belgilab berish yetarli emas. Tashkilot xodimlari yagona jamoa bo‘lishlari kerak. Bu tushunarli holat: kompaniyalarning ko‘philigi o‘z faoliyatlarining samaradorligi va muvaffaqiyatliliqi ularning liderlik salohiyati qanchalik kuchli ekanligiga bog‘liq ekanligini angloqdalar.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishga psixologik yondashuv shundan iboratki, nomzodlarni tanlash va tayyorlash natijasida ular nafaqat kasbiy muhim malakalarini, balki samarali kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor postulatlarini ham o‘zlashtiradilar. Bunday postulat - qoidalarga misol quydagilar bo‘lishi mumkin [1]:

1. Uzoq va yaqin maqsad va vazifalarni qo‘yish, istiqbolni qarab chiqish.

2. Tajribani tahlil qilish malakalarini optimallashtirish, xulq-

atvorning muvaffaqiyatli modellarini qo‘llash, muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qilish va qayta ishslashda konstruktivlik.

3. Bitta psixologik holatdan boshqasiga tezkorlik bilan o‘tish malakasi (vaziyatga bog‘liq ravishda).

4. Favqulodda vaziyatlarda ishonchni va o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni saqlash.

5. O‘zini chetdan turib kuzatish ko‘nikmasi, o‘zining psixoemotsional holatini va xulq-atvori doimiy korreksiya qilish.

6. Psixologik bosimlar va manipulyasiyalarga qarshi tura olish ko‘nikmalari, yuzaga kelgan vaziyatlarga o‘zining negativ reaksiyasini vaqtida oldini olish ko‘nikmasi.

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar ishlashi sharoitida kadrlar zaxirasini tayyorlashning amaliy ahamiyatli natijalariga quydagilar kiritiladi: xodimlar kadrlar zaxirasini sifatli o‘qitish; kasbiy tajribani yetkazib berish; ijtimoiy-kasbiy moslashuv, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda tashkilotni, korxonani, bo‘limmani boshqarish.

O‘qitishning asosiy natijasi mutaxassislarni tayyorlashda: savodli, chuqur o‘ylanilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, samarali boshqaruv menejmenti kabi yakuniy natijaga erishishdan iborat [2].

Kadrlar zaxirasini tayyorlashda yana bir muhim psixologik-pedagogik yondashuv - bu lavozimda o‘sishni hamrohlik qilib olib borish bo‘lib, u individual karera uslubini diagnostika qilish va shu asosda karerada o‘sishda o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini kiritish asosida karerada o‘sishning individual professiogrammalarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda zaxirani kasbiy qayta tayyorlashning turli xil tizimlarida davlat xizmatchisi kasbiy faoliyatini psixologik hamrohlik qilib olib borishning turli xil modellari taklif qilinmoqda. Hamrohlik qilib olib borishning eng ommaviylashgan instrumentlariga guruhiy va individual psixologik konsultatsiyalarni kiritish mumkin.

Kadrlar zaxirasi tayyorlov (o‘qish)dan o‘tgandan keyin ma’lum bir shakllangan rahbar modelini tavsija qilish mumkin bo‘ladi.

Bunda kadrlar zaxirasi tarkibiga nomzodlarni tanlab olishda quydagilar asosiy mezonlar bo‘lib xizmat qiladi:

- 1) yuqori kasbiy kompetentlik;
- 2) boshqaruv ishi bo‘yicha yetarlicha tajribaning mavjudligi;
- 3) tashkilotchilik, ishchanlik va shaxsiy sifatlar;
- 4) ijodiy innovatsion faoliyatga motivatsiyalash;
- 5) ijtimoiy-psixologik yetuklikning aniq ifodalangan belgilari;
- 6) xodimming kadrlar zaxirasiga kiritilishga roziligi [3].

Kadrlar zaxirasi tarkibiga nomzodlarni tanlash quydagi talablarga binoan amalga oshiriladi:

- 1) kasbiy kompetentlik: taalluqli ma’lumotga egalik, ish profil bo‘yicha tajriba. Bilim, ko‘nikma, malakalar, informatsiyalarni va hujjatlarni tahlil qilish qobiliyati, asosli qarorlarni qabul qilish va ularning ijrosiga erishish qobiliyati, ish madaniyati, savodlilik, professional darajasini muntazam oshirish, lavozim pog‘onalarida o‘sishga bo‘lgan yo‘nalganlik;



2) tashkilotchilik qobiliyatları: xodimlarni boshqarish, ularning faoliyatini koordinatsiya va nazorat qilish ko'nikmalari, boshqaruvning zamonaviy metodlari va texnikasini o'zlashtirganlik, lavozim vazifalari doirasida vakolatlarni amalga oshirish qobiliyatı, tashabbuskorlik;

3) mas'uliyatlilik: o'ziga va xodimlariga yuqori talabchanlik, so'zining ustidan chiquvchanlik, o'z ishiga va jamoa ishiga ob'ektiv tanqidiy baho berish;

4) axloqiy sifatlar: vijdonlilik, mehnatsevarlik, ob'ektivlik, ijtimoiy-psixologik va axloqiy yetuklik, xodimlar bilan muloqotda xayriyohlik, kommunikativ qobiliyatlar, xushmuomulalik, insofililik, atrofdagilarga e'tiborlilik.

Bunday tashqari, kadrlar zaxirasini tarkibiga, odatda, intizomli va ijro etuvchi, tashabbuskor va maqsadga intiluvchan, obro'ga ega va odamlar bilan ishlay oladigan xodimlar ham kiritiladi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishning psixologik jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin [4]:

1) ta'lim – bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda yordam berish;

2) tarbiya – shaxsnинг ma'naviy-axloqiy shakllanishiga yordam berish;

3) psixodiagnostika – o'z-o'zini bilishda va kasbiy ta'lim berish va qayta o'qitishni individuallashtirishda yordam berish;

4) psixoprofilaktika – surunkali stressning, shaxsiy xavotirlanishning, xizmat lavozimida o'sish istiqboli to'g'risida fikrning, ichki nostabillikning, nostandard vaziyatlarda boshqaruv vaziyatlarini yechishga tayyor emaslikning paydo bo'lishi va rivojlanishini oldini olishda yordam berish;

5) psixologik trening – psixotexnik mashqlar, o'yinlarning maxsus ishlab chiqilgan komplekslari.

Maxsus o'tkazgan tadqiqotimizda prokuratura tizimida kadrlar zaxirasi bilan ishlashni ijtimoiy-psixologik takomillashuviga erishishda muhim zveno bo'lgan psixologik hamrohlik qilib borishni prokuratura rahbar kadrlari zaxirasiga nomzodlarning professional rivojlanishiga inson rivojlanishining yashirin imkoniyatlarini izlashda, uning shaxsiy imkoniyatlariga tayangan holda tashqi olam bilan aloqalarini qayta tiklash uchun psixologik sharoitlar yaratishda ifodalananvchi psixologik hamrohlik qilib borish [5; 6] tarzida tashkil qildik. Bunda quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanish muhim ekanligiga asosiy urg'u berildi:

1. Professional tanlovning keyingi professional rivojlanishga o'zlarining yuqori darajadagi qiziqishlarini namoyon etgan barcha ishtirokchilar, professional rivojlanishning individual rejasi asosida psixologik hamrohlik olib borish huquqiga egalar.

2. Professional tanlov natijalariga ko'ra barcha ishtirokchilar 4 ta guruhg'a taqsimlanadilar. Bunday bo'lishning asosi – professional kompetensiyalar darajasi va professional rivojlanish potensiali.

3. Har bir turu uchun professional rivojlanishning individual rejaga kiritilgan o'z vazifalari belgilangan.

4. Kadrlar zaxirasiga professional tanlovda ishtirok etgan mutaxassisning professional rivojlanishini psixologik hamrohlik qilib olib borish individual rejaga bilan moslashtiriladi.

5. Mutaxassisning professional rivojlanishini psixologik hamrohlik qilib olib borishning muvaffaqiyatliligi va samaradorligi ko'rsatkichi bo'lib uning rivojlanishi manfaatlarning O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatini rivojlanishi strategik manfaatlari bilan moslashtirilganligi hisoblanadi.

Kadrlar zaxirasiga tanlovda ishtirok etgan mutaxassislarni psixologik hamrohlik qilib olib borish dasturini ishlab chiqishda asosiy e'tibor professional rivojlanishning individual rejalarini ishlab chiqishga qaratildi. Rejalar professional kompetensiyalarning mavjud darajasidan va professional diagnostika davomida aniqlangan yaqin kelajakdag'i professional rivojlanish zonasini (professional rivojlanish potensiali) dan kelib chiqqan holda ishlandi.

Maxsus psixodiagnostik tanlov asosida shakllantirilgan rahbar kadrlar zaxirasiga nomzodlar guruhlari uchun mutaxassislarda mavjud professional kompetensiyalarni yaxshilashga imkoniyat berishga yo'naltirilgan rivojlanish individual rejalarini ishlab chiqildi.

Bunday ilmiy asoslangan yondashuv, bir tomondan, prokurorlik xizmatining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan manfaatdorligi va avlodlar izchilligi bilan muvofiqlikka, ikkinchi tomondan, turli darajadagi tayyorgarlikka va rivojlanishga nisbatan turli xil potensial (salohiyat)ga ega xodimlarning professional manfaatlari o'rtaida muvofiqlikka olib keladi. Bu esa ham shaxsning o'z professional faoliyatidan qoniqish olishiga va samarali ishlashiga, ham davlatning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishiga olib keladi.

#### Adabiyotlar

1. Сантарайнен Т., Поренне П. Управление по результатам. – М.: Политиздат, 2013.

2. Чернова Е. Повышение мотивации труда государственных служащих // Кадровик. Трудовое право для кадровика, 2011. – №3.

3. Формирование и организация работы с кадровым резервом в производственных подразделениях «Прогресстех». IN 3.2.10 РТ. Редакция 1. 2010.

4. Черепанов В.В. Основы государственной службы и кадровой политики: Учебник для студентов ВУЗов. – М.: Юнити, 2008.

5. Мамайчук И.И. Помощь психолога детям с аутизмом. – СПб.: Речь, 2007.

6. Шапарь В.Б. Практическая психология. Психодиагностика отношений между родителями и детьми: психологический факультет: Феникс. – 2006.

## O'SMIR YOSHLARDA HUQUQIY MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

N.Eshonqulov, Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Данная статья носит научно-исследовательский характер, в ней затрагивается серьезная и актуальная проблема, т.е. формирование правоотношений у молодежи, повышение правовой грамотности, что является одним из приоритетных направлений на сегодняшний день.

**Ключевые слова и понятия:** юридические факты, юридические действия, субъекты правоотношений, виды правоотношений, правовая культура, юридическая грамотность.

This article is of a research nature, it addresses a serious and urgent problem, i.e. formation of legal relations among young people, increasing legal literacy, which is one of the priority areas today.

**Keywords and concepts:** legal facts, legal actions, subjects of legal relations, types of legal relations, legal culture, legal literacy.



Mamlakatimizdagi davlat va jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi huquqiy munosabatlarda barcha ishtirokchilarning huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlhma oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi. Huquqiy savodxonlikka erishishni ta'minlash borasidagi barcha harakatlar ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'z ifodasini topmoqda, deyish mumkin. Ammo bu jarayonni yana samarali kechishida ta'lim-tarbiya muhitidagi huquqiy bilimlarni o'zlashtirish savodxonlik darajasini ta'minlashga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik qonuniyatlarga tayanishga zarurat sezadi.

shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir. O'spirinno o'qitish jarayonida yoshiga ham e'tibor berish ijtimoiy turmushda foydadan xoli emas, chunki huquqiy bilim va tushunchalarni o'zida mujassamlashtirsa u kishining ruhiy holatiga kuchli ta'sir etadi hatto larzaga keltiradi [1].

“Huquqiy munosabatlar” tushunchasi yuzasidan amaliy mashg‘ulot mavzusini amalga oshirish metodikasi quyida keltirib o‘tiladi. Mavzu bo‘yicha huquqiy munosabat tushunchalar shajarasи о‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot vaqtida ishlab chiqqan sxemalaridan faoliyat natijalarini biridir. Ushbu holatga о‘quvchilarning huquqiy munosabatlarga doir yuridik tushunchalarini tavsiflashning о‘ziga xos ko‘rinishi sifatida qarash mumkin. Bundan tashqari, biz о‘quvchilarda huquqiy tushunchalarini shakllantirishga doir tadqiqotlarni yana bir holatini alohida tahlil qilib o‘tamiz. Ushbu yo‘nalishdagi izlanish quyidagi tahillarda o‘z aksini topgan. Tajriba-sinovni tashkil etishda quyidagi tartibda ish yuritildi.

Birinchi guruh tajriba-sinov va ikkinchisi esa nazorat guruhi. Tajriba-sinov guruhi o'quvchilar loyihalashhtirilgan amaliy mashg'ulot rejasi bo'yicha nazorat guruhi esa an'anaviy tarzda mashg'ulot olib borishga tayanadi.

Loyihalashtirilgan o'quv mashg'ulotini amalga oshirishning birinchi va ikkinchi bosqichida fan o'qituvchisi yetakchilikni o'z zimmasiga olgan holda o'quvchilarga huquqiy munosabatlar tushunchasini ta'riflash, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishimi belgilovchi omillar, yuridik faktlar, yuridik harakatlar, huquqiy munosabat sub'ektlari, huquqiy munosabat turlari haqida nazariy tushunchalar berildi.


Mashg'ulotning uchinchi va to'rtinchisini bosqichida esa o'quvchilarning guruhlarda ishlashlari va guruhiy ish natijalari taqdim etildi. O'quv mashg'ulotini yakunida esa o'quvchilarda huquqiy tushunchalarining shakllanganligi va o'z navbatida nazorat guruhida o'quvchilarning an'anaviy mashg'ulotdagi faoliyati baholash mezonlari bo'yicha baholandı.

O'quvchilarda huquqiy tushunchalarni shakllantrish bo'yicha tashkil etilgan mashg'ulotlarning natijalarini baholash bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinovda ta'lim sub'ektlarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomiga asoslangan holda baholash amalga oshirildi. Bu esa har bir tashkil etilgan mashg'ulot bo'yicha o'quvchilarda yuridik tushunchalarni shakllanganlik darajasini baholash imkoniyatini beradi [2].

Tajriba-sinov qatnashchilarida huquqiy tushunchalarini shakllanganlik holati tajriba va nazorat guruhlari faoliyatini o'rganishga asosanib amalga oshirildi. Yakuniy bosqichda o'spirinlarda "Huquqiy munosabatlar" to'g'risidagi tushunchalarining shakllanganligi yuzasidan taqdimot materiallari ko'zdan kechirilganida bir-biridan farq qiluvchi holatlar kuzatiladi. Taqdimotlar orasida o'quvchilarda huquqiy tushunchalar shakllanganligini xarakterlovchi eng yaxshi taqdimot materiali sifati huquqiy tushunchalarni klasterlashga erishgan guruh a'zolari faoliyati ijobjiy ko'rsatkichga ega, degan xulosaga olib keladi. Huquqiy munosabat tushunchalarini shakllantirilgan holatini nazorat qilishga alohida matematik modelga tayanish yoki tajriba-sinov va nazorat guruhlari natijalari o'tasidagi munosabatni aniqlash orqali ham erishiladi.

Bu holat “Jamiyat, davlat va huquq” mavzulari misolidagi tajriba-sinov natijalari bo'yicha tahlil qilindi.

O'quchilarни loyihlashtirilgan mashg'oltlar davomida huquqiy tushunchalarini o'zlashtirish ko'rsatkichlarida tajriba-sinov va nazorat guruh qtnashchilarda statistik mijorlar bo'yicha tafovut kuzatildi. Jamiyat va davlat tushunchalarini ta'riflash, ular o'rtasidagi bog'iqlik va farqarni ifodalashda-4,12 ball va nazorat guruh-3,36 ball; "davlat funksiyalari" bo'yicha-4,04 va 3,28 ball; "davlat boshqruv shakli"



O'spirinlik davrida huquqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish biron bir ijtimoiy guruhda o'z o'mini topish uning uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etmasin shunga qaramasdan bu ontogenetik bosqichidan eng rivojlangan his bu shaxs bo'lib hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha yoshlarda o'zligini anglash bir xil emas ekan chunki bu turdag'i ko'rinish ijtimoiy-madaniy huquqiy bilim va tushunchalarni shakllanganligi aqlli-jiodiy

## O'quvchilarning "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusi bo'yicha huquqiy tushunchalarini shakllanganlik darajasi ko'satkichlari

№	Tushunchalar	Guruhalar	O'zlashtirish ko'rsatkichi (bahol)		t
			X	σ	
1	Jamiyat va davlat	Tajriba-sinov	4,12	0,78	3,61**
		Nazorat	3,36	0,86	
2	Davlat funksiyalari	Tajriba-sinov	4,04	0,78	2,78*
		Nazorat	3,28	0,89	
3	Davlat boshqruv shakli	Tajriba-sinov	4,04	0,78	3,26**
		Nazorat	3,24	0,87	
4	Davlatning tuzilish shakli	Tajriba-sinov	4,12	0,78	3,57**
		Nazorat	3,32	0,80	
5	Siyosiy tartibi	Tajriba-sinov	4,00	0,81	3,57**
		Nazorat	3,04	0,73	
6	Davlat boshqruvida foydalilanligidan hqgy-me'yoriy hijatlar	Tajriba-sinov	3,68	0,55	3,97***
		Nazorat	2,96	0,84	
	Natijalarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi	Tajriba-sinov	3,72	0,37	5,23***
		Nazorat	3,20	0,39	

\*\* $r \leq .01$ , \*\*\* $p \leq .001$



bo'yicha-4,04 va 3,24 ball; "davlat tuzilish shakli" bo'yicha-4,14 va 3,32 ball; "siyosiy tartibi"ga doir tushunchalar bo'yicha-4 va 3,04 ball; "davlat boshqruvida foydalilaniladigan hqqy-me'yoriy hijatlar" bo'yicha-3,68 va 2,96 ball; umumiy o'rtacha bah ko'rsatkichi esa 3,72 va 3,20 balldan iborat. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha natijalar o'rtasida ishonchhlilik farqari kuzatildi (jadval). Agar ular natijalarining mavzular bo'yicha koeffitsientini aniqaganda qyidagicha ko'rinish oldi:

$$R_{MT} = \frac{\Phi_{M1} + \Phi_{M2} + \Phi_{M3} + \Phi_{M4} + \Phi_{M5} + \Phi_{M6}}{6} = \frac{4,12 + 4,04 + 4,04 + 4,12 + 4 + 3,68}{6}$$

$$R_{MT} = \frac{\Phi_{M1} + \Phi_{M2} + \Phi_{M3} + \Phi_{M4} + \Phi_{M5} + \Phi_{M6}}{6} = \frac{4,12 + 4,04 + 4,04 + 4,12 + 4 + 3,68}{6} = 3,72 \approx 4;$$

Nazorat guruh o'qvhilar esa:

$$R_{MH} = \frac{\Phi_{M1} + \Phi_{M2} + \Phi_{M3} + \Phi_{M4} + \Phi_{M5} + \Phi_{M6}}{6} = \frac{3,36 + 3,28 + 3,24 + 3,32 + 3,04 + 2,96}{6}$$

$$R_{MH} = \frac{\Phi_{M1} + \Phi_{M2} + \Phi_{M3} + \Phi_{M4} + \Phi_{M5} + \Phi_{M6}}{6} = \frac{3,36 + 3,28 + 3,24 + 3,32 + 3,04 + 2,96}{6} = 3,20$$

Bu esa huquqiy tushunchalarni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlarga ko'ra, tajriba-sinov guruh (74,4%) va nazorat guruh (64%) o'qvhilarining tushunchalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari samaradorligi 10,4 % ni tashkil etadi.

Hqqiy ta'lism o'qvhilarning kelajakda fuqrolik yoki kasbiy faoliyatining uzviy bir bo'g'ni uchun zaruriy bo'lgan bilimlarni boshlang'ch darajasini o'zida aks ettirganligi sababli ham huquqiy

muammolarni hl etishning muhm sharti hsoblanadi. Xuddi shu sababli hm uning dolzarbligi bir jihtdan uzluksiz ta'lism tizimining hr bir bosqchida e'tiborga olinganligi bilan bog'iqr. Uzluksiz ta'lism boshlang'ch bo'g'nlaridayoq "Konstitutsiya alifbosi", "Davlat va huquqa soslari", "Huquqshunoslik", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" singari fanlarni o'qtishi uzluksiz tashkil etilgan.

Huquqiy bilim va tasavvurlar ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib, fuqrolarning ongidan o'r'in olib odamlar xulq-atvoriga psixologik ta'sir etadi. Jamiyat qbul qlgan qunun qidalar doirasiga faoliyat ko'rsatishga undaydi. Shunday ekan hqqiy savodxonlikka erishishni ta'minlash borasidagi barcha harakatlar ta'lism tizimining barcha bo'g'nlarida o'z ifodasini topmoqa deyish mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Shoumarov G.B. Voyaga yetmagan jinoyatchilar bilan ishslashning psixologik masalalari. Ta'lism tizimi – psixologik xizmat. Muammolar yechimlar. – T.: 2002.

2. Jo'raev B. O'qvhilarda yuridik tushunchalar shakllanishining psixologik jihatlar. O'z Resp. Fan nashriyoti. 2014. – T.

3. www.goog.uz

4. www.psixo.ru

## YOSHLARDA YUKSAK INSONIY HISLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

**Ch.Orziqulova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, "Ijtimoiy fanlar" fakulteti psixologiya yo'nalishi 1- bosqich magistranti, Xalq ta'limi a'lochisi**

В статье описаны социально-психологические факторы формирования высоких человеческих чувств у молодежи.

**Ключевые слова и понятия:** образование, воспитание, молодежь, человеческие чувства, формирование.

The article describes the socio-psychological factors in the formation of high human feelings among young people.

**Key words and concepts:** education, upbringing, youth, human feelings, formation.

Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida katta sa'y-harakatlarni amalga oshirayotgan davlatimiz rahbari asosiy e'tiborni yoshlarning ta'lism va tarbiyasiga qaratish ekan, agar tarbiya mukammal bo'lsa, yoshlarda yuksak insoniy hislar maromida shakllansa, ta'lism o'z-o'zidan yuksalishiga shubha yo'q, degan g'oya asosida yoshlarning kelajagiga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Buning uchun avvalo yuksak hislarni o'zida mujassam etgan pedagog o'qituvchilarni tayyorlash va mutazam malakalarini oshirib borish maqsadga muvoqifdir.

Dunyo miqyosidagi sport va fan olimpiadalarida O'zbekiston bayrog'ini yuqori cho'qqilarga ko'tarayotgan yoshlarnimiz o'zlarining yo'nalishlaridan tashqari ma'naviy va ma'rifiy jihatdan yuksak hislarni ham butun dunyoga ko'z-ko'z qilib, milliy g'ururimizga g'urur qo'shamoqdalar. Mamlakatimiz hududida esa ko'plab yoshlarni o'zlarining tashabbuslari bilan bunyodkorlik ishlarni amalga oshirib, xalqimiz farovonligi yo'lida o'z fidoiyliklarini namoyon etmoqdalar. Ana shunday yoshlarnizning safari yanada kengayishi uchun, ularda farovonlik va fidoiylik hislarni yanada takomillashtirish yangilanayotgan O'zbekistonning asosiy tayanchi hisoblanadi. Mazkur jarayonni muvaffaqiyatlari amalga oshirish uchun esa yoshlarda farovonlik va fidoiylik hislarni to'g'ri anglab yetishlari uchun ilmiy asosda yuksak insoniy hislarni ularga sindirish lozim.

Psixologiya fanlari doktori professor E.G.'G'oziyev tariflaganlaridek, "Farovonlikka intilish har bir shaxs o'z oldiga qo'ygan qat'iy va aniq maqsadidan boshlanadi. Maqsad o'z navbatida ehtiyoj asosida yuzaga kelib, shaxsni reja asosida harakat qilishga undovchi ong oldi faoliyatining komponenti hisoblanadi. Shaxsni farovonlikka yetishishi uchun maqsadni o'z imkoniyatdan kelib chiqqan holda to'g'ri qo'yish muvaffaqiyatga erishishning dastlabki

qadami hisoblanadi".

Yuqorida farovonlikka intilishning ta'rifida dastlabki urg'u maqsadga berilyapti. O'quvchida maqsadning qat'iy va aniq bo'lishi uning to'g'ri kasb tanlab, jamiyatda foydali shaxsga aylanishi uchun pedagog o'qituvchi o'quvchining layoqati va qobiliyatini to'g'ri baholay olishi va uni yo'naltira olishi lozim bo'ladi. Mazkur holatda o'quvchiga to'g'ri yo'nalish berish uchun pedagog o'z navbatida o'quvchi oilasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi lozim. Maqsadning amalga oshishi esa o'z navbatida o'quvchida moddiy ehtiyoj emas, balki ma'naviy ehtiyojni birinchi o'ringa olib chiqish orqali kasbga nisbatan fidoiylik va uning ta'sirida farovonlik hisini shakllantirishga qo'yilgan katta qadamlardan biri hisoblanadi. Mazkur ildam qadamlarni aniq reja asosida amalga oshirish esa o'z navbatida o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni orttirib, harakatlaridagi aniqliklarni yuzaga chiqaradi. Ushbu harakatning muvaffaqiyati o'quvchi tomonidan ong oldida bilvosita va bevosita umumlashgan holda aks ettirishi bilan uyg'unlashib ketadi.

Bilvosita aks ettirish deganda yoshlarning yuksak insoniy hislar bilan bilimlarni boyitish, unda asosan milliy va umumbashariy qadryatlargacha urg'u berish yoshlarning tasavvuri hamda mantiqiy tafakkuri mahsuldarligini oshirishga hizmat qiladi.

Bevosita aks ettirish orqali esa, yoshlarning egallagan bilimlarini amaliy hayotda qo'llashlari orqali fidoiylik va farovonlik hislarni to'g'ri yo'naltirishlariga imkoniyat ochadi.

Umumlashtirish asosida esa yoshlarni o'zlashtirgan bilim va tajribalarini ong ostida aks ettirib, yangi va yangi maqsadlar sari intilishga harakat qiladilar.

E.G.'G'oziyev farovonlikka intilishda ong oldi aks ettirishning mohiyatini bilvosita va bevosita hamda umumlashtirish orqali



izohlashga harakat qildi. Demak, yoshlarda ong oldi faoliyatini takomillashtirish va mulohaza qilishni shakllantirish asosida shaxsiy farovonlikka tayaniň ijtimoiy farovonlikka intilish yuzaga kelar ekan. Shuning uchun har bir o'quvchiga o'zining mehnati orqali shaxsiy farovonligini yaratish bilan bir qatorda o'zi yashab turgan hudud farovonligiga hissa qo'shishni singdirish qanchalik muhimligini har bir pedagog anglab yetishi kerak bo'ladi.

Shaxsiy farovonlik tushunchasini yoshlarga singdirishda shaxsnинг o'z faoliyatidan qoniqishi hamda mammun bo'lishi mexanizmi imkoniyatga bog'liqligini hamda ana shu imkoniyat yoshlarga yaratib berilayotganligini davlatimiz rahbariyati faoliyati orqali yuzaga chiqayotganligini asoslash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki yakka shaxs shaxsiy farovonlikka erishishi mumkin, qachonki u jamiyatga ma'lum darajada manfaati tekkandagina.

Yoshlarda shaxsiy farovonlikka intilish tushunchasini to'g'ri shakllantirish uchun ikki asosiy omilga urg'u berilishi lozim ekan. Bular qat'iy aniq maqsad va yaratilgan yoki o'zi tomonidan yuzaga keltiriladigan imkoniyatlardir. O'quvchi maqsad va imkoniyatdan to'g'ri foydalansa, u o'zini baxtli hisoblaydi.

Psixolog I.Argayl mulohazasicha, baxt bu: a) umuman, turmushdan qoniqish kechinmasi, inson tomonidan o'tmishi va hozirning umumereflektor bahosi; b) ijobjiy his-tuyg'ularning chastotasi va jadalligi (intensivligi)dir.

E.G'.G'oziev tarifida esa individual-psixologik baxt borliqdan va turmushdan qoniqish kechinmalari sifatida namoyon bo'ladi. Farovonlikning ob'ektiv va sub'ektiv fenomenida (noyob jihatida) ikki xil shartlanganlik bilan tavsiflanadi:

- a) inson turmush sharoitlari, ruhiy holatlari bilan bog'liqligi ob'ektiv borliq taqozosi;
- b) inson ruhiyatini, hayotini idrok qilishi, unga munosabati, ularning ma'naviy qabul etishga aloqador sub'ektiv kechinmalar majmuasi

ekanligi.

Yuqoridagi har ikki ta'rifdan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, har bir pedagog yoshlarning ongiga baxtli bolalik imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda baxtga erishishi va uning asosida farovon turmushni o'z qo'li bilan bunyod etishini ilmiy hamda milliy qadriyatlar asosida singdira olishi lozim.

Yoshlarning dunyoqarashida milliy iftixorning o'rnini beqiyos bo'lib, har bir yosh milliy qadriyatlar, milliy an'analar va milliy tarixidan kelib chiqqan holda shu millatga mansubligini chuqr anglashi va unga nisbatan munosabatini bilimlari asosida boyitib borishining o'zi yuksak hislar unda mujassamligidan dalolat beradi.

Biz ta'kidlayotgan yuqori insoniy hislarni ta'llim va tarbiya jarayonida shakllantirish uchun avvalo yangilanayotgan O'zbekistonning farovonlik yo'lidiagi strategiyasi bilan yoshlarni qurollantirish hamda kelajak sari intilishlarida samarali faoliyatning mohiyatini yoshlar dunyoqarashini kengaytirish orqali erishish eng ishonchli yo'llardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa yoshlarga chuqr bilim berish bilan bir qatorda ma'naviyat va ma'rifatga oid milliy qadriyatlarni singdirish pedagog va psixologlar oldida turgan eng katta dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarda yuqori insoniy hislarni shakllantirish va takomillashtirishning ijtimoiy psixologik omillari uni qurshab turgan muhitga uzviy bog'liq bo'lib, har qanday sharoitda ham yoshlar shu vatanning kelajagi ekanliklarini his etishlari ertangi kunimizning farovonligini ta'minlab berishiga shubha yo'q.

#### Adabiyotlar

1. E.G'.G'oziyev. Psixologiya metodologiyasi. – T.: 2013. Nashr.
2. И.Аргайл Социальная основа развития мировоззрения учащихся. ЛГУ. 2018.

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

T.Sabirxodjayeva, Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

В данной статье представлены идеи по формированию профессиональной компетентности будущих учителей.

**Ключевые слова и понятия:** образование, воспитание, профессиональное знание, умения, навыки, общечеловеческие и национальные ценности.

This article presents ideas for the formation of professional competence of future teachers.

**Key words and concepts:** education, upbringing, professional knowledge, skills, universal and national values.

Ta'limga – ta'limga oluvchilarga chuqr nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nmalar berishga, shuningdek ularning umumta'limga kasbiy bilim, malaka hamda ko'nmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir [1].

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'limga tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'maltirilmoqda. Ta'limga turlarining barcha bo'g'linarida ta'limga tizluklari va izchilligini ta'minlash yosh avlodni har tomonloma kamol toptirishda aniq, maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini tizimli shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayonni ham tashkil etishga qaratilgan.

Maktabgacha ta'limga tarbiya, umumiyligi o'rtaligiga va o'rtaligiga maxsus ta'limga, profesional ta'limga, oliy ta'limga tizimlari, oliy ta'limga keyingi ta'limga, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Tabiiyki bu pedagog-o'qituvchilarimizdan bilim hamda yuksak shakllangan kasbiy mahoratni talab etadi.

– Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim

deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaliviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'limga berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev – Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratayapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziolyillardir, [2].

Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'gom o'sishi, balki ularning eng zamonaliviy intellektual bilimlarga ega bo'lishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda.

Jamiyatda o'qituvchi-pedagogning obro'e-tibori va maqomini ko'tarish, ta'limga o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, ta'limga turlarini uzviy-izchil bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, mustaqil izlanishlari uchun ta'limga muassasalarida sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalar joylardagi har bir boshqaruv bo'limlari rahbarlarning mas'uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda.

Shuningdek, ta'limga ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'limga



oluvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish bilan talaba yoshlarning ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir [3]. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya jarayonini nafaqat talaba yoshlarga fanlar bo‘yicha bilim berish, balki egallangan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan o‘z faoliyatida foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish ham asosiy vazifalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayoni mazmunini modernizatsiyash, ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sifatini oshirishni talab etadi [4]. Zero, ta’lim-tarbiya tizimining tubdan yangilanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllanganlik darajasiga bog‘liq.

“Kompetentlik” atamasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha turli vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishish, yangicha yo‘l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ma‘lumotlardan to‘liq foydalanishda, turli ziddiyatlari vaziyatlarda rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risidagi nazariy bilimlar zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, kompetentlik o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Bunda shaxsning aniq vazifani bajarishi uchun o‘lgan bilimlari yig‘indisi, kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, shu bilan birga doimo rivojlanib boradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning, ta’lim oluvchilarning tayyorlarligi sifati va ixtisosiga zaruriy talablar, ularning madaniy va ma‘naviy ruhiy hamda kasbiy kompetentlik darajalarini shakllantirish uchun:

- yoshlarni ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratishda, ajodollarimizning avlodlariga qoldirgan ma‘naviy merosini yangi vujudga kelgan muayyan ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq eta bilish;

- o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish, Davlat ta’lim standartlari talablarida belgilangan fannlardan bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash, amaliyotga tatbiq etish;

- erkin, tahliliy, tanqidiy, tizimli, mantiqiy fikrlay olish, taqqoslay olish, muayyan vaziyatlarda mavjud bo‘lgan axborotlarga asoslangan holda eng maqbul yo‘lni tanlay bilish va qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun amalga oshirish kerak bo‘lgan samarali rejani tuza bilish;

- ta’lim sohasidagi milliy dasturlar doirasida qabul qilinayotgan qarorlar va ularning tatbig‘i asosida erishilgan qator ijobji o‘zgarishlar,

ta’lim sifat samaradorligi rivojlanishini yanada jadallashtirish, yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish;

- uzuksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyash, ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun o‘qitishning yangi shakl, noan‘anaviy uslublari orqali bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish;

- muomala madaniyati, shaxslararo munosabatda bag‘rikenglik, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni angloamoq,

- o‘z faoliyatini samarali rejalashtirish, vaqtini to‘g‘ri taqsimlash va tashkillashtira olish;

- chet tillarini bilish, kompyuter savodxonligi, mustaqil ravishda ta’lim olish va kasbiy malakasini muntazam oshirish, o‘z ustida ishlash.

“Pedagog kasbi dunyoga kelishi bilan o‘qituvchi zimmasiga avvalambor tarbiyalovchi vazifasi yuklandi. O‘qituvchi-tarbiyachi, ustoz demakdir. Uning fuqarolik, insoniylik vazifasi shu bilan belgilanadi” [5].

Amerikalik psixolog R.Gersbergning ta’kidlashicha, mehnatning har xilligi, mustaqillik, kasbiy rivojlanib (o‘sib) borish, bajarayotgan isjni muhimligini anglash kabilar o‘qituvchi faoliyatining haqiqiy sabablardan hisoblanadi.

Demak, pedagogik mahoratni oshirish, intellektual salohiyatni yuksaltirish pedagog-o‘qituvchi muntazam mustaqil ilmiy izlanishi jarayonida darsliklar, metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, video va audio vosita, kompyuter texnikasi va internet tarmoqlaridan foydalanish, tajribali o‘qituvchilar darslarini kuzatish va kuchli ustozga shogird bo‘lish hamda yaxshi shogirdlar tayyorlash, chet el tajribalaridan o‘rganish vositasida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish natijasida kasbiy kompetentlik sayqallanib boradi.

#### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.– T.: 2020.
2. Sh. Mirziyoyev “Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi”. – T (nutqi).: 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 1997.
4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T.: 1997.
5. E.I.Ro‘ziyev, A.O.Ashirboyev “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi”. – T.: 2020.

## FARZAND BOQIB OLGAN OILADA OTA-ONA MUNOSABATLARINING XUSUSIYATLARI

**S.Raximova, O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxisi markazi metodisti**

Благоприятная атмосфера в семье и выстраивание в ней гуманных взаимоотношений – одно из непременных условий стабильности и воспитательной ценности приемной семьи.

**Ключевые слова и понятия:** приемные дети, детско-родительские отношения, приемная семья, адаптация, приемные родители.

A favorable atmosphere in the family and building humane relationships in it is one of the indispensable conditions for the stability and educational value of a foster family.

**Key words and concepts:** foster children, parent-child relations, foster family, adaptation, foster parents.

Bolalar va ota-onalar munosabatlari qoidalar va o‘zaro ta’sirlar tizimini shakllantirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarda ham namoyon bo‘ladi. Ba’zida oila a’zolari o‘rtasida- kattalar va bolalarni fikrлari mos kelmasa, oilada to‘qnashuvlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu ma’noda, ota-onalar va oilanining barcha a’zolari bolaning umumiy talablariga alohida ahamiyat berishlari kerak.

Bolani oilaga muvaffaqiyatli qayta reintegratsiya qilish ko‘rsatkichlari.

1. Bolaning “ijobjiy qabul qilinishi”. Qabul qilingan bolalarning salbiy xususiyatlarini sezmaslikka harakat qilish va tushunish.

2. Qabul qilinayotgan bola bilan ota-onalarning hissiy aloqa o‘rnatishlari bu – muhim va qiyin munosabatlar, o‘rnii kelganda mojaro



bo'lishi mumkinligini inobatga olish kerak, bolalar o'z navbatida o'zlarini xuddi "dushman", tashvish keltiruvchi yoki keraksiz bola sifatida tasavvur qilib, hissiy masofa saqlashga urinishlari ham mumkin.

3. Asrab olishning motivatsiyasi. Bunda asosan quyidagi sabablar aniqlandi:

- 1) fiziologik sabablarga ko'ra bola ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda bolaga ega bo'lish istagi
- 2) bolalar uchun sevgi, o'z-o'zidan paydo bo'lgan bo'lsa-da
- 3) xayriya
- 4) yolg'izlik hissi
- 5) boshqa jinsdag'i bolaga ega bo'lish istagi
- 6) moddiy mukofotga qiziqish

Oila a'zolarining ta'lim olish motivatsiyasi ota-onalarning farzand asrab olgan bolalarga bo'lgan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi va bu ijobji bo'lishi kerak, shuning uchun ijobji sabablarga ega bo'lgan oilalarda iste'mol motivlariga ega oilalarga qaraganda bolalarni qabul qilishning yuqori darajasi qayd etildi.

Yangi yashash sharoitida bola uchun asosiy qiyinchilik - yangi rolni bajarishi va yangi pozitsiyasini egallashdir: oila a'zosi, o'g'li yoki qizi.

Bu yer-yangi oila, ular uchun o'zlashtirilmagan joy, odatda bolalarda oddiy oilaviy munosabatlardan tajribasi bo'lmaydi. Bola Mehrbonlik uyida bo'lgani kabi emas, balki boshqacha yo'l tutishi kerak. Va qanday qilib? U buni bilmaydi.

Kattalar, boshqa bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishmaydi, bu yerda yangi oilada qanday huquq va majburiyatlar mayjud bo'lishi mumkin? Uning narsalari va o'yinchoqlari qaerda, boshqa narsalarga qanday egalik qilishi mumkin? Savollar juda ko'p.

Oila farzandlari "Siz oilada kimsiz?" - degan savolga qanday javob beradilar? "Javob, ehtimol quyidagicha juda qisqa bo'lishi mumkin: "qiz, o'g'il". Lekin farzandlikka olingen bola birinchi navbatda o'z ismlarini aytib javob beradilar, ular qaysi sinf o'quvchisi ekanliklarini ko'rsatadilar. Ular o'zlarini o'g'il-qiz deb tan olishlari qiyin — hatto undan ham qiyinroq: aka-singil. Ma'lumki, hatto maktabda yoki bolalar uyida yashovchi akalar va opa-singillarda ham, hech qanday his-tuyg'ular, bir-biriga g'amxo'rlik qilish, birga bo'lishi istagi yo'q. Buni tezda o'rgatish mumkin emas, lekin bunga harakat qilish kerak. Ehtimol, boshida bola qarshilik qiladi, chalkashliklarni his qiladi, hissiy stressni boshdan kechiradi. Bunday bolalar uchun oilada nima sodir bo'lishining aniq belgilari, oilaning hayot qoidalari juda zarur.

Bundan tashqari, qaramlik ikki tomonlama jarayondir va imtiyozlar ham shunga yarasha o'zaro teng bo'lishi kerak. Birinchidan, farzand asrab oluvchi bolalarning yangi taassurotlarga bo'lgan munosabatini kuzatish foydalidir:

- oila a'zolari qanday munosabatda bo'lishadi, talablar qo'yiladi,
- kimga nima ko'proq yoqadi va nima uchun,

– kim qo'chib ketish istagida.

– ta'lim jarayonida erishilgan natijalarga e'tibor qaratish yaxshidir. Maqtov — dalda berish- bola rivojlanishining rag'batlantirilishidir, jazo — tarbiya uchun eng so'nggi va aksariyat holatlarda samarasiz usullardan biridir.

Bolalarning ijtimoiy tajribasini kengaytirish

Oilaning hayoti qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, bolalarning ijtimoiy tajribasi shunchalik keng bo'ladi.

Bolalarni rivojlantrish, ularning ijtimoiy tajribasini kengaytirish eng qiyin vazifa va bu yerda barcha oilalar uchun umumiyl tavsiyalar berilmaydi. Bolalarni uy ishlariiga jalb qilish, ularning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish, dam olish, muloqot oilaning o'ziga xos an'analaliga bog'liq. Ammo oilaviy urf-odatlar nima bo'lishidan qat'iy nazar, har bir bolaning oila hayotiga kirishi, umumiy tashvishlar bilan qiziqishi kerak.

Bundan tashqari, har bir bolaning hozirgi darajasiga qarab keyingi rivojlanish dasturini ko'rib chiqish kerak: defektolog bilan mashg'ulotlar, aqliy rivojlanishni tuzatish, o'qituvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar — bu bolaning yangi muhitga muvaffaqiyatlmoslashishi uchun zarurdir. Sport bo'limlari, misliqa maktabi, boshqa ijodiy yoki boshqa tadbirlar — juda kerak.

Bolalarni oila an'analari bilan tanishtrish uchun teatrlar, muzeylar, ko'rgazmalar, kitob o'qish, yozgi dam olish, yangi joylar bilan tanishish, qarindoshlar bilan muloqot qilish, kutilmagan hodisalar, hazil, iliq muhit, bir-biriga g'amxo'rlik bilan oilaviy bayramlarni tashkil etish samaralidir.

Oiladagi mehnat muhiti haqida so'z yuritish kerak. Barcha bolalar turli xil uy-ro'zg'or qobiliyatlarini o'zlashtirishida onaning o'rni juda ahamiyatga ega. Bularning barchasi oilaning ichida sodir bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bolalar tashqari hayotga ham otaning namunasi orqali kiradi: bu yerda texnik bilim, fermerlik, qurilish va boshqalar mayjud bo'lishi mumkin.

Faqat umumiy tadbirlarda — butun oila uchun kattalar va kichiklar, qarindoshlar va qabul qiluvchilarning chindan ham birlashishlari o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

#### Adabiyotlar

1. Абдувалиев Н.Б. "Психология ребёнка в семье" 2008.
2. Yu.Asadov, R.Musurmanov. Usmirlar deviant xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – T.: 2011.
3. N.G.Komilova "Xulqi ogishgan bolalar psixologiyasi" Uslubiy kullanma. – T.: 2008.
4. N.G.Komilova, F.I.Xaydarov "Muammoli o'smir, moslashuv tashxis, korreksiyon usullari". Uslubiy kullanma. –T.: 2008.
5. N.G.Komilova, L.U.Yusupova "O'smirlarda tajovuzkorlikni psixokorreksiyalash" Uslubiy qo'llanma. – T.: 2008.
6. M.Fayziyeva, A.Jabborov "Oilaviy munosabatlars psixologiyasi". 2007.

## DAVLAT VA NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH SEKTORLARI

**G.X.Jumasheva, Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti**

**V.K.Shukurlayeva, mazkur institut magistratura boshqichi talabasi**

Важнейшим периодом жизни ребенка является дошкольный возраст, когда развивается умственная деятельность, формируются нравственно-эстетические представления и физические качества. В связи с этим нашей стратегической целью в области развития дошкольного образования на ближайшие годы является создание необходимых условий для полного охвата им всех детей.

**Ключевые слова и понятия:** дошкольное образование, развитие, умственная деятельность, формирование, нравственность, этика.

The most important period of a child's life is the preschool age, when mental activity develops, moral and aesthetic ideas and physical qualities are formed. In this regard, our strategic goal in the development of preschool education for the coming years is to create the necessary conditions for the full coverage of all children.

**Key words and concepts:** preschool education, development, mental activity, formation, morality, ethics.



Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi uzlusiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g' inidir. Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk inson bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim tarbiysi juda muhim o'rinn tutadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdag'i bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarini amalga oshirish maktabgacha yoshdag'i bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'stirish, zarur bilim ko'nikma va malakalarini va mustaqil fikrashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarni mustaqil fikrashga o'rgatish texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adaptivlar bilan to'ldirish, sohaga malakalni pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini sanaladi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan-barkamol avlodni mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'mi hamda respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2017- yil 16- avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtida ucta yirik hujjat — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori imzolangan.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limidan teng foydalaniшини ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha

ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdag'i bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarini amalga oshirish maktabgacha yoshdag'i bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'stirish, zarur bilim ko'nikma va malakalarini va mustaqil fikrashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarni mustaqil fikrashga o'rgatish texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-lekabrdagi O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdag'i maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizomga muvofiq bolalarni ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma tipdag'i maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yo'llash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini o'tasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3305-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga berilgan sharhda ta'kidlanganidek: «... bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdag'i bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda». Mazkur qarorda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishdagi mayjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda keng ko'lamli tadbirlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan, shu jumladan, pedagog va rahbar xodimlarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish, ta'lim muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash belgilangan.

XXI asr kishisining idealini ta'lim tizimiga kiritish uning barcha bo'g' inlarining, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimining sifatjihatidan yangilanishi bilan bog'liq. Hammaga ma'lumki, inson hayotining dastlabki yetti yilini o'z ichiga qamrab oluvchi maktabgacha ta'lim yosh davri o'z ahamiyatiga ko'ra noyob holat hisoblanadi. Aynan shu yillarda bolada o'z asosiy insoniy qobiliyatlarining shakllanishi yuz beradi, uning shaxsi rivojining asoslari qo'yiladi. Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganligiga, ta'lim qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bog'liqdirdi. Bularning hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi

Yuqorida belgilangan me'yoriy hujjatlarni amaliyotga tatbig'i in o'rganish maqsadida davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish sektorlarida ta'lim-tarbiyani amalga oshirish jarayonini yanada takomillashtirish ham ko'zda tutilgan.



Xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy bo'limmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'naliishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga oлgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilanganligini kuzatamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5198-son farmonida ta'kidlagandek, «Maktabgacha ta'lim sohasi uzuksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarda respublikada ta'lim tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy

ustuvor yo'naliishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda».

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik, bu ta'limni boshqarish davlat organlari, ta'lim muassasalarini va xususiy biznes vakillaring resurslarni birlashtirish, daromad hamda xarajatlarning majburiyatiga muvofiq taqsimlanishiga asoslangan ta'lim loyihasini amalga oshirish borasidagi teng huquqli muddatli sheriklik hisoblanadi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019 yil 14-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. SQ-556-III-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi qarori. 2020.

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH SINF YOSHIDAGI BOLALARNING HISSIY MUAMMOLARI BILAN ART-TERAPIYA USULIDA ISHLASH

**S.M.Abduxamidov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakuliteti,  
"Pedagogika va menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi**

В статье рассматриваются пути развития художественно-эстетической культуры дошкольников и младших школьников с помощью арт-терапии, диагностики их личности и особенностей, а также решения эмоциональных проблем, мешающих их обучению.

**Ключевые слова и понятия:** искусство, арт-терапия, эстетическое воспитание, окружающая среда, эстетика, мышление, технологии, эмоции, метод, творчество, личность, образ, живопись.

The article discusses the ways of developing the artistic and aesthetic culture of preschoolers and younger schoolchildren with the help of art therapy, diagnosing their personality and characteristics, as well as solving emotional problems that interfere with their learning.

**Keywords and concepts:** art, art therapy, aesthetic education, environment, aesthetics, thinking, technology, emotions, method, creativity, personality, image, painting.

Bugungi kunda maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsiyonal sezgirlikni o'stirish orqali ularning ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, ulardan kundalik hayotida foydalinishga o'rgatish kabi yangi pedagogik vositalarni aniqlashtirish talab etilmoqda.

Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning hissiy rivojlanishi yuqori qo'zg'aluvchanlik, o'zgaruvchan kayfiyat, asabiyashish, qo'rquv, tashvish kabi yana bir-qancha xususiyatlar, estetik (hissiy) tarbiya va badiiy-estetik madaniyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyojkor munosabatni shakllantirishi, bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanirish, ijtimoiy tajriba orttirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan salbiy oqibatlarga olib boruvchi omillarni bartaraf etish maqsadida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy va amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik, me'morchilik, dizayn, kulolchilik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqshinkor bezak va haykaltaroshlik, kashtachilik va gilamdo'zlik, sholchado'zlik, chitgarlik, zargarlik san'ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi kabi san'atning yana bir qancha turlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlar beriladi.

Art-terapiya usuli maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi

bolalarning shaxsiy va hissiy-ixtiyoriy xususiyatlarini tashxislash, rivojlanishdan tashqari o'qitish va ta'lim olishga to'sqinlik qiladigan hissiy muammolar bilan ishslash usuli sifatida ham qabul qilinadi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar shakllanishi va rivojlanishi uchun quyida keltirilgan Art-terapiyaning vizual metaforalari (22 usul) dan foydalinish maqsadiga muvofiqdir.

Agar psixologda rasmlar, xaritalar va fotosuratlar bo'lsa bu muammolar yoki so'rovning assotsiativ seriyasini tahlil qilish va o'rganish uchun eng yaxshi vizual usul (Lot visualis-ko'rish mumkin bo'lgan, ko'rindigan) metaforadir (bu shaxs, joy, narsa yoki g'oyaning o'ziga xos birlashuv yoki o'xshashlik nuqtasini ko'rsatadigan vizual tasvir orqali namoyish qilishdir). Qanday qilib buni tasvirlar bilan vizual proeksiyalash bilan ishslashning eng yaxshi 22 usuli quyida tasvirlangan.

1. Suratlardan foydalinish mijozning ichki dunyosi bilan tanishish uchun zarur shartdir.

Misol uchun: «Sizning ichki dunyongizning rasmini toping, u haqidha va o'zingiz haqingizda aytib bering»

2. Suratlar metaforali tasvirlar yordamida mijozning istaklari tarixini namoyish etadi va aytib beradi.

Misol uchun: «O'z xohishingizning rasmini toping»

3. Metaforik va proeksiyon rasmlar psixologga gapirmaydigan mijoz bilan og'zaki bo'limgan muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Misol uchun: «Muammoni rasmlar orqali aytинг»

4. Suratlar va metaforik xaritalardan foydalinish psixologning



mijozni psixologik himoya qilishning turli shakllari bilan xavfsiz o'zaro ta'sirini osonlashtiradi.

Misol uchun: "Tashrifingiz maqsadini tushunishga yordam beradigan rasmni toping"

5. Kartochkalar mijozlarga muammodan tezda chiqish imkoniyatini beradi.

Misol uchun: "Muammoni bildiruvchi rasmni toping"

6. Mijozga tegishli har qanday psixologik hodisaga proekcion tasvir yordam beradi

Misol uchun: "Sizga buni eslatadigan rasmni toping ...".

7. Maslahatga kelgan mijozning muammolar va so'rovlar repertuarini yaratish.

Misol uchun: "Sizning muammongizni aks yetiruvchi rasmlarni tanlang?"

8. Fototerapevtik vosita resurs holatini olish uchun tegishli mavzularni tezkor izlashga yordam beradi.

Misol uchun: "Sizga quvonch keltiradigan rasmni toping"

9. Rasmlar kelajakda mijozning shikastlanish tajribasi nuqtai nazaridan ehtiyojlarini aniqroq aniqlashga yordam beradi.

Misol uchun: "Suratlardan va kartalardan o'zingizning kelajagingiz tasvirini yaratating"

10. Fototerapiya mijozning hayotning barcha sohalarida taktik va strategik maqsadlarini tezda hal qilishga yordam beradi.

Misol uchun: "Suratlardan hayotingizni 5 yillik rejasini tuzing"

11. Rasmlarni ko'zgu orqali ko'rish tana darajasida fiziologik stress va salbiy zo'riqish alomatlarini tezda yo'q qilishga yordam beradi.

Misol uchun: «Sizni va tanangizdagi keskinlik namoyon bo'lishimi tezda uyg'unlashtiradigan rasmlarni toping»

12. Turli xil kartalar, rasmlar va fotosuratlarning kombinatsiyasi mijozning jamiyat va ichki makon bilan o'zaro munosabatlarini tushunish imkoniyatini beradi.

Misol uchun: "Yaqinlaringizga sovg'a uchun rasmlarni tanlang va bu ularga nima uchun yoqishini aytинг"

13. Tasvirlar va rasmlar insonni va uning xotiralarini bog'laydigan to'g'ridan-to'g'ri ko'prikdir.

Misol uchun: "Hayotingizning asosiy xotirasi rasmini toping"

14. Suratlardan va fotosuratlar mijozga yashirin imkoniyatlari bilan tanishish uchun imkoniyat yaratadi.

Misol uchun: "Hech qachon tanlanmaydigan rasmni tanlang"

15. Turli tematik, og'zaki va semantik qismlardan foydalanish ma'nova so'rovning tizimli psixologik manzarasini ta'minlaydi.

Misol uchun: "O'zgarish jarayonini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan barcha rasmlarni toping"

16. Muammoning ontogenetik sabablarini izlash sezilarli darajada tezlashadi va mijozlar hayotining turli yo'nalishlarini tayyorlashda rasmlardan foydalanishga yordam beradi.

Misol uchun: "Rasmlardan foydalangan holda hayotingizni asosiy bosqichlariga ko'ra rasmga oling".

17. Maslahat jarayoni doirasida ularni yangilash uchun ongrning yashirin belgilarini toping.

Misol uchun: "Muammoning yechimini topish bilan bog'liq bo'lgan tushunarsiz rasmlarni toping"

18. Suratlardan foydalaniib voqelikni idrok etishning yangi tizimini modellaشتirish mijozga to'g'ri yondashishni ta'minlaydi.

Misol uchun: "Muammo yo'qolganda rasmlardan foydalaniib rasm yaratating"

19. Suratlardan muammoni tahlil qilish va yechimini topish uchun zarur assotsiativ seriyalarni tez va samarali yaratishga yordam beradi.

Misol uchun: "Rasmlarni birinchi bo'lib paydo bo'lgan va muammoni hal qilishga yordam beradigan tasavvurga ko'ra tanlang"

20. Suratlardan ichki ziddiyatni oson aniqlashda yordam beradi.

Misol uchun: "Rasmlardan muammoni bartaraf etishi mumkin bo'lgan tasvirlarni toping"

21. Rasmlar yordamida xayolot mukammal tarzda o'rgatiladi va bu, bilganingizdek, har qanday qiyin hayotiy vaziyatdan muvaffaqiyatli

chiqib ketish uchun asosdir.

Misol uchun: "Muammoni hal qilishning ajoyib yechimlari suratlarini o'ylab ko'ring"

22. Suratlardan rasmlar va xaritalar yordamida siz o'zingizni tasvirlar dunyosiga botirasiz, tasavvurni kengaytirasiz. Fototerapiya yordamida meditatsiyaning ushbu shakli ijodiy o'zini o'zi davolash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Misol uchun: "Siz suratga tushishni xohlagan tasvirni toping va u yerda biroz vaqt o'tkazing"

Zamonaviy amerikalik psixolog D.Goleman shaxsiyat hissiy poydevorining erta paydo bo'lishi haqida shunday deydi: "Bolalarning keyingi hayotlarida hissiy imkoniyatlar juda erta yoshlarda shakllantiriladi. Bu o'ziga xos fazilatlar uchun asosdir: ishonch, qiziquvchanlik, ichki istak, harakat qilish istagi, o'zini tuta bilish, muloqot qilish qobiliyati va hamkorlik". Bu maktabgacha yoshda hissiy rivojlanish uchun qulay bo'lgan shaxsning keyingi shakllanishi uchun juda muhimdir.

Xulosa o'mnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning hissiy muammolarini o'rganishda Art-terapiya usullaridan foydalanish zamon talabidir.

Art-terapiya usullari orqali sodda tasvirlar, ularni ajratish, ranglarga bo'yash, shakllar tayyorlash, fantaziya rivoji, shakllarning hajmi, tuzilishini tahlil qila olish kabi yana bir-qancha qobliyatlar shakllanadi va rivojlanadi.

#### Adabiyotlar

1. R.Ishmuxammedov "Innovations technologies in education" T.: 2004.

2. Abdusamedov S.M, "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlari shakllartirish". "Maktab va hayot" journali ISSN 2010-5460, 2-son, 2019.

3. Abdusamedov S.M. "Bolalar uchun art-terapiya usullarining imkoniyatlari". "Mug'allim hem uziksiz bilimlendirish" journali, № 2/1. Nukus: 2021-жыл, ISSN 2181-7138.

4. Hasanov R. "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi". – T.: "Fan va texnologiya". 2004.

5. Abdusamedov S.M, "Ethical Issues In The Works Of Bahauddin Naqshbandi". International Journal of Research. ISSN: 2348-6848 Vol-5, Special issue-18. 2nd EdulIndex, International Conference on Science Changes the World held on 28-29 th June 2018 at Edupedia Publications Pvt Ltd, New Delhi in Association with www.tadqiqod.uz of the Republic of Uzbekistan.

6. Hakimova M.F. Pedagogical technologies. O'quv qo'llanma. – T. TDIU. 2013.

7. Abdusamedov S.M. "Tasviriy san'atda tur, janr va oqimlar", O'zbekiston Respublikasi Adoliy vazirligi qoshidagi intellektual mulk agentligi. DGU 2020 0868, DGU 59858, 04.06.2020. info@jma.uz. № ED-5-11. Mutaxasis N.A.Yakubov tomonidan berilgan.



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA OID KORREKSION ISHLAR

Z.Axmedova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi  
F.Qurbanova, mazkur universitet magistratura bosqichi talabasi

В данной статье описаны особенности овладения письменной речью учащимися начальных классов, усвоение правописания, требования к формированию навыков письма.

**Ключевые слова и понятия:** устная речь, письменная речь, психологический процесс, слово, текст, ученик, педагог-логопед, словарь, орфография, умение, навык, социальный характер, логопедическая помощь.

This article describes the features of mastering written speech by primary school students, spelling, the requirements for the formation of writing skills.

**Key words and concepts:** oral speech, written speech, psychological process, word, text, student, speech therapist, dictionary, spelling, ability, skill, social character, logopedic help.

Umumta'lim maktablari oldidagi yosh avlodni ma'naviyaxloqiy barkamol, bilimdon shaxs sifatida shakllantirish vazifasi ko'p jihatdan boshlang'ich sinflarda ta'limga to'g'ri tashkil etish, xususan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning og'zaki va yozma nutqini talab darajasida o'stirish bilan chambarchas bog'liq. So'z zaxirasi boy o'quvchining fikrlash doirasi keng, ma'naviyati yuksak, o'qish-o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lishi tabii.

"O'quvchi psixikasining rivojlanishi ijtimoiy xarakterga ega. Bunda muhim shartni o'qitish va ta'limga egallaydi. Ta'limga jarayonida o'quvchilarni psixik jarayonlarning ongliligi va ixtiyorligi yuzaga keladi va rivojlanib boradi. Ta'limga jarayonida o'quvchi yozma nutqni o'rganib boradi, yozma nutq og'zaki nutqiga nisbatan idrokning to'liqligini, bayonning o'ylanishini talab etadi" [1].

Yozuv murakkab tizimli va ixtiyorli psixik jarayon hisoblanadi. Bu kompleks ko'nikma turli funksional tizimlar koordinatsiyasi va integratsiyasini talab etadi. Yozuvning buzilishi ona tili bo'yicha o'quv dasturini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi va ta'limga olishdagini turg'un qyinchiliklarga olib keladi.

Yozma nutqida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarga o'z vaqtida logopedik yordam ko'rsatilmasa, o'quvchilar yozuvidagi xatolar yuqori sinflarda ham saqlanib qoladi (bo'g'lnlarni tashlab ketish, so'zlarini qo'shib yozish, eshitilishi jihatidan o'xshash harflarni almashtirish). Bularning barchasi kamchilikni barvaqt aniqlash va o'z vaqtida korreksion logopedik ishni olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Maktab o'quvchilarini ona tiliga o'qitishning muhim muammolaridan biri ularda xatosiz yozish malakasini shakllantirishdan iboratdir. Bu yozma nutq shakllanishing moddiy asosini tashkil etadi. Usiz esa maktabdagi o'quv jarayoni muvaffaqiyatlari kechishi mumkin emas. Bunday o'quvchilar maxsus tashkil etiladigan logopedik mashg'ulotlarga muhtojdirlar. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini o'rganish natijalari asosida, logopedik ish, har bir o'quvchining individual tayyorligini hisobga olib holda tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Nutq buzilishlarini o'rganish bo'yicha koreksion-logopedik ishni tashkil etishda ona tilining o'ziga xosligini inobatga olish zarur.

Boshlang'ich ta'limga dasturining muhim ko'rsatmalaridan biri-nutq va tafakkurni o'stirishdir. Buning uchun faol o'yash, fikr yuritish, tushuntirish bilishga o'rgatish, muhokama qilishga, xulosa chiqarish va umumlashtirish usullaridan foydalanana olishga o'rgatish talab etiladi. Maktabda o'quvchilarini tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, yangi o'rgangan tovush, so'z va gaplarni o'z nutqida ishlata olishga o'rgatish hamda ularda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Yozma nutqni o'stirish maqsadida o'quvchilar ongiga grammatik ma'lumotlar singdirib boriladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslari amaliy xarakterga ega bo'lib, nutqiy ko'nikma va orfografik malakalarni hosil qilishga qaratilgan hamda ta'limi vazifalaridan tashqari korreksion vazifalar ham amalgal oshiriladi.

Yozma va og'zaki nutq taraqqiy etilishi bilan bir qatorda o'quvchilarning bilish faoliyatları, mantiqiy tafakkuri kengayib

boradi. O'quvchilar til materialini tahvil qilishga, farqlash, taqqoslash, umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlarini topish, grammatik va orfografik bilimlarni amalga tatab qilish kabi ongli aqliy jarayonlar o'quvchining umumiyligi rivojlanishini ta'minlaydi, nutqiy va aqliy nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Ona tili va yozuv darslarida o'qituvchi o'quvchilarini til hodisalarini kuzatish va tushunib yozish, ongli o'qish, kitobdan yoki doskadan ko'chirib yozish, nutqni diqqat bilan tinglash, eshitib turib diktant ostida yozish, o'rgangan qoidaga amalda rioya qilish, aytilgan va yozganlarni tekshirish, ko'rgan-kechirganlarini, o'z taassurotlarini yozma va og'zaki bayon qilishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda yozuv darslarida amaliy mashqlar asosida ma'lum grammatik bilimlar beriladi va ko'nikma hamda malakalar hosil qilinadi. Shu yo'l bilan yuqori sinflarda ona tili darslarida nazariy bilim egallash uchun zamin yaratiladi.

1-4-sinflarda o'quvchi so'zning fonetik qurilishi, ma'noli qismalari bilan ayrim so'z turkumlari va ularning asosiy belgilari bilan tanishadilar, gap va gap bo'laklari haqidagi ma'lumot oladilar, mazkur mavzularga oid imlo va tinish belgilari qoidalarini o'rganadilar. Dasturda so'zning leksik ma'nosini, ko'p ma'noli, ma'no jihatidan bir-biriga o'xshash (sinonim), qarama-qarshi ma'noli (antonim) so'zlar bilan tanishirilganda alohida e'tibor beriladi, nutqning asosiy qismalari bo'lgan tovushlar, so'z va gapga ongli munosabatda bo'lish tarbiyalanadi. Dastur materialining sinflar bo'yicha taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. To'g'ri taqsimlangan material bilimlarni izchillik bilan puxta va to'liq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'g'ri yozuvga o'rgatishda eng katta mas'uliyat ona tili o'qituvchisi va o'qituvchi-logopedga tushadi. O'qituvchi o'quvchilarga bilim berishda o'z mehnatini samarali, zavqlvi va yengil qiladigan ish usullarini qo'llagan holda darsni olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlanganlik darajasini hisobga olib holda, ularni yozma nutqini shakllantirishda ko'rib idrok etish uchun mo'ljalangan o'qituv vositalari, ya'ni darslik, rasm, jadval, doskaga yozilgan yozuvlar, tarqatma materiallar, kartochkalardan foydalanish dars tizimini yanada samarali, o'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan bilimlarni to'laroq egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday vositadan foydalanishda shu vosita grammatik materialga mos kelishi, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, uning mavzusi va maqsadiga mos ravishda ishlatalishi shart.

Hozirgi zamon ona tili metodikalarida ham imloni o'zlashtirishda ko'rish uquvining ahamiyati nihoyatda katta ekanligi ta'kidlangan. Kuzatuvchan, idroki yaxshi rivojlangan, ko'p o'qiydigani o'quvchilar yaxshi xatosiz yozadilar. Diqqat bilan o'qish so'zning shaklini eslab qolishga imkon yaratib, keyingi o'rganiladigan grammatik va orfografik tushunchalarni umumlashtirishga yordam beradi. Ko'rish orqali esda saqlash, o'z yozganini tekshirish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa yozuvga o'rgatishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilarning ko'rur uquvi, xotirasni, kuzatuvchanligi, diqqatini tarbiyalash juda muhimdir. Ko'rib esda saqlash yo'li bilan o'quvchilar imlo qoidalariiga bo'yusunmaydigan, qiyin so'zlarini yozilishini bilib oladilar.



Savodli yozuv to‘g‘ri yozishga qaratilgan turli xil mashqlar asosida shakllanadi. Yozuv malakalarini shakllantirishda yaxshi eshitma olish, to‘g‘ri o‘qish, yozuv qoidalariga rioya qilish, qo‘l va barmoqlarni harakatga keltirish kabilarning ham ahamiyati katta. Shuning uchun so‘zлarni yozganda qo‘lni uzmashdan alohida xarflar emas, balki butun so‘zni yoki uning bo‘g‘imlarini ajratib yozishga o‘rgatish talab etiladi. Ko‘rvu uquvi va qo‘l harakatlari birgalida bajarilganda so‘zлarning grafik obrazlari tasviri yaxshiroq esda saqlanib qoladi. Demak, to‘g‘ri yozuvni o‘rgatishda barcha analizatorlarning faoliyati: ko‘rvu, eshituv, nutqni harakatga keltiruvchi hamda, barmoqlar harakati muhim ahamiyatga ega. Ularning birgalikdagi faoliyati orfografik sezgirlikni yaratadi, grammatic qoidalarni o‘rganish hamda ularga amal qilish orqali savodxonlikni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinfdagi yozuv malakalarini shakllantirishni ta’minlovchisi quyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi:

1. Yoziladigan matn, gap, so‘z ma‘nosи o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi kerak. Ko‘chirib yozish yoki diktant ostida yozish uchun beriladigan har qanday so‘z, gap ma‘nosи oldindan tushuntirilgan bo‘lsagina, o‘quvchini ongli yozishga o‘rgatish mumkin.

2. So‘zning talaffuzi va yozilishiha, grammatic shakliga nisbatan e’tiborli bo‘lish, ongli yozish va yodda saqlash, xatolarni payqab ularni mustaqil tuzatish.

3. O‘rganilgan materialni puhta o‘zlashtirish, o‘quvchilarining fikrлash qobiliyatini faollashtirish uchun so‘z va gaplarni muntazam tahlil qilib borish, bir xil o‘zakli so‘zлarni ajratib, ayrim o‘xshash so‘z va gaplarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash.

4. Nutq faoliyatining barcha turlari ustida ishlash, so‘z va gaplarni fonetik, morfologik va sintaktik tomonidan tahlil etish, bog‘langan nutqini o‘stirish. Nutqning ayrim tomoni ustida ishlab, boshqa tomonlariga e’tibor susaysa, o‘quvchi savodxonligi pasayadi. Bu xol yuz bermasligi uchun orfografik mashqlar (ko‘chirib yozish, diktant) bog‘lanishli nutqni o‘stirish (bayon, insho) mashqlari bilan navbat bilan o‘tkazilishi lozim.

5. Grammatik tushunchalar asosida orfografik mashqlarni lug‘aviy orfografik ishlar bilan almashtirib turish. Maktabda ko‘pgina so‘zлarning yozilishi lug‘atga suyangan holda lug‘aviy-orfografik mashqlar yordamida o‘tkaziladi.

6. Barcha turdagи xatolarni oldini olish, tekshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholash. Savodli yozuvni orfografik, monografik, sintaktik va boshqa turdagи xatolarni oldini olish ishlami ta’minlaydi. Yozishik doir topshiriqlarni xatosiz bajarish, bajarilishi lozim bo‘lgan, bajarilgan vazifalarning to‘g‘riligini o‘quvchilarning o‘zлari tekshirishi (o‘z-o‘zini tekshirish), yo‘l qo‘yligan xatolar ustida faol ishlash, bayon va insho turidagi mustaqil ishlarni bajarish uchun sharoit yaratadi.

7. Izchillik - bilim, ko‘nikma va malakalarining puxta bo‘lishini ta’minlaydigan tamoyillardan biridir. Ushbu tamoyil bilim, ko‘nikma va malakalarining o‘zaro bog‘liq holda shakllanishni talab etadi. Har qanday malaka uzoq vaqt o‘tkaziladigan mashqlar tufayli shakllanadi. Orfografik malakalar uzoq vaqt ichida xilma-xil usullar bilan turli mashqlarda shakllanadi. Ayrim hollarda o‘quvchi qoidani biladi, biroq yozuvda xatoga yo‘l qo‘yadi. Xato qoidani tushunib yetmaslikdan kelib chiqadi. Buni tuzatish uchun o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar til hodisalarini kuzatadilar, tahlil etadi, solishtiradi, o‘z mulohazalarini bajartirish orqali amalgalash oshiriladi.

#### Adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Развитие устной речи. Детская речь. – М.: 1996.
2. М.Аюпова. Logopediya. – Т.: 2007.
4. Корнев А.Н. Нарушения чтения и письма у детей. –Санкт-Петербург. 2003.
5. Ефименкова Л.Н. Коррекция устной и письменной речи учащихся начальных классов. Пособие для логопеда. – М.: 2006.

## YORDAMCHI MAKTAB O‘QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISH

**D.G.Azizova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim” fakulteti, Oligofrenopedagogika kafedrasи o‘qituvchisi**

В статье выделены важные аспекты процесса удовлетворения учащимися с ограниченными интеллектуальными возможностями потребности во взаимодействии с другими людьми, возникающей в ходе их повседневной жизни и деятельности в различных сферах.

**Ключевые слова и понятия:** устная речь, письменная речь, речевая деятельность, повседневность, психическое, физическое, внимание.

The article highlights important aspects of the process of satisfaction by students with intellectual disabilities of the need for interaction with other people that arises in the course of their daily life and activities in various fields.

**Key words and concepts:** oral speech, written speech, speech activity, everyday life, mental, physical, attention.

Mustaqillik taraqqiyoti va rivojlantirish yo‘lida borayotgan O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi har bir fuqaroning manfaatini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Istiqlol yillarda davlatimiz olib borayotgan izchil islohotlarning barchasi inson manfaatini ifoda etmoqda.

Bu borada keng ko‘lamli ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi. Shu jumladan jamiyatimizning sog‘lom kishilari qatorida va jismoniy rivojlantirishida nuqsoni bo‘lganlar uchun ham e’tibor kuchaydi. Maxsus ta’lim tizimini isloh qilish davom etar ekan, unda maxsus ta’lim-tarbiya muammolari har tomonlama tadqiq qilinib, ruhiy va jismoniy rivojlanishda



nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari va unda yuzaga kelayotgan holatlarga jiddiy e’tibor qaratish dolzarb masalasidir.

Shu nuqtai nazardan yordamchi maktab o‘quvchilarining o‘quv nutq faoliyatini o‘rganish masalalari bo‘yicha tadtqiqot o‘tkazish dolzarbdir. Aqli zaif o‘quvchilarining o‘quv nutq faoliyati kundalik turmushi va turli sohalardagi faoliyati davomida vujudga keladigan, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishni ta’minlovchi muhim jarayondir. Nutq faoliyatlarining bajarilishi og‘zaki nutqqa, yozma nutqqa bo‘linadi. Ma’lumot olish tinglab tushunish, o‘qish orqali amalga oshsa, ma’lumot berish, gapirish va yozma nutq orqali amalga oshadi. Ushbu faoliyatning eng oddiy usullarini odam bolalik chog‘ida kattalar bilan muloqotga kirishish orqali egallaydi. Nutq faoliyatini amalga oshirish qobiliyati bolaning aqliy jihatdan rivojlanishi jarayonida takomillasha boradi.

Birinchidan nutq faoliyatini kundalik turmush bilan bog‘liq muloqotlarni amalga oshirish vositasi sifatida mustahkamlanib boradi. Ikkinchidan, bu faoliyat insonning turli sohalaridagi faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan muloqot jarayonini qondiruvchi vosita sifatida shakllana boshlaydi. Nutq faoliyatining kundalik muloqotini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tibbiy sharoitda ham yetarli darajada rivojlanaveradi. Ammo nutq faoliyatini insonning turli sohalaridagi faoliyati, ayniqsa, aqliy mehnat jarayonida yuzaga keladigan muloqotni ta’minlay oladigan darajaga etkazish uchun maxsus ta’limni joriy qilish zaruriyati tug‘iladi. Mana shu ishni maktabdagisi ta’lim-tarbiya ishiga daxldor bo‘lgan barcha pedagoglar ma’lum darajada bajaradi. Ammo bu sohadagi ishni ilmiy asoslangan metodik tizim bo‘yicha yo‘lga qo‘yish o‘qish, ona tili, nutq o‘stirish o‘qituvchilarining zimmasiga yuklanadi.

Aqli zaif o‘quvchilarga hayotiy muloqot uchun bo‘lgan nutq, ko‘nikma va malakalarini singdirish uchun dars jarayonida oziga xos nutq faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurati tug‘iladi. Tabiiyi, bunday faoliyat hayotiy muloqot sharoitida yuzaga keladigan nutq faoliyatidan keskin farq qiladi. Shuning uchun ham darsda ta’limiy maqsadni ko‘zlab amalga oshiriladigan muloqotni o‘quv nutq faoliyati deb atash mumkin. O‘quv nutq faoliyatining xususiyatlari haqidagi to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni tabiiy nutq faoliyati bilan quyidagicha taqqoslash mumkin:

Nutq faoliyati	Tabiiy nutq faoliyati	O‘quv nutq faoliyati
Nutq faoliyatini yuzaga keltiruvchi sabab	Biror hayotiy ehtiyojni qondirish uchun boshqalar bilan muloqotga kirishish zarurati	O‘quvchi tomonidan belgilangan topshiriqni bajarish zarurati
Nutq faoliyatining asosiy maqsadi	Suhbatdoshni biror faoliyatga undash, uning fikrlarini bilib olish yoki unga o‘z fikrlarini bildirish	Yaxshi baho olish, o‘qituvchining va o‘quvchilarining e’tiborini qozonish
Muloqot vaqtining miqdori	Muloqot vaziyatiga qarab so‘zlovchi tomonidan mustaqil beigilanadi	O‘qituvchi darsdagi shart-sharoitni hisobga olgan holda belgilaydi.
Muloqot o‘tadigan shart-sharoit	So‘zlovchining ongida muloqot ehtiyojini his qilinish va shunday muloqot uchun zarur bo‘lgan tashqi shart-sharoitning vujudga kelishi	Muloqot uchun zarur shart-sharoit o‘qituvchi tomonidan ta’minlanadi.
Nutq faoliyatining shakli	Muloqot ishtirokchisi tomonidan vaziyatga qarab belgilanadi.	O‘qituvchining ko‘rsatmasiga asosan belgilanadi.
Nutq faoliyatining natijasi	Suhbatdoshni ko‘zda tutilgan faoliyatga kirishiga erishish, unga kerakli fikrlarini bildirish yoki uning fikrlarini belgilab olish.	Topshiriq to‘g‘ri bajarilganidan qanoatlanish yoki qanoatlanmaslik.

Ushbu jadval yordamchi maktabda aqli zaif o‘quvchilar o‘quv faoliyatining tadiiy nutq faoliyatidan ko‘p jihatdan farq qilinishini ko‘rsatib turibdi. Bu o‘rinda nima sababdan tabiiy nutq bilan o‘quv nutq faoliyati o‘rtasida jiddiy farqlanish yuzaga keladi va bunday nomutanosibliklar ta’lim jarayoniga qay darajada ta’sir qiladi degan savol paydo bo‘lishi tabiiyidir. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin-tabiiy nutq faoliyati insonning turli sohalaridagi faoliyati, xususan mehnat, ijodiy, ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Aniqrog‘i nutq faoliyati boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda kishilar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlovchi vosita sifatida yuzaga keladi.

Binobarin nutqning asosini tashkil etuvchi muloqot ehtiyoji, nutqg‘oyasi, fikrlarning shakllanishi kabi kechinmalar insonning ma’lum sohadagi faoliyatining bevosita ta’siri ostida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, insonning muayyan faoliyati uning nutq faoliyati uchun tabiiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Afsuski, yordamchi mакtabda darslarda bunday kuchli va ta’sirchan omildan to‘liq foydalanishning imkoniyati yo‘q. Gap shundaki, darslarda aqli zaif o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat o‘qituvchining rejasiga bo‘yicha o‘tkaziladigan ta’limiy maqsadlar bilan cheklangan bir taraflama faoliyatdir. Shu sababli aqli zaif o‘quvchilar nutq faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha ruhiy kechinmalar o‘qituvchi tomonidan turli ta’limiy usul va vositalar yordamida sun’iy ravishda yuzaga keltiriladi. Bunday ta’limiy usul va vositalar aqli zaif o‘quvchilarining ongiga tashqaridan ta’sir etishga mo‘ljallanganligi uchun ular har doim ham kerakli ruhiy kechinmani yuzaga keltira olmaydi. Natijada ularda o‘quv nutq faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bir qator jiddiy qiyinchiliklar tug‘iladi. Bundan tashqari, aqli zaif o‘quvchilar o‘quv nutq faoliyati bilan tabiiy nutq faoliyati o‘rtasidagi farq tobora kuchayib boradi. Bu o‘rinda shuni ham eslatib o‘tish lozimki, maxsus ta’limning eng asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan vazifa, y’ani nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirish vazifasini hal qilish uchun eng qulay sharoit faqat tabiiy nutq vaziyatidagina mavjud bo‘ladi. Mana shu prinsipial xarakterga ega bo‘lgan qoidani yordamchi mакtabda o‘qish darslarida izchil ravishda qo‘llash uchun eng avvalo an’anaviy va noan’anaviy o‘qitish usullari va o‘quv vositalarini tahsil qilib, ularni qo‘llash paytida tabiiy nutqqa xos bo‘lgan ruhiy jarayonlar qay darajada ta’minlanishini aniqlash talab etiladi.

#### Adabiyotlar

1. Po‘latova P.M.-Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika) – T.: “G‘.G‘ulom”nashriyoti. 2005.
2. Po‘latova P.M.va boshqalar-Maxsus pedagogika – T.: “Fan va texnologiya”. 2014.
3. Raxmanova V.S.. Defektologiya asolari. – T.: “G‘.G‘ulom” nashriyoti. 2002.



# КОММУНИКАТИВНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНАЯ СИСТЕМА В ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

**А.О.Досмурзаева, студентка магистратуры Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами**

Nutq-bu dunyoni bilish vositasi, uning yordami bilan inson rivojlanadi va o'sadi. Shundan kelib chiqib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiga e'tibor qaratish lozim. Og'zaki nutqni rivojlantirish tabiiy vaziyatlarda, bolalarning kundalik hayotida shakllanadigan va rivojlanadigan kommunikativ va faol yondashuvda samarali bo'ladi.

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, muloqot va faoliyat tizimi, og'zaki nutq.

Speech is a tool for understanding the world, with its help a person develops and grows. Based on this, due attention should be paid to the speech of children with hearing impairment. The development of verbal speech is effective with a communicative-activity approach, when speech is formed and developed in natural situations, in the everyday life of children, which provides a significant result.

**Key words and concepts:** children with hearing impairments, communicative-activity system, verbal speech.

Воспитание и обучение это два понятия, которые неразрывно связаны между собой. Где есть воспитание, там же есть и место обучения. К примеру, в английском языке, слова воспитание и обучение переводятся как «education», одно слово для двух понятий. Воспитание – это формирование личности ребенка и его возможностей, а обучение – процесс передачи знаний. Ведь когда мы воспитываем уже идет передача наших знаний, под нашими знаниями подразумевается то, что мы хотим передать ребенку, то что хотим видеть в ребенке, будь это манеры поведения, личностные качества или теоремы и правила. И самым лучшим и эффективным методом воздействия является личный пример. Человек рождаясь, начинает подражать ближайшим, сначала их эмоциям, поведению, дальше самому человеку в целом. Если в период раннего детства ребенок подражает родителям, тем, кто находится большее количество времени с ним, то в дальнейшем подражание идет тем, кто вызывает интерес. В дошкольном и младшем школьном возрасте примером могут служить герои мультсериалов. Дети хотят такое же платье как у принцессы, такой же молот как у Тора. А дети постарше начинают подражать актерам, певцам, спортсменам, лицам, вызывающих у них уважение и восхищение. Так же предметом подражания могут стать и реальные люди, то бишь учителя, родители. Начинают копировать манеру общения, внешность, взгляды, вкусы. Здесь стоит быть внимательными и осторожными тем, с кого берут пример. Ведь копировать дети будут не только хорошее, но и плохое. Они будут впитывать все, словно губка. Этот метод пригодится для воспитания того, что хотим. Хотим видеть в ребенке честность, то и у воспитывающего она должна быть. Ведь если нет того, что хотим развить в ребенке у нас самих, ничего не получится. Мы не можем дать то, чего нет в нас самих. И тем более требовать этого от ребенка, это немыслимо, нелогично и просто глупо.

Сущность воспитания глухих и слабослышащих

детей такая же, но при этом важно знать некоторые особенности. И эти особенности становятся такими важными и значимыми, в случае, если родители с сохранным слухом. И эти особенности воспитания заключаются в средствах преподнесения знаний об особенностях здоровья ребенка. Если же ситуация другая, то есть родители тоже с нарушениями слуха, то сама модель воспитания остается неизменной. Важным для понимания сущности процесса воспитания детей с недостатками слуха является осознание цели воспитания. Целью воспитания является всестороннее, гармоничное развитие личности ребенка, возможно более полная его самореализация.

